ISSN 2181-3841

O‘zbekistonda professional ta’lim

Профессиональное образование в Узбекистане
Vocational education in Uzbekistan



3-son
2024 yil

ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal

www.profedu-jurnal.uz

“Ayni paytda mamlakatimizdagi ko'plab zamonaviy oliygohlar, kasb-hunar maktablari va texnikumlar maktab bitiruvchilarini o'z bag'riga chorlamoqda. Bu maskanlarda ularning ta'limni davom ettirib, yanada chuqurroq bilim olishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan”.

SHAVKAT MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

PROFESSIONAL TA'LIMNING RAQAMLI MALAKA OSHIRISH MUHITIDA TINGLOVCHILARNING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Ro'ziyev Dilshod Ubaydullayevich,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitini tashkil etishning maqsadi malaka oshirish jarayoniga raqamli va telekommunikatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Professional ta'lim, raqamli va telekommunikatsion texnologiyalar, raqamli malaka oshirish muhiti, pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy adabiyotlar.

Аннотация: В данной статье целью организации цифровой среды повышения квалификации профессионального образования является непрерывное развитие профессиональной подготовки слушателей за счет применения цифровых и телекоммуникационных технологий в процессе повышения квалификации.

Ключевые слова: профессиональное образование, цифровые и телекоммуникационные технологии, цифровая среда обучения, педагогическая, психологическая, философская, научная, социальная, экономическая литература.

Abstract. In this article, the purpose of organizing a digital skills development environment of professional education is the continuous development of professional training of listeners at the expense of the application of digital and telecommunication technologies to the process of professional development.

Key words: Professional education, digital and telecommunications technologies, digital skills development environment, pedagogical, psychological, philosophical, scientific, social, economic literature.

Professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhiti bu - malaka oshirishda ta'limiy axborotlarni uzatish va tezkorlik bilan almashishni ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Ushbu muhit asosida tinglovchilarni bir-birini tushunishga, o'zgalar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o'rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada yagona malaka oshirish muhitiga kirib boriladi.

Professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitini samarali tashkil etish uchun quyidagilar e'tiborga olinishi zarur: qo'yilgan muammoni yechish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko'p, tizimli, bir martalik yoki uzoq muddatli kuzatish, turli mintaqalardan ma'lumotlar to'plash; turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendensiyasini aniqlash uchun taqqoslab o'rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish; tarmoq ishtirokchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda har bir muammo yoki masalani yechish yo'llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o'rganish; o'ziga xos madaniy, an'anaviy va boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish; birgalikda ma'lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va boshqa) ijodiy g'oyani ishlab chiqish; malaka oshirish muammolarni o'rganish va hal etish bo'yicha musobaqalar o'tkazish va

bunda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, malaka oshirishdagi an'analar boshqa sohalar bilan bog'liq bo'lishiga qaratish.

"Raqamli malaka oshirish muhiti" tushunchasini qo'llashning tadqiqot imkoniyatlarini ochish "muhit" tushunchasining ma'nosini aniqlashni talab qiladi.

Raqamli malaka oshirish muhitining nazariy yadrosi – pedagogika fanining yangi yo'nalishi bo'lib, raqamli malaka oshirish muhiti yangilanishga yo'naltirilganlik mohiyatidan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni tadqiq qiladi. Shuning uchun an'anaviy malaka oshirish jarayoniga u yoki bu shaklda yangi pedagogik tizimni kiritish ko'p hollarda samarasizdir. Shu bois yangi sifat tuzilmasiga, tizimni tashkil etishning yangi mezonlariga ega bo'lgan butunlay yangi didaktik modelni yaratish lozim.

Bunday qarashga muvofiq, raqamli malaka oshirish muhitida o'qitish bilimni chiqarib olish, konstruksiyalashga yo'naltirilgan faol jarayondir. Bunday turdagi muhitlar ta'lim beruvchi uchun ham, ta'lim oluvchi uchun ham ochiq bo'lib, mazmunni to'ldirish va unga o'zgartirishlar kiritish, o'zining muhitdagi mustaqil o'quv faoliyati natijalarini taqdim qilish imkonini beradi. Bunday muhitdagi kommunikasion jarayonlar malaka oshirishning didaktik, metodik va tashkiliy tomonini ta'minlaydi va malaka oshirish jarayonining markaziy elementi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tinglovchilarning o'z qobiliyatlari va mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlarini samarali qo'llash maqsadlarida tinglovchilarning mustaqil boshqaruvni va o'ziga ongli ravishda ta'sir ko'rsatishni o'z qo'liga olishi talabada quyidagi mahorat va ko'nikmalar shakllanishi zarurati to'g'risida xulosa qilish imkonini berdi: o'zini o'zi motivatsiyalash (maqsadlarga erishishga va shaxsiy qobiliyatlarni faollashtirish uchun); ishlarni mustaqil tashkil etish (ishlarni rejalashtirish, shaxsiy vaqt va makonni tashkil etish, vazifalarni hal qilish texnologiyalari va usullarini tanlash uchun); o'zini o'zi nazorat qilish (ish borishi va uning oraliq natijalarini monitoring qilish, vaziyatlarga adekvat munosabat bildirish, o'zini chegaralash va natijasiz harakatlardan voz kechish uchun); o'zini-o'zi baholash, o'z-o'zini rivojlantirish-refleksiv (ish natijalarini baholash).

Pedagogik, psixologik, falsafiy, ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy adabiyotlarni, ilmiy-tadqiqot ishlarini va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish "tinglovchilarning mustaqil ishlashi sifati" tushunchasini ishlab chiqish asoslanishi lozim bo'lgan malaka oshirish sifati sohasidagi qator ilmiy-nazariy qoidalarni ajratish imkonini berdi.

Malaka oshirish jarayonida asosiy e'tiborni professor-o'qituvchi egallaydi. Shu sababli malaka oshirishni sifatli tashkil etish professor-o'qituvchilar tarkibini to'g'ri shakllantirishdan boshlanadi. **Savol tug'iladi: professor-o'qituvchi sifatini qanday aniqlash mumkin?** Professor-o'qituvchi nafaqat tinglovchilarga bilim beradi, u kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli professor-o'qituvchi sifati majmuaviy tushuncha bo'lib, u asosan quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- kompetentlik darajasi – aniq fan va amaliyot sohasi bo'yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo'lishi;
- professor-o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi;
- kuzatuvchanlik – o'quvchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg'ab olish;
- tashqi va ichki muhit bilan aloqa o'rnatish qobiliyati;
- o'z sohasi bo'yicha tanilganligi, mavqeyi;
- ilmiy –tadqiqot sohasidagi faolligi;
- ilmiy maktabining mavjudligi.

Tinglovchilarni professional ta'lim malaka oshirish muhitida mustaqil ishlashi sifati professor-o'qituvchi tomonidan uning tashkil etish metodikasini ishlab chiqilishi, tayyorlanishi va amalga oshirilishi va tinglovchilar tomonidan uning bajarilishi sifati bilan ta'minlanadi (1-rasmga qarang) 1-rasm.



1-rasm. Raqamli malaka oshirish muhitida tinglovchilarning mustaqil ishlash sifati tuzilmasi.

Ochiq raqamli malaka oshirish muhitida tashkil etiladigan professional ta'limda professor-o'qituvchining vazifalari birmuncha o'zgaradi. Chunki ochiq malaka oshirish masofadan boshqarishga asoslangan bo'lib, unda professor-o'qituvchi va tinglovchi o'rtasida ma'lum masofaviy oraliq bo'ladi. Bunda professor-o'qituvchi malaka oshirish jarayonini muvofiqlashtirishi, maslahatlar berishi, mustaqil o'quv faoliyatga rahbarlik qilishi, malaka oshirish kursini takomillashtirishi va o'z malakasini oshirish ustida ishlashi talab etiladi. Ochiq malaka oshirish muhitida malaka oshirish jarayoni yuqori texnologiyaga asoslangan bo'lib, unda raqamli va telekommunikatsiyaning yutuqlaridan keng foydalaniladi. Professor-o'qituvchi sifatini baholash uchun yuqorida tavsiya etilgan ko'rsatkichlar sonli baholanmaydigan omillar hisoblanadi. Jumladan, kompetentlik darajasini professor-o'qituvchining tayanch ma'lumoti, ilmiy darajasi va unvoni, pedagogik staji, aniq soha bo'yicha amaliy tajribasi orqali baholash mumkin.

Malaka oshirish jarayonlari integratsiyasiga bo'lgan ehtiyoj ochiq malaka oshirish muhitini shakllantirishni taqozo etadi, u quyidagilarga imkon beradi: o'quv jarayonini malaka oshirish muassasasidan tashqariga olib chiqish, masofaviy malaka oshirishni qo'llab-quvvatlash; yirik malaka oshirish konsorsiumlarini barpo etish; raqamli malaka oshirish resurslari global kutubxonalarini yaratish; tinglovchilarning global axborot makonidagi yangicha ish sharoitiga moslashuvini ta'minlash.

Shunga ko'ra, professional ta'limda malaka oshirish jarayonida malakali kadrlarni tayyorlashda amaldagi malaka oshirish yondashuvlarini o'zgartirish, mustaqil o'quv faoliyatga tayyor-

TO READ THE ARTICLE IN ENGLISH

ПРОЧИТАТЬ СТАТЬЮ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ

ISSN 2181-3841



garlikni rivojlantirish orqali mantiqiy tafakkur va kasbiy muammolarga yechim topishda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababli tinglovchilarni professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitida mustaqil o'quv faoliatga tayyorgarligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyat turla riga tayyorgarligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947 Farmoni. -Toshkent, 2017-yil 7-fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 Farmoni. -T., 2020-yil 6-noyabr.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. -T.: TDPU, 2003 – 174 b.
4. Babanskiy Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabida o'qitish metodlari. -T.: "O'qituvchi", 1990 – 232 b.
5. Балл Г.А. Теория учебных задач: Психолого-педагогический аспект. -М.: "Педагогика", 1990 -
6. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. -М.: "Педагогика", 1989 – 192 с.
7. Ziyomuhammedov B. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. -T.: "Abu Ali ibn Sino" nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001 – 78 b.
8. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 2004 – 236 b.
9. Golish L.V. Ta'limning faol usullari: mazmuni, tanlash va amalga oshirish. Metodik qo'llanma. -T.: O'MKHTRI, 2001 – 128 b.

O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH HOLATI

Raxmatullaeva Durdona Ravshanovna,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti professori, p.f.d. (DSc)
Agaliyeva Xabiba Narmaxmad qizi,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti
Omonova Xusnidaxon Topivoldiyevna,
Xalqaro Nordik Universiteti, "Ta'lim muassasalari boshqaruvi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar va bugungi holati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik kompetensiyasi, professional ta'lim, tadbirkorlik faoliyati.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы, возникающие при формировании предпринимательских компетенций у студентов профессиональных образовательных учреждений и их современное положение.

Ключевые слова: предпринимательство, предпринимательская компетентность, профессиональное образование, предпринимательская деятельность.

Abstract. This article analyzes the problems that arise in the formation of entrepreneurial competencies among students of professional educational institutions and their current situation.

Key words: entrepreneurship, entrepreneurial competence, vocational education, entrepreneurial activity.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor yoshlarimizning har tomonlama bilimli bo'lib kamol topishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlarimizning puxta bilim olishlari, ma'lum bir sohani to'la egallashlari hamda jamiyatda munosib o'ringa ega bo'lishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Shaxs, jamiyat va davlatning ta'limiy ehtiyojlarini qondirishda professional ta'lim tizimi sezilarli o'rin egallab, u ham texnikaviy, ham ijtimoiy sohalarda mutaxassislarni tayyorlashning keng doirasini amalga oshirmoqda.

Hozirgi kunda islohotlar natijasida ishlab chiqarishning rivojlanishi va sanoatda "Industria 4.0" strategiyasini ta'lim tizimiga joriy etish, jamiyatning raqamli iqtisodiyotga o'tishi va ta'lim tizimini raqamlashtirish, kelajak ta'lim muassasalari va ta'limda innovatsion muhitni yaratish, Worldskills International harakatiga O'zbekistonning a'zo bo'lishi o'rta kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarga ehtiyojning ortib borishi ni belgilamoqda.

Zero, professional ta'lim tizimining asosiy maqsadi: mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirishdan iborat.

Professional ta'lim tizimining vazifalari esa quyidagilar hisoblanadi:

ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo'lgan talablarini qondirish;

ta'lim olish bilan birgalikda o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur bilimlarni berish va ularning

ISSN 2181-3841

kelgusida o'z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o'stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o'quv jarayoniga innovatsiya shakllari, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo'llab, professional ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini ta'minlash bo'yicha qator vazifalar belgilangan [1].

Jamiyat, iqtisodiyot va axborot texnologiyalarning rivojlanishi o'rta bo'g'in mutaxassisining boshqaruv jarayonlarini ma'muriy-texnik qo'llab-quvvatlash, texnik, texnologik va axborot tizimlarini bevosita boshqarish, mahsulotning iste'molchilari va uning ekologik xususiyatlari sifatini nazorat qilish, uning xavfsizligini ta'minlash kabi funksiyalarining kengaytirilishini talab qilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida inson kapitalining o'sib borayotgan rolini oshirish, fan va texnikaning eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadida bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash uchun ta'lim tizimiga, ayniqsa, professional ta'lim tizimiga yuklatilgan rejalarni hisobga olib, iqtisodiyotning turli sohalari uchun mutaxassislar tayyorlash tizimi, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik faoliyati yoshlarning faol imkoniyatlarini namoyon qiladigan soha bo'libgina qolmay, ish o'rinlarini yaratishning ham asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamiz yoshlarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va o'z o'zini bandligini ta'minlash bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq mamlakatimizning aksariyat hududlarida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar ham qulay emas.

Biz tomondan tadqiqot doirasida o'quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini aniqlash maqsadida anketa-so'rovnoma va suhbatlar o'tkazilib, unga ko'ra, bo'lajak tadbirkorlarimiz oldilariga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishishda bir qator muammolarga duch kelishmoqdaki, bular:

— tadbirkorlik faoliyatini yuritishga oid qonunlarning asosini to'la anglamaslik, tadbirkorlik faoliyatiga oid axborotlarning yetishmasligi va tajribaning yo'qligi;

— tadbirkorlik va biznesni tashkil etish, rejalashtirish, yuritish, moliyalashtirish, soliqqa tortish va boshqarishda kerakli bilim hamda ko'nikmaga ega emasliklari, tadbirkorlik savodxonligining pastligi;

— yoshlar uchun yaratilgan imtiyozli kreditlardan bexabar ekanligi, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun moliyalashtirishning cheklanganligi va boshlang'ich kapitalning yetishmasligi;

— o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, g'oyalarni amalga oshira olmaslik, o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qo'rquvning mavjudligi va motivatsiyaning yetishmasligi hamda tavakkalchilik qobilyatlarining yo'qligi;

— mehnat bozori va unda ish izlash, ishga joylashish, ish beruvchi bilan bo'ladigan suhbatda o'z imkoniyatlarini va shaxsiy sifatlarini ko'rsatib bera olmasliklari,

— hududlarda yoshlarni tadbirkorlik va kasbga o'rgatuvchi ta'limiy kurslarning kamligi, tadbirkor yoshlarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari hamda biznes trenerlarning yetarli emasligi hamda tadbirkorlik sifat, ko'nikma va kompetensiyalarining yetishmasligi;

— garov ta'minotidagi qiyinchiliklar tufayli tadbirkorlik va biznesni yo'lga qo'yish, kengaytirish va rivojlantirish uchun imtiyozli bank kreditlaridan foydalanish imkoniyati cheklanganligi;

— davlat, jamoat va xalqaro tashkilotlar salohiyatidan foydalangan holda bepul maslahat xizmatlari va texnik yordam ko'rsatish bo'yicha tuzilmalarning yetarli emasligi va boshqalar.

Bu kabi muammo va ziddiyatlarning asosiy manbayi va sababi professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan mavjud tizimning mukammal emasligidir.

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, jumladan, ularni ish bilan ta'minlash hamda tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning turli yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlarining oldini olishda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda ta'kidlash o'rinliki, professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining tadbirkorlik faoliyati asoslarini chuqur egallashlariga erishish, xususan, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda chuqur bilimli, yuksak saviyali, mustaqil fikrlaydigan yoshlarning ishtirokini ta'minlashga erishish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuning uchun professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini tadbirkorlik sohalariga jalb qilish va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlariga keng yo'l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlaridan to'la foydalanish, yuqori samara, tashabbus va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyatini olib borishlari hamda dunyo talablari darajasida har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining bandligini ta'minlash, ularni egallagan mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz aholisining 18,9 mln nafari yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi [2]; bugungi yoshlar–ertangi kunimiz, kelajagimiz bunyodkorlaridir; bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra, tavakkalchilik, harakatchanlik, ishbilarmonlik sifatlarini taqozo etadiki, bularning aksariyati ko'pincha yoshlarda mujassamlashgan bo'ladi.

Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, o'quvchining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslanishida tadbirkorlik ta'lim mazmuni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va

ISSN 2181-3841

kambag'allikni tadbirkorlik asosida bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Tadbirkorlik faoliyatining muhimligi, ularning har bir kishi, jamiyat uchun zarurligi uni o'rganishga qiziqish va dolzarbligini belgilaydi.

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishda biz quyidagilarni aytishimiz mumkinki, faqat tadbirkorlik kompetensiyalarining asosi bo'lib sanaladigan tadbirkorlik fikrlashni shakllantirishga imkon beruvchi bilish faoliyati va tadbirkorlik nazariyasining uyg'unlashtirilishi, shuningdek, tadbirkorlik savodxonligi shakllanganligining amaliy yo'naltirilganligi bitiruvchilarning yanada samaraliroq kasbiy ijtimoiylashuvi imkoniyatini bera oladi.

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy moslashuvchanligi, ijtimoiylashuvi, raqobatbardoshligining muvaffaqiyatliligi ularning tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda barcha tadbirkorlik o'quv fanlari o'qitilayotgan o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim bo'lib, bu mehnat bozorida bitiruvchilarning moslashuvchanligi va ularning o'zini-o'zi band etishini ta'minlash va o'z biznes faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida tadbirkorlik hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarning ta'sirchanligini ta'minlashga imkon beradi.

Biz tomondan amalga oshirilgan tahlillar shundan dalolat beradiki, respublikamizda professional ta'lim tizimi o'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlar amalga oshirilmagan, hozirgi zamonaviy iqtisodiy shart-sharoitlarda mazkur mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, bundan oldin amalga oshirilgan ilmiy ishlar shubhasiz, bir qator foydali yutuqlarga egaligi, lekin ularning hozirgi zamon sharoitlariga moslashtirilishi talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida» 466-sonli Qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi «O'zbekistonda Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 23-sonli Qarori;
3. Raxmatullayeva D.R. O'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini aniqlash metodikasini joriy etish va pedagogik samaradorligini baholash uslubiyati / Fan, ta'lim va innovatsiya jurnali. –T.:2020, -№2. –B. 17.

O'QUV MASHG'ULOTLARDA ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Hamidov Jalil Abdurasulovich,
Jizzax politexnika instituti, pedagogika fanlari doktori, professor.
Komilova Nodira Abdurahmon qizi,
Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda asosiy pedagogik muammolardan biri – bu talabalarni amaliy masalalarni yechish uchun zamonaviy o'quv-didaktik vositalarini ijodiy qo'llashga tayyorlashdir. Bunday tayyorgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi amaliy masalalarni tanlash bo'lib, u shu bilan izohlanadiki, tanlangan amaliy masala talabaga o'zlashtirilgan bilimlarning turli xil komponentlarini yaxlit manzaraga birlashtirish va ularni amaliy-tatbiqiy tavsifda aks ettirish imkonini berib, nazariy bilim va zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan mustaqil foydalanish o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida ishtirok etadi.

Kalit so'zlar: nazariy bilim, didaktik vositalar, kasbiy faoliyat, bilimlar tizimi, motivatsiya, , kasbiy qiziqish.

Аннотация: Одной из основных педагогических проблем на сегодняшний день является подготовка учащихся к творческому использованию современных учебно-дидактических средств для решения практических задач. Основным средством формирования такой подготовки является подбор практических задач, что объясняется тем, что выбранная практическая задача позволяет студенту объединить различные компоненты полученных знаний в целостную картину и отразить их в практико-прикладном описании, теоретическом знаний и современной учебной дидактики.участвует как промежуточное звено между самостоятельным использованием средств. Узбекский

Ключевые слова: теоретические знания, дидактические средства, профессиональная деятельность, система знаний, мотивация, профессиональный интерес.

Annotation: one of the main pedagogical problems today is the preparation of students for the creative application of modern educational didactic tools for solving practical issues. The main tool for the formation of such preparation is the choice of practical issues, which is explained by the fact that the selected practical issue is involved as an intermediate link between theoretical knowledge and independent use of modern educational didactic tools, allowing the student to combine various components of acquired knowledge into a holistic picture and reflect them in a practical-applied description.

Key words: theoretical knowledge, didactic tools, professional activity, knowledge system, motivation,, professional interest

Bugungi kunga kelib uzluksiz ta'lim tizimida va jamiyatda pedagoglik kasbi eng nufuzli, sharafli kasbga aylanib bormoqda. Bu esa o`z navbatida pedagogik jarayonga tajribali va iste'dodli pedagoglarni jalb qilishni taqozo etadi. Ushbu dolzarb muammoni hal etish ya'ni davlat ta'lim standartlari talablari darajasidagi kadrlarni tayyorlash ishlari pedagoglar tomonidan faqatgina zamonaviy o'qitish texnologiya va didaktik hamda vizual vositalarni qo'llab, didaktik jarayonni tashkil etish va obyektiv boshqarish orqali ijobiy amalga oshirilishi mumkin. Mashg'ulotlarni didaktik vositalardan foydalanib o'tkazish o'qituvchi tomonidan tashkil qilinadi. Shuning uchun didakik vositalardan umumiy

o'rta maktab darslarida foydalanish, professional ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida esa ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash va o'tkazishda qo'llash nazarda tutilgan. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalar dastlab kasbiy fanlarni o'rganadilar. Quyi kurslarda esa u hali metodik fanlar bilan tanish emas va kasbiy faoliyat haqida ham yuzaki tasavvurga ega bo'ladi. Yuqori kurslarda talabalar kasbiy faoliyat elementlarini bevosita egallashga o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarida, kasbiy fanlar va maxsus fanlarni o'rganishda, pedagogik amaliyotda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda jalb etiladi. Zamonaviy o'quv-moddiy bazani yaratish talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Amaliy masala aniq vaziyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanishni e'tiborga olib, kasbiy faoliyatni o'zlashtirishga imkon beradi, shuning uchun ham talabalar tomonidan amaliy masalalar va topshiriqlar tizimini bajarish kasbiy faoliyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalarni qo'llashga tayyorlikni shakllantirishning didaktik vositalaridan biri sifatida qarash mumkin.

Biz o'z tadqiqotimizda amaliy masalalarni tasniflashga I.Y. Lerner, V.A. Slastenin va boshqalarning ishlarida keltirilgan maqsadlar taksonomiyasiga asoslanuvchi yondashuvdan foydalandik. Qo'yilgan maqsad iyerarxiyasiga erishish uchun har bir elementning o'rni va tarkibi qat'iy aniqlangan va zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanish e'tiborga olingan holda kasbiy faoliyat tuzilmasini aks ettiradigan subordinar masalalar tizimi zarur.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda bunday tizimni inson tafakkuri rivojining uchta darajasiga mos keluvchi quyidagi uchta tasnifdan biri asosida qurish mumkinligi asoslangan:

1) **quyi daraja:** bilimlar tizimi - masalalar tizimi (I.Y. Lerner, N.M. Yakosheyeva va boshqalar;

2) **yuqori daraja:** bilish faoliyati metodlari masalalari tizimi (I.Y. Lerner va boshqalar);

3) **eng yuqori daraja:** shaxsning intellektual-ijodiy masalalari tizimi (V.A. Andreyev).

Bu tasniflarning har biri alohida masalalarni hal etadi, ammo ularning hech biri alohida holda bilim, ko'nikma va shaxs sifatlarini butunlay qamrab ololmaydi. Tasniflashning ikkinchi darajasining asosi bo'lib, birinchi darajasini, ya'ni bilimlar tizimini o'z ichiga qamrab olishi hisoblanadi. Chunki mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan bilim va ko'nikma o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq. Boshqacha aytganda, bilim ko'nikmadan tashqarida mavjud bo'lmaydi, ko'nikma esa bilimlarga tayanmasdan o'zlashtirilmaydi, amalda qo'llanilmaydi. Demak, ikkinchi va uchinchi darajalarni birlashtirib, zamonaviy o'quv didaktik vositalarga oid bilimlarning o'zaro aloqadorligini, ularni kasbiy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini va ushbu faoliyatga mos shaxsiy sifatlarni ta'minlovchi masalalar tasnifini tuzish mumkin.

Axborot ko'lami kengayayotgan hozirgi davrda bilimlarni tizimlashtirish va undan tezkor holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda kasbiy faoliyatda foydalanishga mo'ljallangan bilimlarni "siqilgan" va ixcham tarzda qulay ko'rinishda tavsiflashning quyidagi modellari alohida ahamiyatga ega: mantiqiy model, freymli model va semantik tarmoq modeli.

Texnika yo'nalishini bitirgan muhandisning ish amaliyotini o'rganish asosida, biz oliygohda o'qish jarayonida zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan foydalanib egallangan bilim va ko'nikmalar tizimidan kasbiy masalalarni yechishda foydalanishmaydi, degan xulosaga keldik. AKT sohasida yetarli tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagogning faoliyati esa reproduktiv xarakterga ega. Buning sababini tahlil etish esa, ta'lim muassasasi o'qituvchisining ta'limiy faoliyatda zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalanish bo'yicha to'plangan tajribalari tez-tez talab etilmaydi, chunki ko'pgina bitiruvchilarda uni doimiy o'rganish va amaliyotda qo'llash motivatsiyasi shakllanmagan, degan xulosaga olib keldi.

Biz tashkil etgan o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv faoliyatida zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan foydalanishga oid bilim va ko'nikmalarni egallashda pozitiv ichki motivatsiya uyg'otishga e'tibor

qaratiladi. Bundan tashqari, bilishga motivatsiyani ijodkorlikning o'ziga xos motivatsiyasi sifatida qaraladi. Shuning uchun ham, uni shakllantirish bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchisining o'quv-bilish, ilmiy-tadqiqotchilik kasbiy-pedagogik faoliyatida ijodiy faolligini rivojlantirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shunday qilib, muhim va asosiy masalalardan biri – bu talabalar faoliyatining barcha yo'nalishlariga ta'sir etadigan bilish motivlarini aniqlash va rivojlantirish hisoblanadi.

Talabalarning bilish motivlarini pedagogik tashxislash uchun biz zamonaviy o'quv didaktik vositalardan foydalandik. Bunday yondashuv talabada ko'p uchraydigan bilish faoliyati haqidagi to'la axborotni taqdim etadi, bilish ehtiyojiga u yoki bu ta'sir usullarini va motivlarni asosli tanlashga keng imkoniyat beradi.

Kasbni yuqori darajada egallashga motivatsiya esa o'z ichiga zamonaviy o'quv didaktik vositalar sohasidagi zamonaviy yutuqlardan foydalanishga tayyorgarlik, mustahkam kasbiy bilim va amaliy ko'nikmani egallash, bilishga qiziqish, zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan foydalanib kasbiy faoliyatga tayyorlanishga intilish kabi ichki omillarni qamrab oladi.

Bizning tadqiqotimiz natijalari talaba qanchalik qobiliyatli va iqtidorli bo'lmasin, u xohish va motivlashgan o'qitishsiz muvaffaqiyatga erisha olmasligini ko'rsatdi. Shunday qilib, talabalarning faolligi, shuningdek, o'quv materiallarini o'zlashtirishi uning motivatsiyasiga ko'p jihatdan bog'liq ekan.

Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida bilim va ko'nikmalar tizimini motivlashgan holda egallashning quyidagi qoidalariga tayandik:

- kasbni egallashga, shu jumladan, zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan foydalanishga tayyorgarlikni yuqori darajada o'zlashtirish;
- fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan foydalanish, o'quv faoliyati jarayonida zamonaviy o'quv-didaktik vositalarni qo'llashga oid bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash;
- talabalarni kasbiy faoliyatida zamonaviy o'quv-didaktik vositalarni qo'llashga yuqori darajada tayyorlash, ularning shaxsiy raqobotbardoshligini oshirish.

Motiv texnika yo'nalishi talabalarining faoliyatga undovchi omil hisoblanadi. Qiziqish bu o'quv faniga emotsional munosabati bilan uzviy bog'liq bo'lib, talabaning bilim sohasiga yo'naltirganligini bildiradi. Kasbiy motiv va qiziqishlar talabalarda o'zining kasbiy faoliyatiga mos bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydi.Tadqiqot jarayonida biz motivatsiyani tashxislash kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosi hisoblanadi, degan xulosaga keldik. Tashxislash o'z ichiga quyidagi o'lchovlarni qamrab oladi: o'qish maqsadini shakllantirishdagi o'zgarish, talabalarda turli xil o'quv faoliyatiga munosabatlarning shakllanganligi, o'qishning mazmun-ma'nosini kuchaytirish, kasbiy qiziqish, motiv va ehtiyojni shakllantirish. Bizning nuqtayi nazarimizcha, talabaning motivatsiya darajasini tashxislashga yo'naltirilgan turli kompyuterli testlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biz kasbiy fanlarni umumiylikdan xususiylikka tamoyili asosida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu maqsadda ichki aloqalarni o'rganish va aniqlash uchun zarur va yetarli axborotni ajratish maqsadida o'quv materiali mazmunini tuzilmalashtirishda V.P. Bespalko va D.V. Chernishevskiy tomonidan taklif etilgan usuldan foydalanish mumkin.

Kasbiy tayyorlashning metodik tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: o'qitish maqsadi va natija, tayyorgarlik mazmuni, o'qitish jarayoni, ta'lim jarayoni komponentlari, pedagogik shartlar.

V.P. Bespalko o'quv materialini o'zaro mantiqiy bog'langan grafalar ko'rinishidagi sxemalar yordamida tuzilmalashtirishni taklif etgan. N.S. Purisheva tomonidan taklif etilgan o'quv predmetining didaktik modelini va L.Y. Bordonskaya tomonidan taklif etilgan o'quv materiali mazmunini aniqlashga ilmiy yondashuvlarni tahlil etish asosida talabalarni kasbiy tayyorlashning metodik tizimi ishlab chiqildi (1-rasm).

ISSN 2181-3841



1-rasm. Kasbiy tayyorlashning metodik tizimi.

O'quv kursi mazmunini tuzilmalashtirishda quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlar e'tiborga olinadi: katta hajmdagi o'quv materiali qiyin eslanadi; aniq tizimda ixcham joylashgan material oson qabul qilinadi; o'rganilayotgan materialda o'rganish obyektining har tomonlama xarakteristikasi uchun zarur bo'lgan mazmuniy asoslar (ilmiy dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariya, nazariy bilimlarning amaliy tatbiqi)ni ajratish uni samarali eslashga imkon beradi.

An'anaviy o'quv adabiyotlarida materialni muayyan mantiqiy ketma-ketlikda o'rganish ko'zda tutiladi. Ularda mazmunni ochib berishning chiziqli tuzilmasi o'z aksini topgan. Ammo o'quv materialini bayon etishning chiziqli tuzilmasi boshqa modulli tuzilmaga nisbatan ko'p vaqtni talab etadi.

O'quv materiali mazmunini tavsiflovchi tuzilmaviy sxemalar bilim elementlarini, ya'ni tushuncha, ta'rif, qonunlar, tadqiq qilish va hisoblash metodlari, ularning o'zaro aloqasi va boshqalarni ko'rgazmali taqdim etish imkoniyatini beradi.

Talabalarning o'qitish jarayonidagi faoliyati, eng avvalo, ularda quyidagi kasbiy



ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi: umumlashgan namunaviy masalalarni yechish ko'nikmasi, mantiqiy usullarni qo'llash ko'nikmasi, o'quv eksperimentlarini qo'yish, ijodiy loyihalarni tayyorlash, referatlar tayyorlash ko'nikmalari. Kasbiy tayyorgarlik sifati ta'lim maqsadi va kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyaga bevosita bog'liq. Kasbiy tayyorgarlikning muayyan darajasiga erishish uchun mustaqil o'quv-bilish faoliyatini kengaytirishga imkon beruvchi egiluvchan modulli texnologiyaga asoslangan o'qitish usuli katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. ped. fan. dokt. Diss. Toshkent. 2017. - 337 b;
2. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning modelli uslubi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini shakllantirish va takomillashtirish muammolari" // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.- T.: 2001, 123-127-betlar;
3. Hamidov J.A. Kasb ta'limi mutaxassislarini tayyorlashga izchil yondashuvning darsliklarda ifodalanishi. "Uzluksiz ta'lim jarayonini o'quv-metodik majmualar bilan ta'min-lash muammolari" // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - T.: 2001, 287-291-betlar;
4. Hamidov J.A., Usanov M.M., Adilov B.B. Oliy ta'limda bulutli texnologiyalar // Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatiga innovatsion yondashuvlar xalqaro onlayn ilmiy–amaliy konferensiyalar to'plami. Namangan 05. 10. 2020. 110-115-betlar;
5. Hamidov J.A., Usanov.M.M. Oliy ta'lim muassasalarida bulutli texnologiyalarga asoslangan axborot ta'lim muhitining imkoniyatlari // Professional ta'lim tizimida islohotlar, malaka oshirish ta'lim turida innovatsion g'oyalar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, Toshkent, Noyabr-2020 y. 335-338-betlar;
6. Komilova N.A., Talabalarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalar tahlili va uni takomillashtirishning nazariy asoslari // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari jurnali, 2022, 100-104-betlar;
7. Komilova N.A., Methodik zur Vorbereitung auf berufliche Tätigkeiten auf der Grundlage moderner didaktischer Lehrmittel // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities jurnali 980-984 betlar.

XALQARO MEHNAT BOZORI TALABLARIGA RAQOBATBARDOSH KADRLARNI TAYYORLASHDA YOSHLARNI KASBGA VA XORIJIY TILLARGA O'QITISH

Masharipov Farrux O'tkirovich,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Professional ta'lim integratsiyasi boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarni xalqaro mehnat bozori talablariga raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlashda kasbga va xorijiy tillarga o'qitish tizimi tasniflangan. Shuningdek, zamonaviy kasbga o'qitilgan yoshlarning mahalliy va tashqi mehnat bozorida ishga joylashishi bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga, yoshlarni xalqaro mehnat bozori talablariga raqobatbardosh etib tayyorlashda ularni kasb va xorijiy tillarga o'qitish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi mehnat bozori, kasbga o'qitish, xorijiy tillarni o'rganish, professional ta'lim muassasalari, malakali kadrlar, "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlari, ta'lim muassasalari bitiruvchilari, xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi sertifikatlar, tashqi mehnat migratsiyasi, xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalari.

Аннотация: В данной статье классифицируется система обучения молодежи профессиям и иностранным языкам при подготовке конкурентоспособных кадров в соответствии с требованиями международного рынка труда. Также были проанализированы проблемы, связанные с трудоустройством молодых людей, обученных современным профессиям, на внутреннем и внешнем рынках труда. В то же время были высказаны предложения и рекомендации по обучению молодежи профессиям и иностранным языкам при подготовке их в соответствии с требованиями международного рынка труда.

Ключевые слова: Зарубежный рынок труда, профессиональное обучение, изучение иностранных языков, профессиональные учебные заведения, квалифицированный персонал, моноцентры "Ишга марҳамат" и центры профессиональной подготовки, выпускники учебных заведений, сертификаты определяющие уровень владения иностранными языками, внешняя трудовая миграция, иностранные работодатели и рекрутинговые компании.

Annotation: This article classifies the system of teaching young people professions and foreign languages in the preparation of competitive personnel in accordance with the requirements of the international labor market. The problems related to the employment of young people trained in modern professions in the domestic and foreign labor market were also analyzed. At the same time, suggestions and recommendations were made on teaching young people professions and foreign languages while preparing them in accordance with the requirements of the international labor market.

Key words: Foreign labor market, vocational training, learning foreign languages, vocational educational institutions, qualified personnel, "Ishga maramat" monocenters and vocational training centers, graduates of educational institutions, certificates determining the level of proficiency in foreign languages, external labor migration, foreign employers and recruiting companies.

Kirish.

Respublikamizda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish va kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda xorijiy davlatlarda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmon qabul qilindi.

Mazkur Farmonda fuqarolarni xorijga ishga yuborish "Xorijga ish – mahalladan" tamoyili asosida yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bunda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi mahallada xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolarni aniqlab, "Onlayn mahalla" platformasiga kiritadi. Nomzodlar xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi.

Shuningdek, kasbiy malakasi yo'q va tilni bilmaydigan fuqarolarni kasbga o'qitish va professional ta'lim muassasalarida maqsadli tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Buning uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida fuqarolarni xorijiy tillarga o'rgatish va ishlashga maqsadli tayyorlash markazi tashkil etildi.

Xorijda ishlash istagida bo'lganlar muayyan xarajatlarga ham duch keladi. Shu bois endi migrantlarning ishchi viza, yo'l chiptasi, xorijiy til va kasb bo'yicha malakani baholatish xarajatlari qisman qoplanadi. Xorijiy til bo'yicha xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikat olgan fuqaroga til o'rganish uchun sarflagan xarajatining 50 foizi qoplab berilishi belgilandi.

O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani bois yoshlarda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda.

Shu sababli, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2023-yilning 20-yanvarda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo" deb ta'kidlagan edi.

Shu munosabat bilan, har bir viloyatdan bittadan shahar va ikkitadan tuman tanlab olindi hamda 2 mingdan ortiq umumta'lim maktablarida o'quvchilarni 64 xil ishchi kasblarga o'rgatish hamda xorijiy tillarni sifatli o'rgatish maqsadida Prezident maktablarining til o'rgatish tajribasi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, yoshlarning kasb va xorijiy tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Hukumatning 2024-yil 17-apreldagi "Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 213-sonli qarori bilan Respublikamizdagi 27 ta professional ta'lim muassasalarida tibbiyot, tibbiy ijtimoiy yordam va qurilish, transport, mehmonxona xo'jaligi, oshpazlik yo'nalishlari bo'yicha Tashqi mehnat migratsiyasining xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalarining ehtiyojlari asosida kasb (mutaxassislik) va xorijiy tillarga maqsadli tayyorlash tizimi joriy etildi.

Qaror bilan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligida yoshlarni chet tillariga o'qitish va xorijiy davlatlarda ishlashga maqsadli tayyorlash markazi tashkil etildi. Markaz xorijiy ish beruvchilarning ehtiyojlarini aniqlash hamda shakllantirish shuningdek ehtiyoj asosida 27 professional ta'lim muassasalarida yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitishni tashkil etishga mas'ul qilib belgilandi.

Bu tizimning yo'lga qo'yilishi kelajakda yoshlarimizning rivojlangan davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirishlari o'zini va oilasini moddiy jihatdan ta'minlashi, bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya olib kirishi hamda sohasi bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tish va xorijiy davlat tajribasi asosida malakali kadrlarga aylanish imkoniyatini yaratadi.

ISSN 2181-3841

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Bugungi tezkor davr yoshlarni qisqa muddatda ichki va tashqi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga tayyorlash hamda xorijiy tillar puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, ta'lim sohasidagi raqobatbardoshlikni oshirish masalasi bugungi kunda ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning bilim va ko'nikmalari shakllanishida hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omil ekanligi bilan izohlanadi. Shu sababli, ko'plab olimlar ta'lim jarayonlarini, uning iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligini doimiy tadqiq qilib keladilar.

*O'zbekistonlik iqtisodchi olim **Q.Abdurahmonov** fikricha, mamlakat iqtisodiyoti darajasini oshirishga intilish bo'lsa, inson resurslarining sifati muttasil oshirib borilishi kerak. Bu esa avvalo, ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim standartlarini, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning malakasiga talablarni tayyorlashning shakllantirish va takomillashtirish imkonini yaratadi.*

*O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar **A.A.Abdug'aniyev, N.Xo'jayev, Sh.R.Xolmo'minov, X.P.Abulqosimov, D.Q.Ziyavuddinova**lar mehnat bozorining demografik jarayonlar bilan bog'liqligi, ishsizlik muammosi, mehnat bozoridagi sifat o'zgarishlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.*

***D.Kudbiyev** va **Sh.Kudbiyev**larning maqolasida yoshlarning mehnat bozori to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish, o'z karyerasini muvaffaqiyatli tashkil etish yo'llari haqidagi tasavvurlarini oshirish ularning mehnat bozorida raqobatga yetarlicha tayyor bo'lishiga olib keladi, ko'pchilik yoshlarda o'zi egallayotgan kasb-hunar imkoniyatlari to'g'risida ko'proq xayoliy taassurotlar ustun degan xulosa qilingan.*

*Xorijlik iqtisodchi olimlar **A.A.Nikiforova, N.I.Zadisenskaya, A.A.Gladchenko, A.V.Chirkova**larning ilmiy ishlarida mehnat bozori, bandlik va ishsizlik, potensial ishchi kuchi hamda uning mehnat bozori muhitiga o'tkazayotgan ta'siri masalalari tadqiq etilgan.*

*Rossiyalik olim **Y.Tryukanova**ning fikricha, mehnat migratsiyasi modellari savdo oqimlari dinamikasi bilan o'xshab ketadi: mamlakatning rivojlanish darajasi ortishi bilan ayirboshlanadigan tovarlarning tarqalib ketishi kuzatiladi. Bu bilan birga migrantlarning sifat ko'rsatkichlari, salohiyati, malaka, ko'nikma tarkibi ham kengayadi.*

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlardan ko'rish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mehnat bozorining amal qilish mexanizmi, yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitish orqali mehnat bozorida malakali kadrlar tayyorlash hamda ularning bandligini ta'minlashda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish taqozo etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlarining xalqaro mehnat bozori talablari asosida yoshlarni kasbga, xorijiy tillarga o'qitish orqali mehnat bozorida malakali kadrlarini tayyorlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari hamda fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda butun jahon iqtisodiyoti turli xil kutilmagan o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan bir paytda, ishchi kuchiga bo'lgan talabning doimiy miqdor va tarkib jihatdan o'zgarib turishi barcha mamlakatlar uchun bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borilishning ahamiyatini yanada orttiradi. Chunki, iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, ishchi kuchi ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarni kasbga tayyorlash va xorijiy tillarni

o'rganishni ommalashtirish, bu boradagi faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga va xorijiy tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish borasida keng imkoniyatlar yaratildi.

Yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitish maqsadida bugungi kunda Respublikamizdagi 670 ta professional ta'lim muassasalarida 358 mingdan ortiq yoshlar 310 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim olmoqda.



2021-2024-yillarda professional ta'lim muassasalarida kasb va mutaxassislik bo'yicha ta'lim olgan o'quvchilar bo'yicha ma'lumot.

*Ushbu ma'lumot Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **prof-emis.edu.uz** rasmiy saytidan olingan.*



2021-2024-yillarda "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasbga o'qitish markazlarida kasbga o'qitilgan fuqarolar bo'yicha ma'lumot. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining **mehnat.uz** rasmiy saytidan olingan.

ISSN 2181-3841

Bundan tashqari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufidagi "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarida 2024-yilning 1-sentabr holatiga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan 75 ta ishchi kasblar bo'yicha 151 mingdan ortiq yoshlar va xotin-qizlar kasbga o'qitilgan.

Shuningdek, xalqaro mehnat bozorini o'rganish va ish beruvchilarning ehtiyojlarini shakllantirish maqsadida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 2023-yilda 24 ta xorijiy davlatlarning 398 ta yirik ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan muzokaralar olib borilgan bo'lib, xorijiy ish beruvchilar va rekruting agentliklari bilan hamkorlikda O'zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo'yicha 118 ta shartnomalar imzolangan.

Buning natijasida 16 ta xorijiy, shundan, 10 ta iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda 117 mingga yaqin bo'sh ish o'rinlari aniqlandi va 66,4 ming ish o'rniga dastlabki talabnomalar shakllantirilgan.

2023-yilda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan 38,4 ming nafar fuqarolar xorijiy mamlakatlarga ishlash uchun yuborilgan bo'lsa, 2024-yilning birinchi choragida 23 535 nafar fuqarolar Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, BAA, Germaniya, Latviya, Belarus, Litva, Yaponiya, Polsha va boshqa davlatlarda tashkiliy va manzilli tartibda ishga joylashishiga ko'maklashildi.

2023-yil davomida xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish istagida bo'lgan 58,2 ming nafardan ortiq fuqarolar kasbga va xorijiy tillarga o'qishga jalb qilingan.

Nomzodlarni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish, professional ta'lim muassasalari, "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasb-hunarga o'qitish markazlarida tizimli tarzda tashkil etildi.

Bundan tashqari, xorijiy tillar bo'yicha xalqaro til sertifikatini olish uchun imtihondan yuqori ball to'plagan yoshlarga davlat tomonidan xarajatlari to'liq qoplab berilishi tizimi joriy etildi. Natijada, o'tgan 3 yil ichida xorijiy tillarni o'rgangan yoshlarga 40 milliard so'm kompensatsiya puli qoplab berildi.

Bugungi kunda yoshlar o'zlari tanlagan yo'nalishning yetuk malakali mutaxassisi bo'lishi hamda xalqaro mehnat bozoriga chiqishi uchun xorijiy tillarni puxta o'zlashtirishi lozim.

Til o'rganish va o'qitish borasida dunyoning yetuk olimlari tajribasida hamda o'qitish metodikalari, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish sohasida "bog'cha-maktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxona" tamoyilidagi uzluksiz ta'lim zanjirini joriy etish, aholining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish singari ko'plab salmoqli ishlar bajarildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda ta'lim muassasalari oldiga tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini — ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors tillarini o'rgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qo'yilgan.

Respublikamizdagi 207 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarining xorijiy tillarga ixtisoslashtirilishi munosabati bilan mazkur maktablarda xorijiy tillarni o'qitishni tubdan isloh etish va takomillashtirishga kirishildi, shu bilan birga respublikamiz oliy ta'lim muassasalari qoshida xorijiy tillarni yanada chuqurroq o'rganish uchun o'quv markazlari tashkil etildi. Ma'lumot o'rnida aytish joiz, 2023-yilda 12 ming 400 ga yaqin yoshlarga 21,7 milliard so'mga yaqin mablag' to'lab berildi. Bu jarayon yoshlar o'rtasida ommalashmoqda.

Xorijiy tillarni o'rganish yoshlarga yangi madaniyat, bilim va yangi do'stlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashni o'stirishda yordam beruvchi eng yaxshi vosita hisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda dunyoda til o'rganuvchilarning asosiy qismini 17-35 yoshdagi fuqarolar tashkil qiladi.

Yurtimizda xorijiy tillarni chuqur o'rgatishni ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish hamda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil

17- apreldagi 213-sonli qarori bilan 27 professional ta'lim muassasalarida yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitish tizimi joriy etildi. Bunda professional ta'lim muassasalariga jalb etilgan ta'lim oluvchilar chet tilini mustaqil ravishda o'rganib, xalqaro yoki unga tenglashtirilgan sertifikatni taqdim etgan taqdirda, ta'lim oluvchi tomonidan chet tilini o'qish uchun sarflangan xarajatlarning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan oshmagan qismi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, xorijiy davlatga to'g'ridan to'g'ri ishga jalb qilinadigan fuqarolar uchun chet tili bo'yicha kamida B2 darajadagi, "Ausbildung" (dual ta'lim shakli) asosida xorijga ketadigan fuqarolar uchun nemis tili bo'yicha kamida B1 darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatni olish talab etilishi belgilab berildi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2024 yil 27-iyunda "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan Yoshlar ishlari agentligiga quyidagi qo'shimcha funksiyalar yuklandi:

- yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish jarayonlarini takomillashtirish;
- xorijiy tillarni o'qitish faoliyati bilan shug'ullanuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlari (xususiy o'quv markazlari), rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- xususiy o'quv markazlari reytingini shakllantirish hamda reytingda yuqori o'rinni egallaganlarni rag'batlantirish;
- yoshlar orasida kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganishni targ'ib qilish, ushbu yo'nalishdagi ijtimoiy loyihalar, ko'rik-tanlov va olimpiadalarni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlariga qaraganda, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 36 million 963 ming kishidan oshgan bo'lib, 14-30 yoshgacha bo'lganlar soni 9 million 600 ming nafarni tashkil etgan. Ya'ni, mamlakatimiz boshqa sohalar qatori nufus jihatidan ham, mehnatga layoqatli yoshlarning ko'pligi nuqtayi nazaridan ham katta davlatga aylanmoqda. Mamlakatimiz aholisi prognozlarga ko'ra 2040-yilga borib 50 millionga yetishi hamda uning yarmidan ko'pini yoshlar tashkil qilishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha "Ustoz" maxsus platformasi ishga tushirildi. Maxsus platforma doirasida 250 ming nafar yoshlar 30 ta zamonaviy kasbga o'rgatildi. Shu bilan birga, "Ibrat farzandlari" loyihasi orqali 1 million yoshlar xorijiy tillarga bepul o'qitilmoqda.

Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023/2024-o'quv yilida umumta'lim maktablarini 400 ming nafar, professional ta'lim muassasalarini 172 ming nafar o'quvchilar tamomlab mehnat bozoriga kirib kelishi O'zbekistonning tashqi mehnat bozoridagi faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi.



Umumta'lim maktablari va professional ta'lim muassasalari bitiruvchilari to'g'risida ma'lumot.

ISSN 2181-3841

Shuningdek, xalqaro mehnat bozori talablariga asosan kadrlar tayyorlash hamda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tashkil etish bo'yicha quyidagi muammolar mavjud. Jumladan:

Birinchidan. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalarning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari asosida o'qitish faqat "Ishga marhamat" monomarkazlari va kasbga o'qitish markazlarida tashkil etilmoqda. Bu esa faqatgina ishsiz fuqarolarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitish imkoniyatini beradi xolos. Lekin Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan professional ta'lim muassasalari o'rtasida integratsiya yo'lga qo'yilmagan. Buning natijasida professional ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan o'rta bo'g'in kadrlar xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalarining talabiga to'g'ri kelmaydi.

Ikkinchidan. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan shakllantirilgan xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalarini bo'sh ish o'rinlari bilan faqat Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining hududiy bo'limlari orqali hamda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining "xorijdaish.uz" elektron platformasi orqali tanishish imkoniyati yaratilgan. Bu esa chekka hududlardagi fuqarolar hamda professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining mazkur elektron platforma orqali ko'rish imkoniyati mavjud emas.

Uchinchidan. Xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketmoqchi bo'lgan fuqaroning oldida doimo 2 ta tanlov bo'ladi. Birinchisi-tashkiliy (legal), ikkinchisi-tashkillashtirilmagan (nolegal) migratsiya jarayonlari turadi. 2022-yilda 3 mln.ga yaqin fuqarolar mehnat migratsiyasi jarayonida ishtirok etgan bo'lsa, shundan, 171,2 ming nafari tashkiliy mehnat migratsiyasi orqali chiqqan xolos. Shu sababli, fuqarolar orasida tashkillashtirilmagan mehnat migratsiyasi jarayonlarining salbiy oqibatlari bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari tizimli tashkil etilmaganligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan. Tashqi mehnat migratsiyasi agentiligi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha xodimlarning doimiy ravishda kasbiy salohiyatini rivojlantirish va ularning malakasini oshirish tizimini joriy etish lozim.

Beshinchidan. Oliy ta'lim muassasalarida mehnat migratsiyasi yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmaydi bu esa sohada olib borilayotgan islohotlar hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni joylarda fuqarolarga to'g'ri va aniq tatbiq qilishda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa va takliflar.

Tashqi mehnat bozori ehtiyoji asosida yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitishni takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalarining mehnat migratsiyasi sohasidagi ehtiyojlarini aniqlash hamda xorijda ishlash istagida bo'lgan yoshlarni ish beruvchilar buyurtmasi asosida professional ta'lim muassasalarida o'qitish va ish beruvchilarning vakillari tomonidan tanlab olish;
- chekka hududlardagi fuqarolarga hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan xorijiy ish beruvchilar va rekruting kompaniyalarining bo'sh ish o'rinlari bilan tanishib borish maqsadida Agentlikning "xorijdaish.uz" elektron platformasining mobil ilova shaklini yaratish;
- fuqarolar va ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasida tashkillashtirilmagan mehnat migratsiyasi jarayonlarining salbiy oqibatlari bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil qilish, videoroliklar va ommaviy axborot vositalarida doimiy ravishda targ'ibot ishlarini olib borish;
- Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va hududiy bo'limlari rahbar va xodimlarni doimiy ravishda kasbiy salohiyatini uzluksiz rivojlantirish va ularning malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim muassasalarida migratsiya yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish hamda migratsiya masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, startap loyihalari, o'quv adabiyotlari va ilmiy maqolalarni ko'paytirish lozim.

Yuqoridagi tahlillarga asosan ta'kidlash kerakki, yoshlarni kasbiy malaka va xorijiy

tillarga o'qitish ularning kelajakda ichki va tashqi mehnat bozorida o'z o'rnilarini topishda kerakli va munosib vakolatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratishga hamda yuqori ish haqiga ega bo'lgan ish o'rinlarida mehnat qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi "Yoshlarni kasbga (mutaxassislikka) va chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 213-sonli qarori.
3. Tryukanova Y. Глобализация международной миграции, рол женщин. // Миграция женщин из России, еще одна "стратегия успеха" – М.1996.-s 84-102.
4. B.Ganiyev. "O'zbekistonda xususiy sektorda ishchi kuchiga bo'lgan talabning holati va uning bandlikni ta'minlashdagi ahamiyati". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali 2022-yil may-iyun. №00059.
5. U.Baykabilov. "Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish texnologiyasi" 2022-yil may. Multidisciplinary Scientific Journal.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 27-apreldagi PQ-239-sonli qarori.
7. Qalandar Abdurahmonov. "Mehnat iqtisodiyoti" nazariya va amaliyot, darslik. Iqtisodiyot nashriyoti. Toshkent, 2019-yil.

Internet manbalari:

1. https://www.lex.uz/uz — O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. https://mehnat.uz — O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy sayti.
3. https://xorijdaish.uz — Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining elektron platformasi.
4. https://stat.uz — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti.
5. https://edu.uz — Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti.

ISSN 2181-3841

MOSLASHUVCHAN PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI - MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARI UCHUN MALAKALI O'RTA BO'G'IN KADRLARINI TAYYORLASHNING KALITI

Ergashev Nodir Erniyazovich,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola professional ta'lim tizimida davlat boshqaruvining hal qiluvchi roli, uning siyosatni ishlab chiqish, institutsional boshqaruv va ta'lim natijalarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga ta'sirini o'rganib chiqadi. Professional ta'lim dasturlarining sifati va dolzarbligini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy boshqaruv shakllarini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik va manfaatdor tomonlarni jalb qilish ko'rsatib o'tilgan. Maqolada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirishning yetishmasligi, professional ta'lim muassasalarining tabaqalanishi, moliyalashtirishning yetarli emasligi va samarali boshqaruvni tashkil qilish uchun strategik qarashlarning yetishmasligi kabi turli muammolar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: professional ta'lim, mehnat bozori, ishsizlik, boshqaruv, ta'limda uzviylik, dasturlar integratsiyasi, kadrlar tayyorlash, ta'lim sifati, ish beruvchilar.

Аннотация В этой статье исследуется важнейшая роль государственного управления в системах профессионального образования, подчеркивается его влияние на разработку политики, институциональное управление и приведение результатов образования в соответствие с потребностями рынка труда. В нем определены ключевые структуры управления, включая государственно-частное партнерство и вовлечение заинтересованных сторон, которые необходимы для повышения качества и актуальности программ профессионального образования. В статье освещаются различные проблемы, такие как результаты отсутствия профориентации выпускников школ, расслоение профессиональных учебных заведений, недостаточное финансирование и отсутствие стратегического видения, которые препятствуют эффективному управлению.

Ключевые слова: профессиональное образование, рынок труда, безработица, управление образованием, преемственность в образовании, интеграция программ, профессиональная подготовка, качество образования, работодатели.

Abstract. This article explores the crucial role of public administration in vocational education systems, emphasizing its impact on policy development, institutional management and the alignment of educational outcomes with the needs of the labor market. It identifies key governance structures, including public-private partnerships and stakeholder engagement, that are necessary to improve the quality and relevance of vocational education programs. The article highlights various problems such as the results of the lack of career guidance for school graduates, the stratification of vocational schools, insufficient funding and lack of strategic vision, which hinder effective management.

Key words: vocational education, labor market, unemployment, education governance, continuity in education, integration of programs, training, quality of education, employers.

Professional ta'lim insonlar ishga joylashish va kasbiy o'sishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Professional ta'lim tizimining mehnat bozori ehtiyojlariga javob berishini va yuqori sifatli ta'lim hamda raqobatbar-

dosh kadrlarni tayyorlashni ta'minlash uchun tizimda samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish muhim.

Tizimda yagona davlat siyosatini yuritish, manfaatdor tomonlarni jalb qilish, sifatni ta'minlash, moliyalashtirish, resurslar ta'minoti, monitoring, baholash kabi tarkibiy qismlar professional ta'lim tizimi boshqaruvining asosiy faktorlari hisoblanadi.

Shuningdek, mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilish orqali professional ta'limda qabul parametrlarini shakllantirish o'qitiladigan ko'nikma va malakalarning mehnat bozori talablariga muvofiqligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, mehnat bozori ehtiyojlarini tahlil qilishda ta'lim darajalari, ya'ni mehnat bozoriga zarur bo'lgan oliy ma'lumotli, professional ta'lim (o'rta bo'g'in) ma'lumotli va malaka talab qilmaydigan ish o'rinlariga bo'lgan aniq prognozlarning inobatga olinishi hamda mehnat bozoriga kirib kelayotgan kadrlarning bozor ehtiyojlariga mutanosibligi inobatga olinishi juda muhim.

2024-yil 6-avgust kuni Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri Behzod Musayevning hisobotida 2024-yilda oliy o'quv yurtlarini bitirgan 214 ming nafar bitiruvchidan 126 ming nafari (59 foizi) hali ham ishsiz ekanini aytib o'tildi.

Bundan tashqari, 2022-yildagi 105 ming nafar bitiruvchining 22 ming nafari, 2023-yildagi 176 ming nafar bitiruvchining 58 ming nafari ish bilan ta'minlanmagan.

Bundan ko'rinib turibdiki, har yili oliygoh bitiruvchilarining deyarli 30-35 foizi mehnat bozorida o'z o'rnini topmasa, ushbu ko'rsatkich yillar davomida oliy ma'lumotli ishsizlar darajasi ortishiga olib keladi.

Shuningdek, vazir o'z hisobotida keltirishicha, hozir mamlakatda 358 ming bo'sh ish o'rinlari ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 112 ming o'rin oliy ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi. Ma'lumotdan kelib chiqadigan bo'lsak, mehnat bozoridagi 246 ming bo'sh ish o'rinlari o'rta bo'g'in kadrlari uchun yoki malaka talab qilinmaydigan ish o'rinlarga to'g'ri keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda professional ta'lim tizimini aniq strategik rejalar asosida takomillashtirish, yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish va iqtisodiyot uchun malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni aniq ko'rsatkichlar asosida amalga oshirish lozim.

2024-yilda respublikadagi professional ta'lim muassasalarini 177 ming o'quvchilar bitirib mehnat bozoriga chiqqan bo'lib, bu esa bitiruvchilarning to'liq bandligi ta'minlangan taqdirda, mehnat bozoridagi mavjud bo'sh ish o'rinlarining faqatgina 70 foizini ta'minlashi mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili umumta'lim maktablarining 11-sinfini 400 mingdan ortiq o'quvchilar bitiradi va ularning 8-10 foizi professional ta'lim bilan qamrab olinadi. Maktab bitiruvchilarining professional ta'lim bilan qamrovi yildan yilga kamayishda davom etmoqda (1-jadval).

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish tahlili

Tahlil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Umumta'lim maktablari bitiruvchilari soni	**442 893**	**388 762**	**387 001**
oliy ta'lim muassasalariga kirgan	*123 558*	*136 866*	*158 727*
professional ta'limga kirgan	*38 309*	*20 455*	*17 103*

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, 11 yil maktabda o'qigan bola chet tilini mukammal bilmaydi. Sharoit va mutaxassislar yo'qligi sababli yoshlarni kasblarga qiziqtirish muhiti shakllanmagan. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda .

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, har yili umumta'lim maktablarining 11-sinf bitiruvchilarining o'rtacha 55-60 foizi mehnat bozoriga malakasiz kirib kelmoqda.

Ushbu jumlalarning isboti sifatida, Bir-

ISSN 2181-3841

lashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari 8-maqsadi "Munosib ish va iqtisodiy o'sish" ko'rsatkichlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasida 16-24 yoshdagi yoshlar o'rtasida hech qayerda o'qimaydigan va hech qayerda ishlamaydiganlar darajasining yildan-yilga oshib borayotganligini quyidagi ma'lumotlarda ko'rishimiz mumkin[4].



Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotga va mamlakatda ishsizlik darajasi oshishi kabi quyidagi bir qator salbiy ta'sirlarga olib keladi:

Birinchidan, malakasiz bitiruvchilarning yuqori darajasi ishsizlik darajasining oshishiga va ijtimoiy tartibsizliklarga olib kelishi mumkin hamda jamiyat barqarorligiga ta'sir etadi.

Ikkinchidan, malakasizlik sabab ish beruvchilar malaka talab qiladigan ish o'rinlariga kasbiy kompetensiyalari mavjud nomzodlarni topish uchun kurashishlari natijasida mavjud ish o'rinlari va mehnat resurslari o'rtasidagi nomuvofiqlikka olib keladi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish korxonalari o'z faoliyatini kengaytirishi, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalarni joriy qilishi uchun zarur malakali ishchilarni topa olmasligi va mehnat bozorida malakasiz ishchi kuchining ortib ketishi iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi.

To'rtinchidan, mehnat bozorida oliy ma'lumotli kadrlarning ehtiyojdan yuqori bo'lishi, ularning o'rta bo'g'in mutaxassislari uchun belgilangan ish o'rinlari va oylik ish haqida ishlashiga to'g'ri keladi.

Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarni mehnat bozori talablariga mos keladigan zarur ko'nikmalarga ega malakali va raqobatbardosh kadrlar qilib yetishtirishda professional ta'lim dasturlarini rivojlantirishga va kasbga o'qitishda tizimida samarali boshqaruvni yo'lga qo'yishga e'tibor qaratish juda muhimdir.

Professional ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash iqtisodiyot va aholi turmush tarzi uchun muhim rol o'ynasa-da mamlakatimizda bir necha yillardan buyon mavjud ushbu tizimda aniq milliy rivojlantirish strategiyasi yoki boshqaruvning samarali tizimi yo'lga qo'yilmadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yo'lga qo'yilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi joriy etilishida xalqaro standartlarga mosligi va uni tizimli takomillashtirib borish imkoniyatlari inobatga olinmadi.

Misol uchun, kasb-hunar kollejlarida umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari negizida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilib, barcha kasblar 3 yillik dasturlar asosida o'qitilgan.

Ushbu tizimda kasblarning murakkabligidan kelib chiqib o'qitish muddatlarini belgilash va tayyorlanayotgan kadrlarni mehnat bozori ehtiyojlariga hamda ta'lim dasturlarining xalqaro standartlarga moslashtirib borish yo'lga qo'yilmagan.

So'nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida ta'limning xalqaro tasniflagichining va milliy malaka ramkasining tegishli darajalariga mos ravishda kadrlar tayyorlaydigan yangi professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan professional ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ushbu tizimning asosiy maqsadi mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etishdan iborat etib belgilandi.

Yangi tizimda ta'limning xalqaro tasniflagichining 3-, 4- va 5-darajalarga mos ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlansada, darajalarning turli ta'lim muassasalarida amalga oshirilishi ta'lim dasturlari integratsiyasi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashda nomutanosibliklar keltirib chiqarmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, professional ta'lim tizimini isloh qi-

lish, ichki va tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh o'rta bo'g'in kadrlari tayyorlash va ta'lim dasturlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash hamda tizimda samarali boshqaruvni yo'lga qo'yish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish lozim.

Shu sabab, professional ta'lim tizimini samarali yo'lga qo'yish uchun quyidagilar inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, professional ta'lim tizimi milliy rivojlanish maqsadlari va mehnat bozori talablariga mos keladigan kadrlar tayyorlashi samarali tashkil etilishini ta'minlaydigan normativ-huquqiy bazani yaratish.

Professional ta'lim va kasbga o'qitish tizimida yagona davlat siyosatini yuritish, ushbu tizimda davlat va ish beruvchilarning vazifalari hamda majburiyatlarini aniq belgilab beruvchi Qonun qabul qilish.

Misol uchun, professional ta'lim va kasbga o'qitish tizimi samarali yo'lga qo'yilgan 60 dan ortiq davlatlarda, jumladan Shveytsariya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlarda alohida qonun qabul qilingan.

O'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashda dasturlarni takomillashtirish, kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va maqsadli kadrlar tayyorlash bo'yicha uzoq yilga mo'ljallangan professional ta'lim strategiyasini ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan, professional ta'limning ta'lim dasturlari dolzarbligini oshirish va sifatni ta'minlash uchun sanoat, ta'lim muassasalari va jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayoniga jalb qilish.

Ish beruvchilarning professional ta'lim tizimida ishtiroki o'quv natijalarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga va sanoat talablariga javob beradigan ishchi kuchini yetishtirib chiqarishga ko'maklashadi.

Shuning uchun, ish beruvchilar professional ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda muhim sheriklar bo'lib, ta'lim sifati va dolzarbligini oshiradigan ma'lumotlar, manbalar, prognozlar va imkoniyatlarni beradi. Ularning faol ishtiroki o'quvchilarni mehnat bozori talablariga samarali tayyorlaydigan dinamik va moslashuvchan professional ta'lim tizimini yaratishga yordam beradi.

Uchinchidan, kasbiy malakalarning yaxlitligi va samaradorligini ta'minlaydigan standartlar hamda akkreditatsiya jarayonlarini

ISSN 2181-3841

amalga oshirish.

Kasbiy malakalarning yaxlitligi turli sohalarda ishonchni saqlash, shaxslarning o'z rollarini samarali va axloqiy jihatdan bajarish uchun zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Ta'lim muassasalari va dasturlarini qat'iy standartlar asosida baholash va sertifikatlash uchun mustaqil akkreditatsiya hamda kompetensiyalarni baholash tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

To'rtinchidan, professional ta'limni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan infratuzilma, moddiy-texnik baza va resurslarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida yetarli moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Professional ta'limni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash uchun davlat budjetidan mablag' ajratish, davlat-xususiy sheriklikni takomillashtirish, xorijiy donorlarning mablag'larini jalb qilish, professional ta'limni rivojlantirish fondlarini tashkil qilish choralarini ko'rish.

Beshinchidan, professional ta'limda kadrlar tayyorlashni to'liq raqamlashtirish, ta'lim dasturlarining bajarilishini muntazam ravishda baholash va monitoring qilish hamda ularning natijadorligini oshirish uchun zarur o'zgartirishlar kiritish tizimlarini ishlab chiqish.

Professional ta'lim tizimida raqamlashtirish o'qitish, o'rganish, boshqarish va sanoat hamkorligini yaxshilashga keng imkoniyat yaratadi hamda tizimning moslashuvchanligi, sifati va dolzarbligini oshirib, uning tobora raqamli iqtisodiyot talablariga javob berishini ta'minlaydi.

Oltinchidan, xalqaro tajribalar asosida yoshlarni o'rta maktab davridan boshlab kasb-hunarga yo'naltirishning davlat siyosati darajasida samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

Maktab davridan boshlab yoshlarning kasbga moyilligini aniqlash va ularning qiziqishlari, imkoniyatlaridan kelib chiqib kasb-hunarga yo'naltirish yoshlarning kelgusida jamiyatda o'z o'rinlarini topishi, o'zi yoqtirgan kasbda faoliyat olib borishi hamda mehnat bozoridagi ish o'rinlari muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

Yettinchidan, professional ta'lim tizimi va kasb-hunarga o'qitish tizimida kadrlar tayyorlashda yagona yondashuvni olib borish va uni rivojlantirishning strategik rejalarini belgilashni samarali tashkil etish uchun davlat boshqaruvining yagona organ tomonidan olib borilishini belgilash.

Professional ta'limda yagona davlat siyosati yuritilishi dasturlarning muvofiqligi va sifat kafolatini ta'minlash, standartlashtirish, milliy strategiyani belgilash, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, milliy brendni yaratish, malakalar tan olinishi va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga keng xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, professional ta'limni samarali boshqarish jahon iqtisodiyotining dinamik talablariga javob beradigan malakali mutaxassislar (ishchi kuchi) ni tayyorlash uchun juda muhimdir. Professional ta'lim tizimida ta'lim sifati ta'minlanishi, samarali moliyalashtirish mexanizmlari joriy qilinishi va ish beruvchilarning kadrlar tayyorlash jarayonida faol ishtiroki yo'lga qo'yilishi hamda yoshlarning professional ta'lim bilan qamrovini oshirish mehnat bozori ehtiyojlari uchun malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://president.uz/uz/lists/news?menu_id=12
2. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
3. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2
4. https://nsdg.stat.uz/goal

BO'LAJAK ENERGETIKA MUHANDISLARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINING TASHKILIY-TUZILMAVIY MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Xafizov Erkin Alimboy o'g'li,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Biotexnologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak energetiklarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni o'rgatishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli orqali raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni va muhandislarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, raqamli iqtisodiyot, injener, model, texnologiya.

Аннотация: В данной статье говорится о роли цифровых технологий и направления инженеров на научные исследования через организационно-структурную модель обучения использованию возобновляемых источников энергии в подготовке будущих энергетиков к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: теоретические знания, дидактические средства, профессиональная деятельность, система знаний, мотивация, профессиональный интерес.

Abstract: This article talks about the role of digital technologies and directing engineers to scientific research through the organizational-structural model of teaching the use of renewable energy sources in the preparation of future energy workers for professional activities.

Key words: professional, digital, engineer, model, technology, information.

KIRISH. Zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya jarayoni bo'lajak energetiklarning innovatsion kasbiy faoliyatlarini takomillashtirish va ularga mos ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan va bular esa bo'lajak energetiklar sezish qobiliyati shakllanganligiga didaktik asos bo'lib, unga beriladigan kuchli e'tibor bo'lajak energetikning innovatsion rivojlanganligini ta'minlay oladi. Bu bevosita bo'lajak energetiklardagi ijodiy yo'nalganlik, yangilikni sezish qobiliyati va ko'nikmasi hamda innovatsion rivojlanganliklari shakllanganligini amalga oshirishi nihoyatda ahamiyatlidir. Shu sababli ham hozir zamonaviy energetiklarni tayyorlashning o'quv-metodik, tashkiliy pedagogik, axborotli-insturmental, dasturiy-metodik, dasturiy-uskunaviy, o'quv-dasturiy didaktik ta'minotlarini tayyorlash jarayonlarini axborotlashtirish saviyasi yuqoriligi namoyon bo'lmoqda. Ma'lumki, mukammal ilmiy-metodik ta'minot va zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tanlangan innovatsion faoliyat ta'lim beruvchi amaliy faoliyati samaradorligini, ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishi va o'quv yurtlari ta'lim intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Demak, bo'lajak energetikni tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan innovatsion faoliyat ularni kasbiy faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirishga ijobiy ta'sir qilar ekan. Ushbu sohada olib borgan kuzatishlarimiz tahlillari va izlanishlarimiz natijalarning ko'rsatishicha bunday takomillashtirish ishlarini amalga oshirish quyidagi yo'nalishlarda olib borilganligiga guvoh bo'ldik:

- interaktiv metodlar ishlab chiqish va ulardan keng foydalanish negizida bo'lajak energetiklarni kasbiy faoliyatga tayyorlash;
- ta'lim jarayonining raqamlashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish, xususan ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya

ISSN 2181-3841

texnologiyalaridan keng foydalangan holda bo'lajak energetiklarni kasbiy faoliyatga tayyorlash;

- "Maqsadlar iyerarxiyasi" texnologiyasi asosidagi interaktiv texnologiyalardan keng foydalanishga asoslanib bo'lajak energetiklarni tayyorlashni takomillashtirish;

- pedagogik kvalimetriyaga asoslangan innovatsion texnologiyalar negizida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish [1-2].

Tizimlarni tashkiliy-tuzilmaviy jihatdan tadqiq etish esa jarayon va hodisalar kechishini modellash tadqiqot usuli yordamida hal etiladi. Bunday muammolar ta'limda biror o'quv jarayonini yoki mavzuni o'zida aks ettiruvchi tizim sifatida va bo'lajak energetik kasbiy faoliyatiga tayyorlashni modellash metodlari yordamida hal etiladi va ular yordamida qaralayotgan jarayonni o'zlashtirishning didaktik asosi yaratiladi. Modellash metodining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, uning yordamida ta'lim oluvchilar faqatgina yangilikni bilibgina qolmasdan, balki bilimlarni rivojlantirish imkoniga ham ega bo'ladi va ayniqsa, bilimlarni o'qitish va tarqatishda ham ishonchli didaktik asosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

P.Y.Galperin tomonidan har qanday inson faoliyatining muvaffaqiyati, uni bajarishda nimaga va qanday mo'ljal olishga bog'liqligiga asoslangan va tajribaviy isbotlangan. Mo'ljalning tarkibi va sifati faoliyatni bajarish natijasida olingan mahsulot sifatiga sezilarli ta'sir etadi.

Faoliyatning yo'naltiruvchi qismi uni muvaffaqiyatli bajarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. P.Y.Galperin nazariyasining ajralmas sharti o'quv fani va u bilan bog'liq harakatlar ketma- ketligi haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan faoliyatning yo'naltiruvchi asosi sxemalarida uning mazmunining aks etishi hisoblanadi [3-4].

NATIJALAR. Raqamli texnologiyalar tashkiliy-tuzilmaviy modeli uning maqsadi va vazifalari bilan aniqlanadi. Raqamli texnologiyalar bilan ishlashning maqsadi bo'lajak energetiklarni elektr energiya bilan qanday sharoitlarda ishlashni o'rganganligi, qanday o'quv-uslubiy majmualardan foydalanganligi, ta'lim muddati, mashg'ulotlarining muntazamligidan qat'i nazar, har tomonlama va sifatli o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat.

Ana shularni e'tiborga olgan holda raqamli texnologiyalar tashkiliy-tuzilmaviy modeli qisqa vaqt ichida eng yaxshi natijaga erishishga imkon beradigan tayyorgarlikni ta'minlash vositasi bo'lib hisoblanadi.

Raqamlashtirilgan texnologiyaning tashkiliy-tuzilmaviy modeli quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: axborot bloki; topshiriqlarni bajarish bloki; maslahat moduli; boshqaruv bloki.

Axborot blokini shartli ravishda quyidagi ikki qismga ajratish mumkin: birinchi qismda ma'lumot va ko'rsatmalar moduli; ikkinchi qismda topshiriqlar va maslahatlar moduli. Ikkinchi qism bu modul tarkibiga ro'yxatdan o'tgan va o'tmagan foydalanuvchilarni dastur bilan ishlash statistikasi ham kiradi.

Axborot blokining birinchi moduli quyidagilarni o'z ichiga oladi: sinov uchun taqdim etilgan topshiriqlar haqidagi umumiy ma'lumotlar; raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar (dasturning xususiyatlari, javobga izoh ko'rish va qayd etish imkoniyati, statistikani saqlash, agar raqamli texnologiyalar an'anaviy ta'limga integratsiya qilingan bo'lsa mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi bilan aloqa);

topshiriqlar majmuasi tarkibiga kiruvchi har bir topshiriqqa tayyorlanish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha qoida va maslahatlar.

Axborot blokining ikkinchi moduliga quyidagilar kiradi: topshiriqlar matni; maslahat moduli uchun ma'lumot matnlari, qo'shimcha topshiriqlar matnlari.

Topshiriqlarni bajarish bloki amaliy va laboratoriya topshiriqlar to'plamini o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalar foydalanuvchilarning shaxsiy kabinetlarini yaratish imkoniyatlarini va ular o'rtasida aloqalarni o'rnatishni nazarda tutadi.

Raqamli texnologiyalardan o'qituvchining

ta'lim oluvchi guruhi bilan o'zaro ta'sirlashuvi jarayonini to'ldiruvchi ta'lim vositasi sifatida foydalanish o'qituvchi ta'lim oluvchilarning virtual guruhni yaratish imkoniyatini beradi. Ishning bunday tashkil etilishi ushbu guruh ichida o'zaro harakatni amalga oshirish imkonini taqdim etadi.

Maslahat moduli. Ushbu modul tizimning eng murakkab intellektual qismidir. Uning vazifasi ta'lim oluvchiga raqamli texnologiyalar taklif etadigan topshiriqlarni bajarish muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan individual trayektoriya bo'yicha boruvchi mashqni taminlashdan iborat.



1-rasm. Raqamli texnologiyaning kontenti tuzilmasi.

Topshiriqlarni bajarish rejimi birinchi navbatda qisqa ma'lumotnomali axborot, ikkinchidan, ma'lum tipdagi topshiriqlarni to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan operatsiyalar ketma-ketligidan tashkil topgan ta'lim oluvchilarning harakatlari algoritmlaridir.

Ta'lim oluvchilarning algoritm bo'yicha ishlashi qadamma-qadam nazorat qilish bilan birga olib boriladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganish uchun mo'ljallangan raqamli texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: topshiriqlarni bajarishni ta'lim oluvchining ehtiyojlariga moslashtirish va bir qator qo'shimcha topshiriqlar, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan qoidalarga havolalar berish imkoniga ega bo'lgan har bir ta'lim oluvchining yo'l qo'ygan xatolarini qayd etish tizimi; topshiriqlar bajarilishi to'g'riligini avtomatik tekshirish tizimi; topshiriqni bajarishga sarflangan vaqtni qayd etuvchi taymer; aniq topshiriqlarning muvaffaqiyatli bajarilishini umumlashtiradigan va yetarlicha o'zlashtirilmagan mavzular ro'yxatini shakllantiruvchi, asosini keyingi mashqlarda tashkil etuvchi tizim.

Topshiriqlarni bajarishning optimal strategiyalarini egallashda ta'lim oluvchilarga yordam usullarini, bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalarni egallash aynan faoliyat jarayonida yuz beradi deb faraz qilinadigan tizimli-faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan qarab chiqamiz.

Bizning tadqiqotimizda faoliyatli yondashuvga tayanish shu bilan izohlanadiki,

ISSN 2181-3841

zamonaviy metodikada faoliyat shaxs rivojining asosi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Raqamli texnologiyalar esa ta'lim oluvchining ushbu o'qitish vositasi bilan ishlashida uning faol fikriy faoliyatini ko'zda tutadi, ya'ni faollik tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi.

MUHOKAMA. Faoliyatning yo'naltiruvchi asosini bosqichma-bosqich o'zlashtirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Motivatsion.
2. Faoliyatning yo'naltruvchi asosi sxemasi yaratish bosqichi.
3. Moddiy yoki moddiylashtirilgan harakatlar bosqichi.

Raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganish uchun tushunarli qulay qadamlarga (faoliyatning yo'naltiruvchi asosi tashkil etuvchilari) ega bo'lish imkonini beradi. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganish amaliyotiga raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish va muvaffaqiyatli joriy etish masofaviy boshqariladigan sinov tizimiga o'tishning zaruriy bosqichi hisoblanadi.

Faoliyatning yo'naltiruvchi asosi sxemasi asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganishga mo'ljallangan topshiriqlarni bajarishga o'rgatishni tashkil etishning afzalliglari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganishga mo'ljallangan topshiriqlarni bajarish bo'yicha faoliyatni ta'lim oluvchilar kuchi yetadigan qadamlar ko'rinishida taqdim etish va ularni bajarish to'g'riligini operatsiyalar bo'yicha nazorat qilish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganishga mo'ljallangan material bilan ishlash ketma-ketligini yodlab olishga zaruriyatning yo'qligi, chunki faoliyatning yo'naltiruvchi asosi taqdim etadigan raqamli texnologiyalar bilan muntazam ishlaganda algoritm o'z-o'zidan yodda qoladi.

Raqamli texnologiyalar asosini qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rganishga mo'ljallangan topishiriqlar, shuningdek, bu topshiriqlarni bajarishning optimal usullarini o'zlashtirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar tashkil etadi.

Ishlab chiqilgan raqamli texnologiyalarning o'qitish sifatini oshirishni ta'minlovchi asosiy xususiyatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

a) shaxsga yo'naltirilgan o'qitishni amalga oshirish va o'qitishning individual trayektoriyasini shakllantirish. Individual o'qitish trayektoriyasi deganda aniq ta'lim oluvchi uchun uning qobiliyati, motivi, qiziqishi va ehtiyojiga mos keladigan o'quv maqsadlariga erishish uchun mo'ljallangan shaxsiy usul tushuniladi. Raqamli texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchiga o'quv materiallari bilan o'ziga qulay sur'atda va qulay vaqtda ishlash, aniq bir ta'lim oluvchi uchun eng odatiy bo'lgan xatolar orqali ifoda etilgan bilimlardagi bo'shliqlarga qarab muayyan turdagi topshiriqlar sonini o'zgartirishga, agar ta'lim oluvchi topshiriqlarning turlaridan birida muntazam ravishda xato qilsa, dastur topshiriqlarni to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish rejimiga o'tish imkonini beradi.

b) nafaqat zaruriy o'quv materiallari, balki ular bilan ishlash usullarini maksimal darajada ta'minlash orqali ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash ulushini oshirish. Raqamli texnologiyalari orqali ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashi eng qulay sharoitlarda amalga oshiriladi.

XULOSA. Raqamli texnologiyalardan foydalanish o'qituvchiga ta'lim oluvchida shakllanadigan ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni baholash va tekshirishga kam vaqt sarflab, ularda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga ko'proq diqqatini qaratish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar talabalar bilim va ko'nikmalarini nafaqat tizimlashtirishga, balki



ularning kasbiy faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi omil sifatida individual ta'limni shakllantirishda ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishning aniq yo'nalishi hisoblanib, o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ushbu raqamli texnologiyalardan "Elektr ta'minoti tizimida muqobil energiya manbalari" fanining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari" bo'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda talabalarga nafaqat qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rgatish, balki ularni amaliy masalalarni hal etishda mustaqil qo'llash ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Yoqilg'i-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish va "raqamli energonazorat" tizimini joriy etish to'g'risida" dagi PF–77-sonli Farmoni.

2. Turakulov O. K., Hafizov E. Factors of creating a scientific environment in the formation of professional knowledge and skills of future power engineers //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2022. – T. 2022. – №. 2. – С. 298-3064.

3. Xolbutayevich, Turakulov Olim, and Hafizov Erkin. «Bo'lajak energetiklarning kasbiy kompetenligi mazmun–mohiyati.» International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 625-629.

4. Xafizov E. «Bo'lajak energetik muhandislarni tayyorlashda matematika fanining tutgan o'rni» // Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 367-369.

5. Hafizov E.A. «Bo'lajak energetik muhandislarni raqamli texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari». "Tafakkur ziyosi" ilmiy-uslubiy jurnali 2023/3-son, 168-b.

6. Hafizov E.A. «O'zbekiston Resbublikasida qayta tiklanuvchi elektr manbalarini ko'paytirish evaziga ijtimoiy-iqtisodiy xalqoro reytingni oshirish». Материалы Международной научной конференции "Тенденции развития физики конденсированных сред", 2023, 348-b.

ISSN 2181-3841

ANDROGOGIK XARAKTERDAGI INTERAKTIV METODLAR ORQALI PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI O'QITUVCHILARINING KASBIY MALAKALARINI OSHIRISH

Ashurova Sanobar Yuldashevna,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti bo'lim boshlig'i,
pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursida tahsil oluvchi o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish bo'yicha androgogik metodlar tahlili hamda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda zamonaviy interaktiv ta'lim berishning ayrim usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Androgogik ta'lim, katta yoshdagilar ta'limi, professional ta'limda malaka oshirish sifatini yuksaltirish, interaktiv metodlar, moderator.

Аннотация: В данной статье представлен анализ андрогенных методов управления профессиональным образованием и повышения профессиональной квалификации учителей, обучающихся на курсах переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров, а также некоторые методы современного интерактивного обучения с учетом их возрастных особенностей.

Ключевые слова: андрогенное образование, образование взрослых, повышение качества профессионального образования, интерактивные методы, модератор

Annotation: this article describes the analysis of androgogic methods for professional education management and professional qualification of teachers studying at the training course of pedagogical personnel and their training, as well as some methods of modern interactive education, taking into account their age characteristics.

Key words: Androgogic education, adult education, quality enhancement in professional education, interactive methods, moderator

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmonida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, professional ta'limni chuqurlashtirib o'qitish va professional ta'limning turli yo'nalishlari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan professional ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori va qabul qilingan boshqa

bir qancha qarorlar, belgilangan chora-tadbirlar talablaridan kelib chiqqan holda Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida malaka oshirayotgan o'qituvchilarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash, kreativligi va kompetentlik xislatlarini shakllantirish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borilib, ushbu maqolaga seminar mashg'ulotlarida o'tkazilgan interaktiv metodlardan foydalanish usullari kiritildi.

TO READ THE ARTICLE IN ENGLISH

ПРОЧИТАТЬ СТАТЬЮ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Professional ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligiga erishishning asosiy yo'llaridan biri rahbar xodimlar va o'qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirish, o'quv-me'yoriy va uslubiy (metodik) hujjatlar bilan ishlashni to'g'ri tashkil etish va o'quv-uslubiy ishlarni samarali tashkil etishdir. Professional ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi o'qituvchilar va rahbar xodimlarning kasbiy malakalarini oshirish va uni amalga tatbiq ettirish darajasiga bog'liq. Shu sababli ta'lim muassasasining har bir rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy komptentligi va malakalarini faol oshirish shart. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Professional ta'lim o'qituvchilarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir.

Uzluksiz ta'lim nazariyasining konseptual holatlaridan farqli o'laroq, kattalar ta'limi nazariyasi va amaliyoti asosida yoshi katta odam tabiatidan kelib chiqqan tamoyillar yotadi. Katta yoshli odam ehtiyoj sezmaguncha o'qimaydi. U faqat o'z fikriga ko'ra zarur ko'nikmalarni o'rganadi va ish jarayonida o'qiydi. Boshqacha qilib aytganda, yoshi katta odam ta'lim jarayonida, aniqrog'i, uning barcha parametrini aniqlashda yetakchi rolini o'ynashga tayyor.

Xorijdagi tajribaga ko'ra, o'qitishning innovatsion modeli asosida katta yoshlilar ta'limining nazariyasi va amaliyoti muayyan holatda shakllantirilgan. Jumladan, ta'lim oluvchining tajribasidan o'qitish mazmunini belgilovchi manbalardan biri sifatida foydalaniladi.

XXI asrda yetakchi davlatlardagi malaka oshirish tizimida ochiq va yopiq kurslarni tashkil etish kasbiy rivojlanishda muhim omildir. Qisqa muddatli kurslarni tashkil etishda asosiy e'tiborni o'quv-uslubiy ta'minotni yaratishga qaratish kerak. Zero, malaka oshirish tizimini takomillashtirish o'qitish sifatini ta'minlaydigan asosiy omillardan. Bu jarayonda professional ta'lim mutasaddilari, soha mutaxassislari va pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish, faoliyatini muvofiqlashtirish zarur bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini ilg'or xorij tajribasi (Singapur, Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yaponiya) asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning hayot davomida egallanishini qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

Professional ta'limda malaka oshirish sifatini yuksaltirishda boshqaruv va pedagog xodimlarning shaxsiy tashabbusi asosida ta'lim olishga ehtiyoji, motivatsiyasini rivojlantirish, o'quv jarayonida o'zaro ishonch va xayrixohlikka asoslangan hamkorlik muhitini yaratish, ta'lim dasturlarini amalga oshirishning modulli tizimini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda katta yoshdagilar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari bor. Shaxsiy va kasbiy jihatlarning o'zaro bog'liqligi, yetakchilik roli, kasbiy, ijtimoiy, maishiy va amaliy

ISSN 2181-3841

tajriba kabi omillarni hisobga olish, kasbiy faoliyat maqsadlari, vazifalari, natijalari va ehtiyojlariga muvofiqligi asosida o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirib borish muhim sanaladi. Shu bois o'qituvchilarning yosh xususiyatlarini ham inobatga olish lozim. Malaka oshirish institutlarida seminar mashg'ulotlarini olib borishda androgogik ta'limni qo'llash bu borada yaxshi samara beradi.

> ***"Androgogika" tushunchasi ilmiy atama sifatida 1833-yilda nemis pedagog-tarixchisi A.Kapp tomonidan fanga kiritilgan. Agar "Pedagogika" so'zi bilan yonma-yon, o'xshash tarzda talqin etilsa kelib chiqishi grekcha so'zlardan (andros-erkak, odam; agogeyn-yetaklash) iborat ekanligi oydinlashadi.***
>
> *So'zma-so'z tarjima qilinsa, androgogika bu - "katta odamni yetaklash"dir. Androgogika, zamonaviy ilmiy bilimlar rivojining umumiy holatini aks ettiruvchi namuna bo'la oladi. Bir tomondan, dolzarb muammolar xususida axborotlarni umumlashtirish, ikkinchi tomondan - ularni ixtisoslashtirish va joy - joyiga qo'yish. Shu tufayli androgogika pedagogika, kattalar ta'limi nazariyasi tarkibiy qismiga kirishi, hamda bilim sohasining mustaqil tarmog'i sifatida odamni o'rganuvchi va o'rgatuvchi soha deb e'tirof etilishi mumkin.*

Androgogik xarakterdagi interaktiv metodlardan ba'zilarini misol tariqasida ko'rib chiqaylik:

Tasavvur (assotsiastiya)lar tahlili. Moderator seminar mavzusiga bevosita aloqador tushunchalarni o'qiydi va ishtirokchilardan bu tushunchalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan tasavvurlarni yozib borishni so'raydi. Keyin tanaffus vaqti, kartochkalar to'planadi, tizimlanadi va barcha tanishib chiqishi uchun taqdim etiladi. Natijalar muhokama qilinadi va sharhlanadi. Muhokama davomida moderator ishtirokchilarning tasavvurlari (assostiastiyalari)ni ularning umidlari va seminar o'tkazish bo'yicha taklif etilayotgan dastur bilan bog'laydi.

Tugallanmagan jumlalar. Moderator doskaga yoki plakatlarga seminar mavzusiga tegishli bir nechta jumlaning boshlanishini yozadi. Ishtirokchilar kartochkalarda bu jumlalarni davom ettirish topshirig'ini oladilar. Shundan keyin kartochkalar tegishli joyga (jumlaning boshi yozilgan plakatga) yopishtiriladi. Tugatilgan jumlalar umumiy muhokama uchun turtki bo'ladi va umidlarni aniqlash, ish tartibini rejalashtirishga yordam beradi.

"Shimoliy cho'rtan baliq". Cho'rtan baliqni katta akvariumning yarmiga joylashtirishibdi, ikkinchi yarmida esa shisha to'siq ortida ko'p sonli mayda baliqlar suzib yurarkan. Cho'rtan baliqning qorni ochib, baliqlarga tashlansa, tumshug'i bilan shisha to'siqqa urilib, xafsalasi pir bo'larkan. Keyinchalik u baliqlarga yeta olmasligini tushunibdi va taqdirga tan beribdi. Ajablanarlisi to'siqni bildirmasdan, sekin olganlarida ham, hatto baliqlar atrofida suzib yursa ham, cho'rtan ularga hujum qilmas, jim yotarkan. Bu holat "cho'rtan baliq sindromi"ni namoyish etadi, unga quyidagilarga xos:

vaziyatdagi o'zgarishlarni inkor etish;

mavzuning to'liq tanishligini taxmin qilish;

o'ta umumlashtirishga moyillik;

avvalgi tajribaga so'zsiz amal qilish;

ruhiy zo'riqish (stress) holatida harakat qila olmaslik;

muqobil variantlarni ko'rib chiqishdan bosh tortish;

atrof muhit qurboni hissini tuyish;

his qilayotgan majburlashni tahlil qila olmaslik.

Mashqning maqsadi: bizning muvaffaqiyatimizni chegaralovchi, unga erishishga xalaqit beruvchi omillarni aniqlash va baholash muhimligini namoyish qilish.

Muhokama uchun savollar: kishilar cho'rtan baliq sindromini namoyish qiladigan holatlarga misol keltiring. Biz boshqalarga (yoki o'zimizga) bu psixologik to'siqlarni yengishga qanday yordam bera

olamiz? Qanday xulq turlariga ega bo'lishni, qanday turidan voz kechishni xohlardingiz? (hayotda, ishda qanday majburlashlami his qilasiz? Qanday qilib majburlash tabiatini aniqlashni o'rganish mumkin?

Har bir ishtirokchidan u qanday ishni bajarishni istayotgani yoki istamayotganligini so'rang. Belgilangan vazifani hozir bajarishga xalaqit berayotgan omillarni sanashni iltimos qiling. Ishtirokchilar his qilayotgan majburlashlarni diagrammaga asosan real va tug'ma, qat'iy va moslashuvchan turlarga ajrating. To'qima va moslashuvchan turlar oxir oqibatda bartaraf etilmasa-da, o'rganilishi mumkin. Real va qat'iy majburlashlarni yengib bo'lmaydi. His qilinayotgan chegaralashlarni tahlil qilish, tajriba o'tkazish va sharoitni to'g'ri baholayotganiga ishonch hosil qilish har bir ishtirokchi uchun foydali bo'ladi.

Tavsiyalar: O'rganilayotgan masalalarning guruh tomonidan yaxshiroq tushunilishi uchun shaxsiy hayotingizdan majburlashlarni namoyish qiladigan misol keltiring. Guruhga cho'rtan baliq sindromini yengishda foydali bo'ladigan xulq turlari va sifatlar ro'yxatini tuzishni taklif qiling.

Majburlash turlari	
Qat'iy To'qima	Qat'iy Real
Moslashuvchan To'qima	Moslashuvchan Real

Seminar ishtirokchilarining umidlari va maqsadlariga muvofiq tarzda o'tishi uchun ularning qiziqishlarini aniqlash zarur. Seminar ishtirokchilariga ularning umidlari (ular seminardan kutayotgan natija) to'g'risida savol berib, o'zimizga kerak axborotni olishimiz, shu bilan birga, seminarda faol ishtirok etishga qiziqtirish, natijalarning muvaffaqiyati uchun o'z mas'uliyatlarini anglashlariga yordam berishimiz mumkin.

Bu seminar ishtirokchilariga boshqa kishilarning muammolari, vaziyatlari, ichki dunyosi va pozistiyalariga moslashishga yordam beradi.

Posterior. Bu - ma'lum metodlarning eng soddasi. Seminar boshlanishidan oldin moderator devorga 2-3 ta plakat poster iladi, unda kishi o'z umidini ifoda etadigan jumlaning boshlanishi yozilgan bo'ladi. Masalan: «Men seminar ... bo'ladi deb umid qilaman». «Men seminardan ... olib ketishni istardim». «Men ...ni kutyapman», «Agar... hafsalam pir bo'ladi» va hokazo. Ishtirokchilarga seminar boshlanishidan oldin yoki seminarning boshida maxsus ajratilgan vaqtda (odatda, tanishuvdan keyin) plakatlar yoniga kelib, jumlalarni tugatish taklif qilinadi. Shundan keyin moderator albatta qisqacha umumlashtirishi va tushunarsiz holatlar bo'lmasligi uchun kerakli o'rinlami aniqlashtirishi lozim. Seminar yakunida moderator ishtirokchilarning e'tiborini yana shu varaqlarga qaratadi va ularni birgalikda tahlil qilish davomida amalga oshgan umidlarni alohida ajratib, amalga oshmaganlarining sababini, kelgusida barcha umidlar ro'yobga chiqishi uchun nimalar qilish lozimligini muhokama qiladilar.

G'oyalar bozori. Xonaga seminar davomida ko'riladigan mavzular yoki masalalar yozilgan plakatlar ilinadi. Ishtirokchilardan o'z g'oyalari, fikr-mulohazalari, savollari, takliflarini plakatlarda aks ettirish so'raladi. Taxminan o'n daqiqadan keyin ishtirokchi o'zi uchun bitta mavzu tanlaydi va shu mavzu yozilgan plakat yoniga keladi. Shu tariqa hosil bo'lgan guruhlar plakatlarda ifodalangan g'oya va takliflarni tahlil qiladilar va ulardan qaysi birlarini seminar dasturiga kiritishni hal qiladilar.

Umidlar mag'zi. Har bir ishtirokchi topshiriq oladi: o'z qiziqishlari va seminarga bog'layotgan umidlarini bir necha daqiqa davomida qog'ozda ifoda etish. Bu yozuvlar shaxsiy bo'lib, o'qilmaydi va hech qayerga ilinmaydi. Belgilangan vaqt tugashi bilan har bir ishtirokchi yozganlari orasidan, uning fikricha eng muhim bittasini tanlab, boshqa ishtirokchilarga e'lon qiladi.

Axborotni yetkazish va tahlil qilish. Har bir seminarning eng muhim vazifalaridan biri ma'lum mavzu bo'yicha axborot berishdan boshlanadigan konkret vaziyat tahlilidir. Shubhasiz, biz axborotning ma'ruza yoki xabarlar ko'rinishida taqdim etilishi-

ISSN 2181-3841

ga o'rganib qolganmiz, vaholanki, bunday ma'ruza metodi ma'ruzachining fikrlarini tinglovchilarning miyasini aylanib o'tib, daftarlarida aks ettirishning eng yaxshi yo'lidir". Agar biz xabar berishga qaror qilgan bo'lsak avval o'zimizga quyidagi savolni berishimiz ma'qul bo'ladi: "Mening ma'ruzam tinglovchilarga qanday foyda keltiradi?" Bu savolga ijobiy javob berganimizdan so'ng, ma'ruzamiz:

- e'tiborni tortadigan nomlanishga ega bo'lishi;
- uchtadan ortiq bo'lmagan asosiy g'oyalardan iborat yaxlit xabar bo'lishi;
- kirish (taxminan 15 %), asosiy qism (75 %) va xulosa (10 %)dan tarkib topishi lozimligini unutmasligimiz kerak. Bundan tashqari, ma'ruzaning varaqlardagi yoki kartochkalardagi tezislari (har bir tezis alohida kartochkada) bizga kuchliroq ishonch baxsh etadi. Endi axborotni uzatish va tahlil qilishda foydalanish mumkin bo'lgan boshqa metodlarni ko'rib chiqamiz.

Stend taqdimot. Guruh katta plakat tayyorlaydi, unda loyihaning asosiy komponentlarini (tarkibiy qismlarini: nomi, maqsadi, tadbirlari va h.k.) aks ettiradi. Bunda turli-tuman materiallardan, applikatsiya, kollaj yoki rangli markerlardan foydalanish mumkin. So'ngra plakatlar devorlarga ilinadi, guruhlar galma-gal o'z loyihalari haqida gapirib beradilar. Boshqa guruhlar aniqlashtiruvchi savollar beradi yoki o'z takliflarini bildiradilar.

Jamg'arma (fond) ko'rik-tanlovi. Ushbu mavzudagi seminar mashg'ulotida loyiha ustida ish boshlanmasidan avval moderator ular, masalan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (jamg'arma nomi shartli ravishda, tayyorlanayotgan loyiha mavzusiga muvofiq tanlanadi) e'lon qilgan ko'rik-tanlovga taqdim etilishini xabar qiladi. Moderator, shuningdek, jamg'armaning talablarini oldindan aytishi va shu toifa guruhlarning fantaziyasini biroz chegaralashi mumkin. Masalan, loyihaning maksimal budjeti - 5 ming dollar, amal qilish muddati - 1 yil, maqsadli guruh - ishsizlar va h.k. Taqdimotga ajratilgan vaqt ham chegaralanadi. Moderator har bir guruh a'zolariga o'z loyihalarining maqsadga muvofiqligini isbotlash uchun 10 daqiqa, savollarga javob berish uchun 5 daqiqa vaqt berilishini ma'lum qiladi. Loyihalar tayyor bo'lgach, ko'rik-tanlov boshlanadi. Guruh o'z loyihasini rollari boshqa ishtirokchilar yoki mustaqil ekspertlar (masalan, seminarlar tomonidan o'ynaladigan jamg'arma a'zolariga taqdim etadi. Keyin "Jamg'arma Kengashi" - har bir guruhdan bir yoki ikkitadan vakil yashirin ovoz berish orqali qaysi loyihani qo'llab-quvvatlashni hal qiladi.

Asl nusxa (orginal)ni topish. Ishtirokchilar orasidan 4 nafar ekspert tayinlanadi, qolganlar esa uch guruhga ajratiladi. Ekspertlardan tashqariga chiqish so'raladi, ularga katta kartinaning fragmentlari ko'rsatiladi. Kartina to'rt qismga bo'lingan, har bir ekspert ikki daqiqa davomida faqat bir bo'lakni tomosha qilib, ko'proq tafsilotlarni eslab qolishi lozim. Shundan keyin bo'laklar olib qo'yiladi. Ekspertlar bir-birlari bilan muloqot qilmaydilar, shuning uchun yaxlit kartina haqida tasavvurga ega emaslar. So'ngra ekspertlar auditoriyaga qaytib keladilar, har biri galma-gal o'z bo'lagidan eslab qolganlarini gapirib beradi. Guruhlar qisqacha yozib oladilar. Guruhlarning vazifasi yaxlit kartinani iloji boricha to'liqroq, aniqroq chizishlari lozim (ishtirokchilarga vatman qog'ozlari va rangli qalamlar beriladi). Ekspertlar hikoyasidan keyin guruhlar ularning yoniga o'z vakillarini yuboradilar. Faqat bitta ekspertga savol berish mumkin. Mashq yakunida guruhlar kartinalarini namoyish qiladilar, ekspertlar esa o'z fragmentlari qanchalik aniq ifoda etilganini baholaydilar. Bunda ekspertlarning tanqid qilishlariga yo'l qo'yilmaydi, faqat to'g'ri bajarilgan o'rinlar qayd etiladi. Ish natijalari guruh munozarasi shaklida muhokama qilinadi.

Shunday qilib, kattalarni o'qitish jarayonini tashkil etishda androgogik xarakterdagi interaktiv metodlardan foydalanish, ma'ruza va seminar mashg'ulotlariga tatbiq etish orqali pedagoglarimizning kasbiy malakalarini bir qadar oshirishga erishishimiz mumkin.

KASB-HUNAR MAKTABLARI O'QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH STPATEGIYASINI LOYIHALASHTIRISH

Xasanov Mansur Abrarovich,
Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy-pedagogik bilimlarini integratsiyalash, kasbiy vazifalarni bajarish va individual improvizatsiyalashga qaratilgan didaktik jarayonni amalga oshirishning kasbiy faoliyatga tayyorlash stpategiyasini loyihalashning tashkiliy-tuzilmaviy modeli takomillashtirilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar maktablari, kasbiy faoliyatga tayyorlash, strategiya, loyihalashtirish, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, mehnat bozori, ta'lim sifati, o'quv jarayoni.

Аннотация: В данной статье усовершенствована организационно-структурная модель проектирования стратегии подготовки к профессиональной деятельности интеграции профессионально-педагогических знаний, выполнения профессиональных задач и реализации дидактической подготовки, ориентированной на индивидуальную имповизацию.

Ключевые слова: профессиональные училища, профессиональная подготовка, стратегия, дизайн, современное образование, цифровые знания, рынок труда, качество образования, образовательный процесс.

Annotation: This article improves the organizational and structural model for designing a strategy for preparing for professional activities, integrating professional and pedagogical knowledge, performing professional tasks and implementing didactic training focused on individual improvisation.

Key words: vocational schools, vocational training, strategy, design, modern education, digital knowledge, labor market, quality of education, educational process.

KIRISH.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, ichki va tashqi mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalarni yuklamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda, shaxs va jamiyatning ta'limiy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashni optimallashtirish hamda uning strategiyasini ishlab chiqish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi [1].

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim tizimidagi yo'nalishlardan biri – kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish asosiy omil sifatida ko'rilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ta'lim islohotlari doimiy ravishda o'zgarib turgan sharoitda jamiyatda har bir mutaxassisning kasbiy kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat turli xil shaxslardan iborat bo'lganligi bois, turli mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor berish zarur (kasbiy malaka, mohir usta, mutaxassis va boshqalar).

ISSN 2181-3841

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy faoliyatda kompetentligini rivojlantirish muammosining bugungi kundagi holatini ilmiy-nazariy va uslubiy qiyosiy tahlil qilish bizga shaxsning o'ziga xos taraqqiyotga moyilligi, muayyan jamiyatda o'zgaruvchan hayot faoliyati, shuningdek, kasbiy soha sharoitida shaxsga o'ziga xosligini aniqlashga imkon bor degan xulosa qilish mumkin [2]. Shu sababli, "kasbiy faoliyatga tayyor o'quvchi" – mehnat bozori talablariga to'liq javob beradigan shaxs bo'lib yetishishi, o'zini takomillashtirish, shuningdek, uning kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolarini hal etish nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy g'oyalarini jamlagan holda ta'kidlash mumkinki, o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish muammosi psixologik-pedagogik va iqtisodiy muammo hisoblanadi. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish zaruriyati bir qancha sabablarga bog'liq, ular: professional ta'lim va uning mohiyatan murakkabligi; professional ta'lim tizimi diplomlarining qadrsizlanishi; professional ta'lim tizimiga ish beruvchi tashkilot va korxonalar talabining pastligi va boshqalar.

Tadqiqotda qayd etganimizdek, professional ta'lim muassasalari o'rtasida raqobatning kuchayishi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat – mehnat bozorida kasb-hunar o'quvchilarining kasbiy kompetensiyaga egaligiga, bandlik muammolarining kuchayishiga, lavozim bo'yicha o'sishda professional ta'lim tizimi o'quvchilari kasbiy karyerasiga ta'sir qilishi hisobga olinadi. Hozirgi vaziyat ish beruvchilar orasida yosh mutaxassislarga bo'lgan talabni pasaytirishi, ta'lim muassasasida mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan talablarni o'zgartirishi, ish beruvchi bilan munosabatlari zaiflashishi o'quvchilarning diplom olish imkoniyatini va ish bilan ta'minlanishi imkoniyatini pasaytiradi.

Raqobat muhitida o'quvchilarning harakat qilish va ish o'rinlarini topish imkoniyatining cheklanganligi mamlakatimiz kasbiy tayyorgarlik amaliyotiga strategik rejalashtirishning dolzarb muammolarini kiritishni talab qiladi. Bunday holda, professional ta'lim tizimi amaliyotida o'quvchining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishni strategik rejalashtirish muammosini hal qilish haqida gapirishimiz mumkin.

MUHOKAMA. O'quvchining kasbiy faoliyatini rivojlantirish jarayonini strategik rejalashtirish muammosini hal qilish zarurati mutaxassislarning e'tiborini o'quvchining kasbiy yondashuvini rivojlantirishga qaratadi, unda bo'lajak kasbiy faoliyatining mazmuni, shu jumladan, ish joylari uchun raqobat bilan bog'liq bo'lgan kasbiy muammolarni hal qilish variantlari va usullarini mustaqil ravishda belgilashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ushbu holatda o'quvchining kasbiy kompetentligi, mutaxassislarning shaxsiy-subyektiv natijalari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilishi zarur.

Mehnat munosabatlari sohasidagi maqsadga erishishda yosh mutaxassis kompetensiyaviy ustunlikka ega bo'lishi zarur bo'lib, u kasb-hunar maktablari o'quvchisining mavjud kasbiy kompetentligi oldida muayyan ustunlikka egaligini anglashga imkon beradi. Bu holda, o'quvchining o'z kasbiy kompetentligini mustahkamlashga urinishi strategik va taktik ahamiyatga ega omillar guruhiga tayanishi zarur. Shuni alohida qayd etish kerakki, strategik xatti-harakatlar omili strategik va taktik maqsadga erishishning omili, ya'ni o'quvchi mehnat bozorida raqobatlasha olishga tayyor bo'lishi kerak degan ma'noni bildiradi. Shu vaqtning o'zida pedagogik adabiyotda professional ta'limning amal qilishi va professional ta'limni rivojlantirish masalasiga tegishli ravishda "o'quvchi kompetensiyasi" kasbiy faoliyatning subyekti sifatida ta'riflanib, u o'z salohiyatini (shaxsiy, axloqiy va shunga tegishlicha kasbiy) mehnat bozorini ishchi kuchi bilan to'yintirish sharoitida namoyon qiladi. Bu uning jamiyatdagi tez o'zgarib borayotgan jamiyat ehtiyojlari va

talablariga tez moslashishga tayyorligidan, mehnat bozoridagi raqobatga tayyorligidan dalolat beradi.

O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatini tadqiq etish jarayonida V.I.Blinovning metodiga tayanilib, kasb-hunar maktabi o'quvchisini kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqdik (1-rasm) [3-4].



1-rasm. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tarkibiy tuzilmasi.

U bevosita o'z ichiga o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy kompetensiyaviy faktorlarni olgan bo'lib, ularning har birida shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajalariga ta'sir qiluvchi kasbiy muvofiqligi, kasbiy o'sish va bo'lg'usi pedagogik kadr tayyorlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashning texnologik xaritasini, kreativ ta'limga asoslangan metodlarini, ta'lim natijalarini baholashda kompetentlikning kompleks pedagogik diagnostikasi vositalarini o'z ichiga olgan didaktik ta'minotni takomillashtirish holatini ko'rib o'tamiz.

Olib borilgan tahlillarga ko'ra aytish mumkinki, shu paytgacha professional ta'lim tizimida maqsad sifatida bilim va ko'nikmalarning ma'lum bir to'plami ishtirok etar edi, bu esa malaka tavsiflari bilan qayd qilingan edi ("Bilish kerak...", "Bajara olish kerak..."). Ammo zamonaviy mutaxassis uchun bilimlar va ko'nikmalar yig'indisiga ega bo'lishning o'zigina muhim bo'lmay, balki bu yig'indini amaliy faoliyatda amalga oshirish qobiliyati muhimdir. Iste'molchi uchun bu sanoat yoki ta'lim tizimi bo'ladimi, yosh mutaxassis nimani bilishi emas, balki qanday ishlashi muhimdir.

Shuning uchun xususan bilimlar va ko'nikmalar o'qitish natijasi sifatida ishtirok eta olmaydi. Bilimlar ham ko'nikmalar ham o'qitishning oraliq o'rtacha natijasi bo'lishi kerak, pirovard natija esa kasbiy faoliyatning o'zi bo'ladi. Tabiiyki bir qator savollar tug'iladi, bu qanday ko'rinishda ifodalanadi, maqsadni faoliyat tizimida qanday ko'rsatish kerak va h.k. Bu yerdan xulosa kelib chiqadiki, agar natija sifatida faoliyat ishtirok etsa, u holda haqiqatni minimal uzilishlar bilan aks ettiradigan model kerak. Aks holda o'quvchi nima tayyorlagani bilan, u haqiqatda nimaga duch kelgani o'rtasida jiddiy nomuvofiqlik hosil bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilarni

ISSN 2181-3841

kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik strategiyasini loyihalashda strategiyaning xususiyatlarini (o'qituvchining faoliyatiga nisbatan) hisobga oladigan va kasb-hunar o'quvchisini kasbga tayyorlash jarayonining asosi bo'lishi mumkin bo'lgan, uning adekvat modelini qanday qilish kerakligi muammosi yuzaga keladi. Pedagogik strategiyani loyihalashda o'quvchilarning zaruriy kompetensiyalarini belgilab olish muhimdir va bu jarayonda ta'lim nazariyasi va metodologiyasini o'rganish talab etiladi [5].

Kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish bu – o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyat komponentlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir. Kasb-hunarga yo'naltirish insonga kasbiy o'zligini anglash va optimal bandlik turini tanlashda uning talab va imkoniyatlarini, mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni hisobga olgan holda maxsus ko'mak berish choralari kompleksini amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi nafaqat jamiyat, balki har bir shaxs, oila uchun o'ta dolzarb va hayotiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi o'quv-tarbiya jarayonining o'zi yosh avlodni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak [6].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati natijaga yo'naltirilgan ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanganligi, kompetensiyaga asoslangan professional ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning tashkiliy-didaktik modeli takomillashtirilganligi hamda kompetensiyaga asoslangan professional ta'lim dasturlarini ishlab chiqish metodikasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida kompetensiyaga asoslangan professional ta'lim dasturlari yaratilganligi, professional ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlar va chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi, professional ta'limning kompetensiyaga asoslangan metodik ta'minotini yaratish texnologiyasi ishlab chiqilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/4500926.
2. 2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
3. 3. Блинов В. И. Профессиональная педагогика. М.: Юрайт, 2024. 692 с.
4. 4. Богданова Т. Г. Основы специальной педагогики и специальной психологии. Сурдопсихология. Учебник для СПО. М.: Юрайт, 2019. 236 с.
5. 5. Белогуров А.Ю., Ильинская Я.А. Университет в стратегии развития региональной системы дополнительного непрерывного образования (из опыта Камчатского государственного университета имени Витуса Беринга) // Известия Южного федерального университета. Педагогические науки. – 2016. – № 1. – С. 23–30.
6. 6. Ergashev B. Professional ta'lim tizimida raqobatbardosh bitiruvchilarni shakllantirish strategiyalari // Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. - 2021. - №3, 6 - 8-b.

BO'LAJAK MUHANDISLARNING STANDARTLASHTIRISH VA METROLOGIK TA'MINOT SOHASIDAGI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK SHARTLARI

Nosirov Jahongir Normurod o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari aniq ishonchli o'lchash natijalarini olish, o'lchash vositalari keng qo'llanishini talab qiladi. Shuning uchun Oliy ta'lim davlat standartida "Muhandislik va muhandislik ishi" ta'lim sohalarida "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" faniga keng o'rin ajratilgan. Metorlogiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fani dasturi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uchun zarur bo'lgan o'lchashlar birligini ta'minlash, o'lchash vositalari, o'lchashlar yagonaligi, o'lchash xatoliklari va noaniqliklari, standartlashtirish turlari, normativ hujjatlar toifalari, sertifikatlashtirish turlari va sxemalari, mahsulot sifati va xavfsizligi bo'yicha boshlang'ich tushunchalar va ularning amaliy tatbiqlarini o'z ichiga olgan bo'limlardan tashkil topgan.

Kalit so'zlar: Metrologiya, standartlashtirish, standartlashtirish asoslari, kasbiy kompetensiyalar, malaka talablari, klassifikator.

Аннотация: Современные информационно-коммуникационные технологии требуют точных и надежных измерений, широкого применения измерений. Для этого в Госстандарте высшего образования большое место отведено науке «Метрология, стандартизация и сертификация» по направлениям «Технология и инженерное дело». Обеспечение единства измерений, измерительный контроль, единство измерений, погрешности и погрешности измерений, виды работ, номера нормативных документов, виды сертификации. и состоит из программ, отдела качества продукции и отделов.

Ключевые слова: Метрология, стандартизация, основы стандартизации, профессиональные компетенции, квалификационные требования, классификатор.

Annotation: Modern information and communication technologies require accurate and reliable measurement results, wide use of measuring tools. Therefore, in the State Standard of Higher Education, a large place is allocated to the science of «Metrology, standardization and certification» in the fields of «Engineering and engineering work». The science program of metrology, standardization and certification ensures the unity of measurements necessary for information and communication technologies, measuring tools, uniformity of measurements, measurement errors and inaccuracies, types of standardization, categories of regulatory documents, types of certification and schemes, consisting of sections covering the basic concepts of product quality and safety and their practical applications.

Key words: Metrology, standardization, basic standardization, professional competence, qualification requirements, classifier.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Asosiy qoi-

dalar" hamda "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" [2], O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 20-oktyabrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi F–31-son "2023/2024-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi Farmoyishi [1]ga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Mazkur davlat hujjatida oliy ta'lim, bakalavriat, magistratura, oliy ma'lumot darajasi, oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom), oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislari klassifikatori, Malaka talablari, o'qishning me'yoriy muddati, o'quv fanlari bloki, o'quv reja, o'quv yuklama, o'quv fani, o'quv yili, o'quv semestri, o'quv dasturi, malaka amaliyoti, yakuniy davlat attestatsiyasi, o'qitish sifatini nazorat qilish, ta'lim sifatini nazorat qilish, oliy ta'lim muassasasi (OTM) attestatsiyasi, OTM akkreditatsiyasi hamda tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) atamalariga batafsil to'xtalib, ta'riflari yoritib berilgan [2].

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari, umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi.

O'quv rejalar tarkibi ikki blokni tashkil etadi. Bular quyidagilar: o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki; tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlar) bloki.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ta'lim yo'nalishining xususiyati va OTM xususiyatidan kelib chiqqan holda kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlaydi.

Ta'limning xalqaro standart tasnifiga binoan ta'lim darajasi bakalavriat yo'nalishlarida "6" raqami, magistratura mutaxassisliklarida "7" raqami bilan belgilanadi. Masalan, bizning tadqiqot obyektimiz texnika oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak metrologik muhandislarini tayyorlashda bakalavriat ta'lim yo'nalishi 60711300 – "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" tarzida kodlar bilan yoziladi [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasini joriy qilish: kasb standartlarini ishlab chiqishda — xodimlar malakasiga, ta'lim standartlarini ishlab chiqishda — bitiruvchilarning bilim darajalariga talablarni yagona nuqtayi nazardan yoritish; xodimlarni ishga qabul qilishda, tashkilot ishida va tashkilotlar orasida vertikal va gorizontal harakatlantirishda malaka talablarini belgilash; xodimlar va ishga da'vogarlarning malakasini aniqlash materiallari va tartibotlarini ishlab chiqish; respublika, hudud va tarmoq darajalarida, shuningdek, tashkilotlarda kadrlar tayyorlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish; malakalarni rivojlantirish monitoringini va statistik tahlilini amalga oshirish uchun imkon yaratadi.

60711300 – "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" ta'lim yo'nalishining yangi tahrirdagi Malaka talabi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan [1].

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining kasbiy standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi [2].

Mazkur malaka talabi 2 ta guruhga bo'linadi:

1. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.

2. Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Metrologiya, standartlashtirish va

mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil, kechki ta'lim shaklida 4.5, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida 5 yil etib belgilangan.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi – fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, u ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash va baholash, metrologik ta'minot, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, sifat menejment tizimini ishlab chiqarishga joriy etish, korxonalarda metrologik xizmat, sifat nazoratini tashkil etish, ekspertiza o'tkazish, ishlab chiqarish bilan bog'liq kompleks masalalarga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- fizik kattaliklar birligi etalonlari va bu birliklarni o'lchashning namunaviy vositalaridan ishchisiga o'tkazish usullari;
- o'lchash usullari va vositalari, o'lchashlar natijalarini qayta ishlash va baholash;
- mahsulot sifati va xavfsizligiga qo'yiladigan talablar;
- standartlashtirishni tashkil etishni nazorat qilish;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini metrologik ta'minlash;
- me'yoriy hujjatlar;
- mahsulot sifatini sinash va nazorat qilish;
- korxona va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimi;
- metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish;
- ishlab chiqarish korxonalari metrologik ta'minoti;
- sanoat mahsulotlari va xizmatlarining sifati va xavfsizligini nazorat qilish;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari; professional ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoni.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar fan va texnika sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, o'lchash vositalarini ishlab chiqish, metrologik tekshirish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, muvofiqlikni baholash, sifat menejmenti tizimini baholash, mahsulotlarni sinash sohalarida faoliyat yuritadigan korxonalarida faoliyat olib borish hamda o'lchash vositalarini metrologik tekshiruvdan o'tkazadigan tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

Mazkur sohalardan kelib chiqib Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy faoliyatlarining turlari 1-rasmda aks etgan.



1-rasm. Kasbiy faoliyatlarning turlari.

ISSN 2181-3841

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo'ladi:

Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'lchash vositalari qismlari va detallari hamda yig'ma birliklarining loyihasini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'lchash vositalari metrologik xarakteristikalarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;
- standartlarni ishlab chiqish yoki xalqaro standartlarini qabul qilish jarayonlari haqida ko'nikmalariga ega bo'lish;
- o'lchash vositalarining metrologik tekshiruvvdan o'tkazish davlat nazorati tartib va qoidalarini bilish;
- muvofiqlikni baholash tizimiga tegishli me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan tanishish va bilish;
- o'lchash vositalarini metrologik xususiyatlarini aniqlash va ularni to'g'ri qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- laboratoriya jihozlarini sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilish;
- o'lchash vositalari va sinov qurulmalari jihozlarini, konstruksiyalar va asbob-uskunalarning texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5010	167
Tanlov fanlari	1620	54
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T/R	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yukla-maning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5010	167	
1.01	O'RT11104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN11204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM11204	Kimyo	120	4	2
1.04	XT12408	Xorijiy til 1,2	240	8	2,4
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM11315	Oliy matematika 1,2,3	450	15	1,2,3
1.07	O'EYT11104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	TTAT11104	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.09	MKG11104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.10	ABA12404	Avtomatik boshqarish asoslari	120	4	4
1.11	SIM14804	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	8
1.12	FAL13604	Falsafa	120	4	6
1.13	EKA13504	Ekologiya	120	4	5
1.14	XFX14704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	7
1.15	O'FA11206	O'lchashlarning fizikaviy asoslari	180	6	2
1.16	O'UV12620	O'lchash usullari va vositalari	600	20	3,4,5,6
1.17	MA12514	Metrologiya asoslari	420	14	3,4,5
1.18	SA12410	Standartlashtirish asoslari	300	10	3,4
1.19	MBA13510	Muvofiqlikni baholash asoslari	300	10	4,5
1.20	MSSB14809	Mahsulot sifati va sifatni boshqarishning statistik usullari	270	9	7,8

ISSN 2181-3841

1.21	MSN14811	Mahsulot sifati nazorati	330	11	7,8
1.22	ICHMT14705	Ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti	150	5	7
1.23	YK11105	Yo'nalishga kirish	150	5	1
2.00		Tanlov fanlari	1620	54	
2.00		Tanlov fanlari (10 ta fan)	1620	54	3,5,6,7,8
		Jami	6630	221	
		Malakaviy amaliyot	420	14	4, 6, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami	570	19	
		HAMMASI	**7200**	**240**	

Biz Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishiga "Standartlashtirish asoslari" fanini o'qitish orqali ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini qarab chiqamiz.

Fanni o'qitishdan maqsad – Respublikamiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va xavfsizligini oshirish masalalarini hal etish uchun va texnik me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash, standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish sohalarida talabalar bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hisoblanadi.

Fanning vazifasi – uzluksiz ta'lim tizimida "Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti" bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashdan kelib chiqib, bunda standartlashtirish bo'yicha nazariy, amaliy va me'yoriy hujjatlar bo'yicha ma'lumotlar o'rganiladi. Bu borada asosiy masala sifatida mahsulot va xizmatlarni standartlashtirish va ularning sifati masalasiga e'tibor qaratiladi [4].

"Standartlashtirish asoslari" fanining vazifasi:

- standartlar va ularning turlari,
- standartlarni ishlab chiqish,
- standartlar talablari bajarilishi ustidan nazorat,
- standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, texnik reglamentlar, texnik jihatdan tartibga solish tizimi, mahsulot, jarayon va xizmatlarni standartlashtirish,
- xavfsizligini ta'minlashda texnik reglamentlarning o'rni va ahamiyati, normativ hujjatlarni joriy qilish va rivojlanishi istiqbollari hamda respublikamizda mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatilishi sifati va raqobatbardoshligini oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish va normativ hujjatlarning istiqboliga ta'siri masalalari o'rganiladi.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi: (Standartlashtirish bo'yicha xalqaro, davlatlararo, chet el, hududiy va milliy tashkilotlarning tuzilmasi va faoliyatlari to'g'risida; O'zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarni ishlab chiqish tartiblari to'g'risida; o'zaro o'rin bosuvchi davlat standartlari, davlatlararo va chet el standartlari haqida tasavvurga ega bo'lish; Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar (ISO-ISO, IEC-MEK) va Butunjahon savdo tashkiloti (BST) qoidalari va me'yorlariga muvofiq standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solishning asosiy tamoyillarini; davlat va tashkilot standartlarining turlari va ularga qo'yilgan talablar; savdodagi texnik to'siqlar (STT) va sanitar hamda fitosanitar tadbirlar bo'yicha BST Kelishuvining asosiy qoidalarini; standartlashtirishning asosiy usullari va ulardan mahsulotni yaratishdagi barcha bosqichlaridan foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (korxona va tarmoqlarda standartlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish bo'yicha ishlarning zamonaviy holatini tavsiflash va tahlil qilish; standartlashti-

rish usullarini amaliyotga qo'llash; O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlaridan, mahsulotlarga majburiy talablarni o'rnatishda xorijiy mamlakatlarning yetakchi tashkilotlari standartlari, davlatlararo, hududiy va xalqaro standartlardan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimediya qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi. Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tiladi, Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan quyidagi vazifalardan biri tayyorlanadi: o'qituvchi tomonidan berilgan muammoning "Keys-stadi" texnologiyasi asosida yechimini topish, taqdimot tayyorlash, berilgan mavzu bo'yicha testlar tuzish, referat tayyorlash.

Yuqoridagi bilim ko'nikma va malakalarga, umuman olganda kompetensiyalarga ega bo'lishi uchun Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari, ular uchun ajratilgan o'quv fanlari ichidan "Standartlashtirish asoslari" fanini albatta chuqur o'zlashtirishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi F–31-son "2023/2024-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi Farmoyishi. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti to'g'risida"gi nizom.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz.
4. Abduvaliyev A.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik. Toshkent. Sharq., 2018.
5. T.S.Xudoyberdiev, K.Qosimov, O'.R.Igamberdiev, Metrologiya standartlashtirish va o'zaro almashinuvchanlik Toshkent. Tafakkur -Bo'stoni 2011-yil.

ISSN 2181-3841

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA KASBGA O'RGATISH MAZMUNINI MODERNIZATSIYA QILISH VA BITIRUVCHILAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA ISH BERUVCHILAR ISHTIROKINING DOLZARBLIGI

Otayarov Javohir Odiljon o'g'li,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqola O'zbekistondagi professional ta'lim bitiruvchilarining mehnat bozoridagi o'rni hamda ish beruchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki va ishtirokining ahamiyatiga bag'ishlangan. Nafaqat ish beruvchilar ishtiroki, balki professional ta'lim tizimidagi roli qay darajadaligi ochib berilgan. Shuningdek, professional ta'limda bitiruvchilarining mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilayotgan muammolar va ularning sabablari ham yoritib berilgan. Bundan tashqari, ish beruvchilarni ishtirokini ta'minlashga doir aniq tavsiyalar va ustuvor jihatlari haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: professional ta'lim, kasb standarti, professional ta'lim muassasalari, professional ta'lim dasturi, malaka talabi, o'quv reja, o'quv dasturi, ish beruvchi tashkilot, ish beruvchi, malakali kadr, raqobatbardosh kadr, modernizatsiya.

Аннотация: Статья посвящена роли выпускников профессионального образования Узбекистана на рынке труда и значимости участия и участия работодателей в образовательном процессе. Выявлено не только участие работодателей, но и степень их роли в системе профессионального образования. Также выделены проблемы и их причины, которые мешают выпускникам профессионального образования занять достойное место на рынке труда. Кроме того, обсуждаются конкретные рекомендации и приоритеты по обеспечению участия в трудоустройстве.

Ключевые слова: профессиональное образование, профессиональный стандарт, профессиональные образовательные учреждения, программа профессионального образования, квалификационные требования, учебная программа, учебная программа, организация-работодатель, работодатель, квалифицированный персонал, конкурентоспособный персонал, модернизация.

Annotation: The article is devoted to the role of graduates of vocational education in Uzbekistan in the labor market and the importance of participation and involvement of emploers in the educational process. Not only the participation of emploers is revealed, but also the extent of their role in the vocational education system. The problems and their causes that prevent graduates of vocational education from taking a worthy place in the labor market are also highlighted. In addition, there are specific recommendations and priorities regarding participation in employment.

Keywords: vocational education, professional standard, vocational educational institutions, vocational education program, qualification requirements, curriculum, curriculum (training program), emploer organization, emploer, competitive personnel, modernization.

Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuksak salohiyatli, bilimli, malakali, mas'uliyatli, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish har qachongidan dolzarb masalaga aylangan. Har qanday davlatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuksak malakali kadrlar muhim o'rin tutishi hech kimga sir emas, albatta. Ma'lumki, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Profession-

al ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmonida O'zbekiston Milliy kvalifikatsiyasi tizimi to'laqonli joriy etilmaganligi, tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozorida munosib o'rin egallashlariga to'sqinlik qilayotganligi qayd qilingan. Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida davlatimiz rahbarining tegishli farmoni bilan 2020-2021 o'quv yilidan boshlab respublikamizda Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Hozirgi kunda professional ta'lim tizimi, umuman olganda, kasbga o'rgatish mazmunini modernizatsiyalash jarayoni jadal tarzda olib borilmoqda. Misol tariqasida, davlatimiz rahbarining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ 4884-son qarori asosida professional ta'limning ta'lim dasturlari va o'qitish materiallari to'plamlarini mehnat bozorining talablari, tarmoq malaka ramkalari va professional standartlar asosida ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqilmoqda va tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda. Professional ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning metodik ta'minotini mustahkamlash, ularni yangi ta'lim resurslari bilan ta'minlab borish imkoniyatini beradigan va ta'lim dasturlari, o'qitish materiallari hamda boshqa uslubiy qo'llanmalardan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini yaratadigan alohida elektron platforma ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, professional ta'lim tizimida kechki va sirtqi ta'lim shakllari shuningdek, dual ta'lim shakli ham joriy qilingan. Albatta, bundan ko'zlangan asosiy maqsad ish beruvchilar bilan oson til topishish va ularning talab va takliflariga mos ravishda ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish.

Yangi professional ta'lim tizimi isloh qilinib, tizimda modernizatsiyalash jarayoni olib borilayotgan bo'lsa-da, bitiruvchilarning mahalliy mehnat bozorida ish bilan ta'minlanganlik darajasi yoki ularning ish bilan bandlik darajasini to'liq qamrab olingan deb aytib bo'lmaydi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ish beruvchilar ta'lim jarayoniga o'zlarining qiziqishlari, talab va takliflari bilan real ishtirok etmayotganini aytish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, professional ta'lim jarayonidagi roli sust yoki shunchaki rasmiyatchilik uchun faoliyat olib boradigan ish beruvchilar ham mavjud. Misol tariqasida professional ta'lim tizimida malaka talablari, namunaviy o'quv reja va namunaviy o'quv dasturlari ish beruvchining talab va takliflari asosida har yili yangi o'quv yiliga qadar takomillashtirib borilishi kerak. Lekin shunga qaramay, ba'zi kasb va mutaxassisliklar ta'lim dasturlarining mazmunini tahlil qilinsa, bu kabi dasturlarda xalqaro mehnat bozori talablari tugul mahalliy mehnat bozori talablarini ham o'zida aks ettirmaganini uchratish mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, bugungi ba'zi ish beruvchi korxonalarimiz hukumat qarorlarida ularga tegishli bo'lgan topshiriqlar bo'lganligi uchungina qog'ozlarda ishtirok etishadi xolos. Aslini olganda professional ta'limda malakali kadrlar tayyorlashni ish beruvchilar ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Professional ta'limdagi har qanday ta'lim dasturini yaratishda yoki mavjudlarini takomillashtirishda, umuman olganda, ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashda ish beruvchining ishtiroki juda muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Chunki professional ta'lim dasturlarida ish beruvchining real ehtiyojlari aks ettirilgan bo'lishi shart. Xususan professional ta'lim malaka talablarida ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarning quyi chegarasini belgilash yoki namunaviy

ISSN 2181-3841

o'quv dasturlaridagi mavzular to'plami ishlab chiqarish korxonalaridagi mavjud texnika texnologiyalarni o'zida aks ettirishi ham aynan ish beruvchilarning ishtirokida amalga oshiriladigan jarayon hisoblanadi.

Shu bois ham hukumatimizning bir nechta qarorlarida ish beruvchilarning ta'lim jarayoniga doir bir qator vazifalar aniq qilib ko'rsatilgan. Jumladan:

- professional ta'lim bu ish beruvchilarning takliflari asosida shaxslarning ta'lim olishiga mo'ljallanganligi;

- ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ish beruvchi tashkilotlarning takliflariga asosan amalga oshirilishi;

- professional ta'lim muassasalarida o'quvchilar, rahbar kadrlar, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari hamda ish beruvchilar ta'lim jarayoni ishtirokchilari ekanligi;

- professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining korxonalarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, ish beruvchilarning o'quv jarayoniga, kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqishga jalb etilishi;

- ish beruvchilar bilan birga ishlab chiqarish uchastkalari, qo'shma va unitar korxonalar tashkil etish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning dual tizimini rivojlantirish va boshqa shu kabi bir nechta vazifalar to'g'ridan to'g'ri faqatgina ish beruvchilar bilan birga amalga oshirilishi nazarda tutib o'tilgan.

O'z navbatida, professional ta'lim tashkilotlari ham ish beruvchilar uchun shu kabi tegishli vazifalari belgilab qo'yilgan hujjatlar yordamidagina ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'ya oladilar. Boshqacha qilib aytganda, ish beruvchi malakali kadrlar qanday tayyorlanishiga biroz befarq. Ya'ni ish beruvchi o'z qiziqishlari, takliflari bilan ta'lim jarayonida ishtirok etmasligi oqibatida professional ta'lim tashkilotlari ularning talab va ehtiyojlaridan bexabar tarzda ta'lim jarayonini tashkil etishga majbur bo'ladilar. Ish beruvchilar odatda, professional ta'lim tashkilotlaridan tayyor, malakali, raqobatbardosh, sifatli va shu bilan birga korxonadagi barcha zamonaviy yangi texnika, uskuna va jihozlardan samarali foydalana oladigan kadr xohlaydilar. Vaholanki, malakali kadrlarni ish beruvchilar ishtirokisiz tayyorlab berish mushkul vazifa sanaladi va buning iloji ham yo'q aslida.

Bugungi kunda ish beruvchilarning professional ta'lim jarayonida ishonchli hamkor bo'lishlariga sabab bo'ladigan muammolar:

1. Malaka talablari kasb standartlari asosida ishlab chiqilmoqda, lekin ish beruvchilarning talablari bilan har doim ham mos kelmaydi.

2. Ish beruvchilarning professional ta'limda kadr tayyorlashda teng vakolatli ekanligini asoslaydigan mexanizm mavjud emas. Ya'ni ba'zi ish beruvchi tashkilotlar normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni mavsumiy topshiriq sifatida qaraydi. Ularning fikricha, malakali kadrlar tayyorlash faqat ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

3. Ish beruvchilarga professional ta'lim jarayonidagi ishtiroki uchun ularni qanoatlantiradigan rag'batlantirish yoki imtiyozlar mavjud emas.

4. Malakali kadrlarni qanoatlantiradigan oylik maosh to'laydigan (malakaga ega bo'lmagan kadrlar uchun ham) bo'sh ish o'rinlari yetishmaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarning yechimini quyidagicha bayon etish mumkin.

Birinchidan, bugungi kunda ilm-fan va texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishi faqatgina ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalarni yangilash bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy kasblarda mehnat funksiyalari va harakatlarini ham hozirgi mehnat bozori talablariga mos ravishda yangilab borish (ishlab chiqish)ni talab etmoqda. Bu esa o'z-o'zidan kasb standartlarini har yili yoki zarur holatlarda, ehtiyoj sezilganda ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab etadi. Eskirgan kasb standartlari asosida professional ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali ish beruvchilar

talablarini qanoatlantiradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning imkoni yo'q. Qisqa qilib aytganda, kasb standartlarini mehnat bozorining eng yangi talablari bilan uyg'unlashtirgan holda mutlaqo yangilab chiqish lozim.

Ikkinchidan, bugungi kunda, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida, shuningdek, ishlab chiqarish sohasida malakali kadrlarning ko'pchilik qismi ishlab chiqarish korxonalari ichida tashkil topgan kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida tayyorlanmoqda deyish mumkin. Ya'ni mamlakatimizdagi ko'pgina yirik ish beruvchi korxonalar negizida kadrlarni o'qitish va malakasini oshirib boradigan o'quv markazlari tashkil etilgan. Bu kabi o'quv markazlari mavjud bo'lgan korxonalar har bir kasb yoki mutaxassislikka doir yo'riqnoma va hatto ta'lim dasturlarini ishlab chiqarish korxonalarining ehtiyojidan kelib chiqib o'zlari ishlab chiqadi hamda kadrlarini o'qitib, qayta tayyorlab, malakasini oshirib boradi. Masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK AJ), Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK AJ), O'zmetkombinat kabi yirik korxonalar tasarrufida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv markazlari faoliyat yuritadi va bu o'quv markazlari aynan shu yirik korxonalardagi malakali kadrlarga bo'lgan real ehtiyojni samarali tarzda qanoatlantirib kelmoqda. Birgina OKMK AJni misol qilib oladigan bo'lsak, kombinatning asosiy boyligi bu odamlardir, ya'ni kadrlar salohiyati. OKMK o'zining kadrlar siyosatini amalga oshirish borasida yuksak tajribaga ega hisoblanadi. Kombinat o'zining kadrlar siyosatida harakatlantiruvchi kuch, xorijiy tajriba va bilimlar, hamda eng muhimi kadrlar tayyorlash uchun o'z maydonchasiga tayanadi.

Uchinchidan, Ish beruvchilarga professional ta'lim jarayonidagi ishtiroki uchun ularni qanoatlantiradigan rag'batlantirish yoki imtiyozlar haqida so'z ketganda, tan olish kerakki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, bu kabi davlatlar ham kasb-hunarga o'qitadigan ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ish yuritishi uchun ish beruvchi korxonalarga davlat tomonidan katta-katta imtiyozlar belgilanmaydi. Chunki rivojlangan maklakatlarda kadrga bo'lgan ehtiyoj yuqori va bu kabi imtiyozlarsiz ham ish beruvchilar ta'lim tashkilotlari bilan muntazam ravishda faoliyat olib borishga tayyor. Masalan, Germaniya, Koreya, Rossiya, Kanada va shu kabi iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar boshqa mamlakatlardan mehnat muhojirlarini kelib ishlashga jalb qiladi. Ya'ni bu kabi davlatlarda ish beruvchilarni kadrlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi bois ular ta'lim jarayoniga o'z qiziqishlari bilan ishtirok etadilar. Lekin shunga qaramay, O'zbekistonda ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashda rag'batlantirish va imtiyoz berishga doir bir qancha ijobiy fikrlar mavjud. Masalan, davlat va xususiy tashkilotlarga soliq qiymatini yumshatishga doir yengilliklar yaratish kabi. Biroq bugungi kunda ish beruvchilarni bu kabi imtiyozlar qanoatlantirmaydi. Sababi shuki, ularning korxonalarida ham ish o'rinlari cheklangan va bo'sh ish o'rni mavjud bo'lmagan korxonalarda kadrlarni ish bilan ta'minlashning iloji yo'q aslida. Birgina yo'li ish beruvchilarga bo'sh ish o'rinlarini yaratishga doir imkoniyatlar va bunga mos ravishda qo'shimcha imtiyozlar ajratilishi lozim. Masalan, bu kabi imtiyozlar evaziga korxona (ish beruvchi)lar faqat professional ta'lim tashkiloti bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashi belgilab qo'yilsagina ish beruvchilarning ta'limdagi roli yanada oshadi. Qisqa qilib aytganda, professional ta'limda kasbga o'rgatish mazmunini modernizatsiya qilish va bitiruvchilarning bandligini ta'minlashda ish beruvchi tashkilotlar ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlashdan manfaatdor bo'lishi kerak va bu kabi yondashuv joriy qilinsa, albatta ish beruvchi va professional ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi real hamkorlik jadallashuviga erishiladi.

To'rttinchidan, "Malakali kadrlarni qanoatlantiradigan oylik maosh to'laydigan (malakaga ega bo'lmagan kadrlar uchun ham) bo'sh ish o'rinlari" masalasiga kelsak, albatta tan olish kerak, bu kabi muammolarni hal etish biroz uzoq muddatni talab etadi. Bu ko'pgina rivojlangan mamlakatlar tarixi-

ISSN 2181-3841

da yuz bergan va bu o'tish davrini o'z ichiga oladi. Bizning mamlakatimiz ham aynan shu jarayonni boshdan kechirayotgani hech kimga sir emas.

Lekin shunga qaramay, ish beruvchi korxonalarimiz professional ta'lim jarayoniga o'z qiziqishlari bilan ishtirok etishdan to'xtamasalar, ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish korxonalarida sifatli amaliyot o'tashlarini ta'minlasalar malakali kadr tayyorlash natijasiga erishiladi.

Raqobatbardosh kadrlarni ish bilan ta'minlash masalasiga keladigan bo'lsak, ular mahalliy mehnat bozorida ish o'rniga ega bo'la olmagan taqdirda ham xalqaro mehnat bozorida o'zlarining munosib o'rinlarini egallash ehtimoli juda katta. Chunki malakali kadr mehnat bozorining asosiy tayanchi hisoblanadi xoh u mahalliy bo'lsin, xoh xalqaro.

Xulosa qilib aytganda, professional ta'limda kasbga o'rgatish mazmunini modernizatsiyalash va bitiruvchilarning bandligini ta'minlashda ish beruvchilarning real ehtiyojlari, qiziqishlari va ishtiroki, ularning talab va takliflari juda muhim masala hisoblanadi.

Bugun professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqboli, samara va natijasi ish beruvchi va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligiga, ishlab chiqarish va o'quv jarayonining uzviyligi, integratsiyasi, mukammal professional standart va sifatli ta'limga bog'liq. Ya'ni professional ta'lim tizimida raqobatbardosh kadr tayyorlash bevosita ish beruvchiga bog'liq. Umuman olganda, bu ta'lim tizimining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yaqin istiqboldagi taraqqiyotimiz jadallashuvini ham belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrdagi PQ-4939-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 7-avgustdagi 466-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yildagi 5-apreldagi 183-sonli qarori.

Internet manbalari:

1. https://www.fedlex.admin.ch/eli/cc/2003/674/en;
2. https://www.uzbeksteel.uz/about/394;
3. https://www.ngmk.uz/uz/home/pressa/1306-training-of-qualified-personnel-is-an-important-task.html;
4. https://agmk.uz/oz/auxiliary/uchebnyj-tsentr;
5. https://dunyo.news/uz/news/batafsil-kombinatning-asosiy-boyligi-odamlardir-okmk-uzining-kadrlar-siesatini-anday-amalga-oshirmoda-64c52a91c3106;
6. https://youtu.be/y-FAehq0Tc8;
7. https://yuz.uz/uz/news/professional-talim-tizimi-va-xalqaro-andozalar.

PROFESSIONAL TA'LIM XIZMATLARI – IQTISODIY RIVOJLANISH ASOSI SIFATIDA

Shadiyev Shavkat Zakirovich,
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada bugungi kunda har tomonlama rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan talab aholi tomonidan kundan kunga ortib borishi, insonlarning bu sohalarga nisbatan talablarining keskin oshishi, dunyoqarashlarining o'zgarishi natijasida professional ta'limga bo'lgan ehtiyoj ham ko'payib borayotganligi, professional ta'lim muassasalarida yetishib chiqayotgan turli sohadagi mutaxassislar o'z xizmatlari orqali aholiga xizmat ko'rsatishi, aholi ehtiyojlarini qondirgan holda iqtisodiy rivojlanish yo'lida qilinayotgan ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish tendensiyalari, iqtisodiy rivojlantirish, ta'lim xizmatlari, aholiga xizmat ko'rsatish.

Аннотация: В данной научной статье спрос на сферы производства и общественного обслуживания, который развивается во всех отношениях, увеличивается с каждым днем, спрос на профессиональное образование является следствием изменения мировоззрений, увеличения острых требований людей в этих сферах также резко увеличивается, специалисты различных областей, развивающиеся в профессиональных образовательных учреждениях, обслуживают население своими услугами, освещается работа, проводимая на пути экономического развития при удовлетворении потребностей населения.

Ключевые слова: кОказание услуг, производства, тенденций экономического развития, образовательных услуг населению.

Abstract: In this scientific state, the demand for the sphere of production and public service, which is developing in all respects, is increasing every day, the demand for professional education is due to changes in the worldview, the increase in the need for people in the ethical sphere is also increasing sharply, and specialists in various areas are developing in the professional field. Obrazovatelnyx uchrejdeniyax, obslujivayut naseleni svoimi uslugami, osveshchaetsya rabota, providomaya na puti ekonomicheskogo razvitiya pri udovletvorenii naseleniya.

Key words: Providing services, production, trends, economic development, educational services to the population.

KIRISH. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizda zamonaviy ta'lim tendensiyalari asosida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish orqali aholiga ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ishlab chiqarish va bandlikni ta'minlash yo'lida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak o'rta bo'g'in soha mutaxassislarining o'z kasb sohalari bo'yicha o'zini-o'zi band qilgan holda mehnat bozorida o'rnini topishi, kasb sohalari bo'yicha faoliyat yo'nalishlarini yaratishi orqali sohada raqobatbardosh malakali mutaxassislar tayyorlanayotganini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim xizmatlarini shakllantirish uni iqtisodiy rivojlantirish sari hissa qo'shishini tashkil qilish yo'lida bir qator chet el olimlarining professional ta'limda ta'lim xizmatlari iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarishni rivojlantirishi bo'yicha V.G.Karmanov, P.F.Anisimov, G.F.Tkach, V.Demina, S.Y.Batbishev, A.Suvorova, A.Belyayeva, T.Y.Lomakinalar bir qator tadqiqotlar olib borganlar.

ISSN 2181-3841

Mamlakatimizda professional ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning ta'lim xizmatlarini shakllantirish va iqtisodiy o'sishi masalalarini yurtimizdagi bir qator olimlari, xususan, R.X.Jo'rayev, O.A.Qo'ysinov, Q.Olimov, N.Muslimov, S.Ashurova, M.Urazovalar o'z tadqiqot ishlarida professional ta'lim xizmatlarini yanada takomillashtirish, ushbu sohani rivojlantirishdagi muammolarini tadqiq etishgan.

MUAMMO

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida barcha yoshlar, shu qatori o'rta bo'g'in soha vakillariga o'z sohalari kesimida o'zini-o'zi band qilgan holda iqtisodiy rivojlanish yo'lida o'z hissalarini qo'shishliklari uchun bir qator imtiyozlar yaratilmoqda. Biroq hozirda bu tartibdagi imtiyozlardan ba'zi yoshlarimiz, shu qatori o'rta bo'g'in kasb soha vakillari to'liq foydalanisha olmayotganligi va joylarda bu tartibdagi imtiyozlar mavjud ekanligini professional ta'lim muassalari o'qituvchilari tomonidan uzluksiz ravishda targ'ib qilinmayotganligi uchun bunday imkoniyatlardan yoshlarimiz bebahra qolishmoqda.

MUHOKAMA

Aniq statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizning mehnat resurslari soni 19,5 million kishini tashkil etmoqda. Qayd etilishicha, band aholi soni 13,8 million kishi, bandlik darajasi esa 68,0 foiz, ishsizlar soni 1,3 million kishi, ishsizlik darajasi 8,6 foizga to'g'ri keladi. Aholiga xizmat ko'rsatish esa aholi bandligini ta'minlashda eng katta zaxiralardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda bu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 36,3 foizni, sohada band bo'lganlar soni esa 50,1 foizni tashkil etadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aholining eng ko'p talab doirasida ehtiyoji nisbatiga ko'ra hozirgi kunda ta'lim xizmatlari, aholiga xizmat ko'rsatish (tikuvchilik, etikdo'zlik, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, o'ymakorlik, asalarichilik, muhandislik, suv montaj ishlari, ishlab chiqarish, aholiga mahsulot yetkazib berish va h.k) kabi sohalarga kundan kunga aholi tomonidan talab kuchayib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Bu sohalarni rivojlantirish uchun esa yangicha, ilg'or davlatlar misolida ish olib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamizda sohalar kesimida ish o'rinlari yaratish bo'yicha katta-katta imkoniyatlar borligini hisobga olsak, bu hali juda past ko'rsatkich desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuni aytish joizki, rivojlangan davlatlarda iqtisodiyot sohalarning jadal o'sishi, rivojlanishiga asosiy sabablardan biri ularda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, kichik biznes va tadbirkorlikning yo'lga qo'yilishi, shu bilan birga aholiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarning jadal rivojlanganligi natijasidir. Shu sababli rivojlangan davlatlar o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim yo'nalishlari bo'yicha asosan professional ta'lim tizimida tahsil olishlarini afzal deb bilishadi. Xususan, iqtisodiy barqaror davlatlarda o'quvchilarning 75 foizigacha kasbiy ta'lim bilan qamrab olingan.

Bu borada mamlakatimizda ham bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. Shu bois, davlatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda professional ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Soha mehnat bozori talablari asosida rivojlantirib borilmoqda. Professional ta'lim mutaxassislari asosan ikki yo'nalishda – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi kasb-hunar maktablari va texnikumlar hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga qarashli monomarkazlarda tayyorlanmoqda. Yurtimizda bugungi kunda 700 dan ortiq professional ta'lim muassasasida 714 ta kasb va mutaxassislik hamda 20 ta "Ishga marhamat" monomarkazida aholiga 54 ta kasb va 6 ta xorijiy til o'rgatilayotganligi quvonarli hol, albatta. O'quvchilarga bir vaqtning o'zida ham o'qish, ham ishlab daromad topish imkonini beradigan "dual ta'lim" shakli joriy etilgani esa har jihatdan yuqori natija berayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu tizim samarasida 2 ming korxona bilan birga-

likda 6 ming yigit-qiz o'qitilmoqda.

Shuningdek, yoshlarga 9-sinfdan keyin kasb-hunar maktabi, 11-sinfdan esa kollej va texnikumda turli mutaxassisliklar asosida o'qib tahsil olish imkoniyatlari mavjuddir. "Hozirgi kunda to'qimachilik, konchilik, elektrotexnika, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va servis, qurilish, tadbirkorlik sohalarida katta-katta o'zgarishlar qilayapmiz. Misol uchun, 2022-yilning o'zida 16 milliard dollarlik 9 mingdan ziyod yirik va o'rta loyihalar ishga

tushirilib, ularga 300 mingga yaqin malakali ishchilar kerak bo'ladi. Kambag'allikni 2 baravarga qisqartirish bo'yicha marralarga ham odamlarga faqat va faqat zamonaviy kasblar berish orqali erisha olamiz", degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 15-iyun kuni o'tkazilgan yig'ilishda. Mamlakatimizda mavjud o'rta maxsus

1-jadval: Respublikadagi Professional ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi o'quvchilarning sohalar kesimidagi tahlili.

ISSN 2181-3841

o'quv muassasalarining faoliyati yanada qo'llab-quvvatlanayotgani, pedagog va ishlab chiqarish ustalari uchun munosib sharoit yaratilgani, ularning kasbiy mahoratini oshirib boradigan tizim tashkil qilingani hisobiga bugun malakali o'rta bo'g'in mutaxassislari tayyorlanmoqda.

Mamlakatimizda hozirgi kun hayotimizda aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda ularning farovon hayot kechirishi yo'lida quyidagi kasb mutaxassislariga bo'lgan talablar ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Respublikamiz professional ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilarni sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin: o'quvchilarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarish-texnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha hamda iqtisod va huquq bo'yicha, 5,9 foizi qishloq va suv xo'jaligi, 13,5 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot, 3,2 foizi xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha tahsil olmoqdalar.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda aholining xizmat ko'rsatishga talabi ortib borayotgan bir davrda professional ta'limning xizmat ko'rsatish sohasidagi ulushi juda kamdir. Shuning uchun o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda ko'proq aholining talab va istaklarini hisobga olish yuqori samara beradi. Bu borada o'rta maxsus o'quv muassasalari mutasaddilari mehnat bozoriga malakali va sifatli kadrlar tayyorlashni reja qilar ekan, eng avvalo, aholi o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish, yoshlarning qobiliyat va kasb-hunarga qiziqishlarini inobatga olib qabul kvotalarini tasdiqlashlari zarur deb hisoblayman.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish sohalari iqtisodiyotning drayveri hisoblanadi. Ushbu sohalarda mehnat qilayotgan kadrlar professional tarzda sohaga yondashishi iqtisodiy rivojlanishga sabab bo'ladi. Biroq aksariyat xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish tarmoqlarida shu yo'nalishda tahsil olmagan va ilg'or xorijiy tajribani o'zlashtirmagan kadrlar xizmat qilib kelishi soha rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida barcha yoshlar, shu qatori o'rta bo'g'in soha vakillariga o'z sohalari kesimida o'zini-o'zi band qilgan holda iqtisodiy rivojlanish yo'lida o'z hissalarini qo'shishlari uchun bir qator imtiyozlar yaratilmoqda.

Biroq hozir bu tartibdagi imtiyozlardan ba'zi yoshlarimiz shu qatori o'rta bo'g'in kasb soha vakillari to'liq foydalanisha olmayotganligi va joylarda bu tartibdagi imtiyozlar mavjud ekanligi professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan uzluksiz ravishda targ'ib qilinmayotganligi uchun bunday imkoniyatlardan yoshlarimiz bebahra qolishmoqda.

Ushbu targ'ibot ishlarini amaliyotga ko'proq joriy qilish professional ta'lim muassasalarida yuqori intellektual salohiyatli, yuksak axloqiy sifat va fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Internet nashri: https://daryo.uz/2022/06/15/shavkat-mirziyoyev-orta-maxsus-talim-tizimini-tanqid-qildi
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005);
3. Internet nashri: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ozbekiston-hukmdorlari/nu-ibn-asad;/
4. Internet nashri: https://mehnat.uz/oz/news/kasb-hunarga-oqitish-tizimi-boyicha-takliflar-korib-chiqildi;
5. https://cyberleninka.ru/article/n/kadrlar-tayyorlash-tizimi-va-mehnat-bozorining_iqtisodiy_aloqalarini

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Shomirzayev Baxtiyor Nazarovich,
Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi 2-son kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus fanlarni o'qitishning noan'anaviy usullariga o'tishni amalga oshirish, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, ta'lim jarayonida kompyuter dasturlarining afzalliklari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv mashg'ulotlarida qo'llashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resursi, darslik, o'quv qo'llanma, dasturiy ta'minot, taqdimot.

Аннотация: В данной статье описаны переход к нетрадиционным методам преподавания специальных предметов, использование электронных образовательных ресурсов, преимущества компьютерных программ в образовательном процессе, а также теоретические и практические основы использования информационно-коммуникационных технологий в образовательной деятельности.

Ключевые слова: Информационные и коммуникационные технологии, ресурс электронного обучения, учебник, учебное пособие, программное обеспечение, презентация.

Annotation: This article describes the transition to non-traditional methods of teaching special subjects, the use of electronic educational resources, the advantages of computer programs in the educational process, as well as the theoretical and practical basis for the use of information and communication technologies in educational activities.

Key words: Information and communication technologies, e-learning resource, textbook, study guide, software, presentation.

Kirish. Professional ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalarning tatbiq etilishi ta'lim sifatini oshirishni tashkil etishning shakli va mazmunida ulkan o'zgarishlar kiritmoqda. Bugungi kunda o'qitish samaradorligini oshirishda, an'anaviy bosma darsliklar bilan bir qatorda, zamonaviy yangi avlod elektron o'quv adabiyotlari: multimediali (ko'p axborotli) elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matnlari, elektron dasturlar, dayjest, ma'lumotlar banki va boshqalar alohida muhim o'rin egallaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslarini joriy etish jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda ta'lim tizimida u yoki bu tarzda elektron nashrlar yoki manbalardan foydalanilmaydigan fanni uchratib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ko'pchilik fanlami o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi ta'lim sohasida qo'llaniladigan tegishli dasturiy ta'minot va elektron resurslar mazmunini ishlab chiqish bilan bog'liq muammolar majmuasini keltirib chiqarmoqda. So'nggi bir necha yil davomida olib borilgan tadqiqotlar bunday o'quv vositalarini ishlab chiqish va qo'llash nazariyasi uchun asos bo'ldi.

Asosiy qism.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalana olishi hamda elektron ta'lim resurslarini yarata olishi kerak. Elektron ta'lim resurslarining tuzilishi, interfeysi va vizual taqdimotini

rivojlantirishga yondashuvlar takomillashtirishni talab qiladi, chunki axborot arxitekturasining mohiyatini tashkil etuvchi tegishli xususiyatlar o'quvchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda professional ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash o'qitishning yangi usullarini talab qilmoqda. Professional ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim, ko'nikmalarni balki shaxsiy va kasbiy malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

O'quv jarayonida har bir o'quvchi yangi mavzuni o'rganishi zarur, chunki fanni o'qitishda mavzular bir-biriga bog'liq, albatta. Bu holda yangi materialni o'qitish ta'lim beruvchidan mahorat talab qiladi.

Buning uchun ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish zamonaviy ya'ni bugungi kun o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Biz an'anaviy usullardan noan'anaviy usullarga o'tishimiz zarur. Shu bois, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, kasb-hunar egallayotgan o'quvchilarga o'z sohalari bo'yicha o'zini-o'zi band qilgan holda respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishida o'z hissalarini qo'shishlari uchun bir qator imtiyozlar yaratilmoqda.

Ammo bugungi kunda ushbu imtiyozlardan ba'zi yoshlarimiz to'liq foydalana olmayotganligi va joylarda bu tartibdagi imtiyozlar mavjud ekanligi professional ta'lim muassasalari o'qituvchi va muhandis-pedagoglari tomonidan uzluksiz ravishda targ'ib qilinmayotganligi sababli kasb sirlarini, zamonaviy texnologiyalarni to'liq o'rganishdan chetda qolishmoqda.

Maxsus fanlarni o'qitishda noan'anaviy o'qitish usullaridan foydalanish uchun o'qituvchi quyidagilarni bilishi kerak:

- didaktik materialni ishlab chiqish va yaratish uchun har xil turdagi ma'lumotlarni (matn, raqamli, grafik va audio) qayta ishlash;
- turli muharrirlar yordamida berilgan mavzu bo'yicha slaydlar yaratish;
- maxsus fanlar uchun mavjud tayyor dasturiy mahsulotlardan foydalanish;
- mustaqil ravishda fan bo'yicha testlarni ishlab chiqish va kompyuter testini o'tkazish.

Maxsus fanlarni o'qitishda kompyuter o'qitish vositalari, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning rivojlanish darajalari ilmiy asoslangan usullarga tayanadi. Ular bilan ishlashda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish kompensatsiya mexanizmlarini faollashtirish imkonini beradi.

Mavjud ishlab chiqilayotgan va nazariy jihatdan asoslangan dasturiy mahsulotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, asosiy yo'nalishlarni quyidagicha aniqlash mumkin:

1) Kompyuter diagnostika vositasi bo'lib, bunda:

- **ekspert tizimlari va diagnostika;**
- **turli mutaxassislar tomonidan o'quvchilarni erta tashxislash va tekshirish;**
- **o'quvchining rivojlanishiga o'qitishning ta'sirini aniqlash;**
- **rivojlanish dasturlari, bilim va tadqiqot faoliyati;**
- **foydalanuvchi asoslarini va maxsus dasturlarni o'zlashtirishlari tashxislanadi;**

2) Tashqi dunyo o'z ehtiyojlari uchun ma'lumot olish (internet va telekommunikatsiya texnologiyalari), rivojlanish va o'rganish hamda ijtimoiy foydalilikka erishish uchun;

3) Axborot texnologiyalari zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning noyob imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan yangi, kam o'rganilgan texnologik ta'lim imkoniyatlarini ochadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kompyuter dasturlari an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega. Ushbu afzalliklarni qarab chiqaylik:

- ***yuqori axborot sig'imi-bu axborot modelini turli kontekst (og'zaki yoki yozma nutq (matn)ning nisbatan tugal qismi) va kommunikativ (fikr almashuvga oid) vaziyatlarda taqdim etish imkonini beradi;***

- ***har bir o'quvchining mustaqil ishini faollashtirish - ularning faoliyati, bilish harakatlari faollashadi;***
- ***har bir o'quvchi uchun shaxsan ahamiyatli bo'lgan kommunikativ vaziyatni yaratish – o'quvchi uchun qiyin faoliyatni rag'batlantirish;***
- ***qulay psixologik muhitni yaratish – turli til modellarini o'zlashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilmalar;***
- ***yuqori sifatli individuallashtirish (shu jumladan, guruh mashg'ulotlari doirasida), bu individual sur'at va takrorlashlar sonidan iborat;***
- ***bevosita kuzatishdan yashiringan jarayonlar va naqshlarni tasavvur qilish qobiliyati;***
- ***ta'limning mahsuldor faoliyat turlari bilan to'yinganligi: taqqoslash, tasniflash, loyihalash, prognozlash, maxsus ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, bunda – o'quvchilarni yangi faoliyat vositalaridan foydalanishga o'rgatish.***

Bugungi kunda o'qituvchilar maxsus fanlarni o'qitishlari uchun elektron ta'lim resurslari (elektron o'quv qo'llanmalari) yaratishlari lozim. Chunki, elektron ta'lim resurslari zamonaviy yoshlar, jumladan nazariya va amaliyot uchun juda yaxshi va qulaydir.

Elektron ta'lim resurslarini tayyorlash jarayonida o'qituvchi birinchi navbatda o'zining kasbiy saviyasini oshiradi. O'quvchilarning axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda har bir darsni integral deb atash mumkin, chunki informatika va maxsus fanlar darslari o'rtasida bog'liqlik mavjud.

Maxsus fanlar darslarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchilar faoliyatini tez o'zgartirishiga imkon beradi, o'quv materiali tushunarli bo'ladi va kognitiv faollik yanada faollashadi.

Elektron ta'lim resursi – elektron raqamli shaklda taqdim etilgan va tuzilishi, fan mazmuni va ular haqidagi barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ta'lim resursi hisoblanadi.

Elektron ta'lim resurslarini tayyorlashdan maqsad: o'quv jarayoni sifatini oshirish, o'qituvchi mehnatini yengillashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun keng yo'l ochib berish.

Shularni e'tiborga olgan holda professional ta'lim tizimida elektron ta'lim resurslari yaratishga kirishildi. Bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchi, muhandis-pedagoglar qatnashishi nazarda tutilgan.

Elektron ta'lim resursi o'quv jarayonida foydalanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, dasturiy ta'minotni o'z ichiga olishi mumkin. Tajriba jarayonida o'quvchilarining darslarni mustahkamlash bosqichida o'tilgan mavzu bo'yicha kompyuter testini o'tkazamiz, bunda o'quv materialini kim o'rgangan va kim o'zlashtirmaganligi haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Elektron ta'lim resurslarini yaratishda diagrammalar yordamida barcha fikrlash doirasidan foydalangan holda nazariy materialni taqdim etishda mantiqning izchilligiga rioya qilish kerak bo'ladi.

Bunda vazifalarni belgilashda aniqlik, topshiriqlarni bajarish misollari bo'yicha batafsil sharhlar, o'quv jarayonida o'quvchilarning bilim faolligini oshirishning turli usullari va vositalaridan foydalanish (muammoli vaziyatlar, tadqiqot, o'yinlar, krossvordlar yechish).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qaroriga muvofiq ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, professional ta'lim muassasalari boshqaruv va pedagog kadrlarini metodik ta'minlashni yaxshilash, ta'limni raqamlashtirish, axborot tizimlari hamda elektron ta'lim resurslarini (kontent) yaratish, pedagoglar tomonidan yaratilgan va o'quv jarayonida keng qo'llanilayotgan sifatli raqamli ta'lim resurslarini ommalashtirish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 26-iyuldagi 329–sonli

ISSN 2181-3841

buyrug'iga asosan "Professional ta'lim tizimida "Eng yaxshi raqamli ta'lim resurslari" Respublika ko'rik-tanlovi tashkil etildi.

Ushbu tanlov natijalariga ko'ra respublikamizning turli hududlaridagi muhandis-pedagoglar tomonidan maxsus fanlar bo'yicha bir nechta elektron ta'lim resurslari yaratildi. Jumladan, ushbu tanlovga "Media va axborot savodxonligi" fani bo'yicha tayyorlagan elektron ta'lim resursini taqdim etdim va bugungi kunda ta'lim jarayonida foydalanib kelmoqdaman. Elektron ta'lim resursi o'quvchilar bilimlarini nazorat savollari va test orqali nazorat qilishni nazarda tutadi, ya'ni, darsni mustahkamlashda va dars yakunida o'quvchilar kompyuterda sinovdan o'tkaziladi. Bunda ko'p vaqt va mehnat talab etilmaydi.

Ushbu elektron ta'lim resursi "Raqami axborotlarni qayta ishlash ustasi" mutaxassisligi uchun tayyorlangan bo'lib, bugungi kunda media va axborot savodxonligi bo'yicha media va uning tarixi, media va axborot savodxonligi, uning jamiyat hayotidagi o'rni, media va axborot savodxonligi tushunchasi, jamiyatda media va axborot savodxonligi, media va axborot tili, media matnlarni yaratish, an'anaviy mediadan zamonaviy media sari, medianing funksiyalari kabi mavzular bo'yicha ma'ruzalar, glossariy, test savollari, taqimot materiallari, giperhavolalar, video va audio fayllarni o'z ichiga oladi.

Elektron ta'lim resursi ustida ishlash darsning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin – bu elektron ta'lim resursini ishlab chiqish va ulardan foydalanishning mohiyatidir. Unda quyidagilar amalga oshirilishi mumkin:

- **uy vazifasini tekshirish shakli sifatida;**
- **muammoli vaziyatni yaratish usuli sifatida;**
- **yangi materialni tushuntirish usuli sifatida;**
- **o'rganilgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash shakli sifatida;**
- **dars davomida bilimlarni tekshirish usuli sifatida.**

Elektron ta'lim resursidan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- **barcha materiallar turli usullarda taqdim etiladi – agar darslikda faqat matn va rasmlar mavjud bo'lsa, elektron darslikda videokliplar, diagrammalar, audio – matnlar ham mavjud;**
- **aniqlik prinsipi to'liq qo'llaniladi;**
- **hamma narsa batafsil ko'rsatmalar va yozuvlar bilan bo'limda ko'rsatilgan;**
- **test savollari – o'quvchi darhol javob berishi va bilimini tekshirishi mumkin;**
- **matn qisqa va sodda tarzda yoziladi, asosiy fikrlar rang bilan ta'kidlanadi, bu miya o'ng yarim sharini faollashtiradi va mavzuni tushunishni osonlashtiradi;**
- **bundan tashqari, yaxshiroq yodlash uchun video fragmentni bir necha marta takrorlash va tinglash mumkin.**

Elektron ta'lim resursi bizga katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash imkonini beradi. Barcha holatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insonning tashqi dunyo bilan muloqotida sezilarli o'zgarishlar kiritadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanadi, balki eng qimmatli ta'lim resurslarini tanlash, baholash va qo'llash, shuningdek, o'z resurslarini yaratishni ham o'rganadi.

Elektron ta'lim resurslari o'qituvchining o'zi tomonidan yaratilgan va boshqa joydan olinmaganda foydali bo'ladi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zingiz qayta ishlaganingizda, siz asosiy va eng muhim narsalarni tanlaysiz va barcha material, har bir jumla ustida ishlaysiz.

Yaratilgan elektron ta'lim resurslarining ilmiylik va taqdimot sifati o'quv dasturiga mosligi, mavzu bayoni, glossariy, manba tuzilishi, taqdimot va dizayn, illyustratsiya muammolarga ta'sirchanligi kabi mezonlarga javob berishi lozim.

Ta'limning zamonaviy davri axborot texnologiyalarining o'qitish va tarbiya usullarini takomillashtirish imkoniyatlarini amalga oshirishni o'z ichiga olgan axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi. Ta'limni axborotlashtirish o'qituvchilardan professional kompetensiyaga ega bo'lishni talab qiladi, bu

birinchi navbatda, o'quvchilar uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim va o'qitish vositalaridan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Har bir o'qituvchi bittadan fanga elektron ta'lim resursini tayyorlasa, o'zaro bir-birlari bilan fikr almashib turilsa, zamonaviy raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadiga erishgan bo'lamiz.

Elektron ta'lim resursi orqali o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim muassasasi yoki ta'lim tizimining faoliyatiga baho berish mumkin bo'ladi. Ushbu ma'lumotni olganidan so'ng o'qituvchilar har bir o'quvchining yutuqlari, shuningdek, guruhning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'qitish shakllari, usullari va metodlarini o'zgartirib borishlari mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'rganilayotgan fanni yangi va qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitib borish zarur. Fan mazmunini zamonaviy yutuqlar bilan yangilab, o'zgartirib borish, shuningdek, o'quvchilarga eng oxirgi axborotni olish imkonini berishi uchun tez yangilash imkonini beradigan texnologiyalar qulaydir.

Umuman, an'anaviy o'qitish juda qimmat bo'ladi, ko'p vaqt talab etadi va natijasi farqlanadi. Elektron ta'lim resurslari orqali o'qitish tez bo'ladi, anchagina arzon va potensial tarzda yaxshi bo'lgan alternativani taklif etadi.

Shunday qilib, ushbu maqola maxsus fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish elektron ta'lim resurslari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Elektron ta'lim resurslari tarkibiga o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Internet nashri: https://daryo.uz/2022/06/15/shavkat-mirziyoyev-orta-maxsus-talim-tizimini-tanqid-qildi.
2. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.
3. Internet nashri: https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ozbekiston-hukmdorlari/nu-ibn-asad.
4. Internet nashri: https://mehnat.uz/oz/news/kasb-hunarga-oqitish-tizimi-boyicha-takliflar-korib-chiqildi.
5. https://cyberleninka.ru/article/n/kadrlar-tayyorlash-tizimi-va-mehnat-bozorining_iqtisodiy_aloqalarini.

ISSN 2181-3841

SUN'IY INTELLEKTNING PROFESSIONAL TA'LIMDAGI ROLI

Jo'raqulova Gulxayo Rizo qizi,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti Raqamli ta'lim texnologiyalari boshqarmasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Professional ta'limni modernizatsiya qilish va ta'lim jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishda sun'iy intellekt (SI) muhim rol o'ynaydi. Sun'iy intellektni professional ta'limda keng qo'llash ta'lim sifatini yaxshilash, o'qitish jarayonini yanada samarali qilish va o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatlari berilgan va jahon tajribasidan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, professional ta'lim, individuallashtirish, virtual, dual ta'lim, jahon tajribasi, o'qitish metodlari.

Аннотация: Искусственный интеллект (ИИ) играет важную роль в модернизации профессионального образования и адаптации образовательного процесса к индивидуальным потребностям. Широкое применение искусственного интеллекта в профессиональном образовании дает возможность улучшить качество образования, сделать процесс обучения более эффективным и углубить знания учащихся, приводятся примеры из мирового опыта.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, профессиональное обучение, индивидуализация, виртуальное, двойное обучение, мировой опыт, методы обучения.

Annotation: In the article, professional Artificial Intelligence (AI) plays an important role in the modernization of professional education and adaptation of the educational process to individual needs. Wide use of artificial intelligence in professional education provides opportunities for improving the quality of education, making the teaching process more effective and deepening the knowledge of students, and examples from the world experience are given.

Key words: Artificial intelligence, professional education, individualization, virtual, dual education, world experience, teaching methods.

KIRISH. Sun'iy intellekt (SI) yordamida o'qituvchilar va muassasalar o'quvchilarning bilim darajasini chuqur tahlil qilib, ularga kerakli bilim va ko'nikmalarni moslashtirilgan shaklda yetkazib bera oladi. Masalan, shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlari va interaktiv murabbiylar o'quvchilarni kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologi-

Adabiyotlar tahlili:

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson. Ushbu manbada sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni, shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlari va SI vositalari orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari keng ko'rib chiqilgan.

2. Olaye, D. (2021). SI in Education: Applications and Challenges. Springer. Ushbu kitobda ta'limda SI texnologiyalarining qo'llanishi, shaxsiylashtirilgan o'qitish tizimlari, AI yordamida o'quv jarayonlarini boshqarish va avtomatlashtirish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

3. Holmes, W., & Porayska-Pomsta, K. (2019). Artificial Intelligence and Education: Promise and Implications for Teaching and Learning. UNESCO tomonidan nashr etilgan bu tadqiqot sun'iy intellektning ta'limdagi joriy tendensiyalari, texnologiyaning imkoniyatlari va cheklovlari hamda kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari haqida ma'lumot beradi.

4. Miao, F., Holmes, W., Huang, R., & Zhang, H. (2021). AI and Education: Guidance for Policy Makers. UNESCO. Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi SI siyosatlari, texnologik taraqqiyot va uni professional ta'limda qo'llashning afzalliklari haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

yalari masofaviy ta'lim va raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ta'limni raqamlashtirish orqali resurslarga global miqyosda kirishni kengaytiradi, ayniqsa, moslashuvchan ta'lim tizimlarida ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

Sun'iy intellekt (SI) professional ta'limda muhim o'rinni egallaydi va uning integratsiyasi bir qancha yo'nalishlarda sezilarli o'zgarishlar keltirib chiqaradi.

Bu o'zgarishlar ta'lim sifatini oshirish, o'qitish jarayonlarini avtomatlashtirish va mehnat bozoriga talab qilinadigan ko'nikmalarni aniq belgilash orqali amalga oshiriladi.

Quyida sun'iy intellektning professional ta'limdagi asosiy o'rinlari va roli haqida ma'lumot keltiriladi:

1. Individuallashtirilgan o'qitish: SI yordamida har bir talaba uchun individual o'quv rejasi ishlab chiqiladi. O'quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'zlashtirish darajasiga qarab moslashtirilgan darslar, testlar va resurslar taklif etiladi. Bu talabalarga o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga yordam beradi.

2. Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish: Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar o'qituvchilarning ma'lum bir vazifalarini avtomatlashtiradi. Masalan, test natijalarini avtomatik baholash, ma'lumotlarni tahlil qilish va takroriy vazifalarni bajarish. Bu o'qituvchilarga ko'proq ijodiy va strategik vazifalar bilan shug'ullanish imkonini beradi.

3. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish: SI talabalarga kasbiy ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini beradi. Simulyatsiya texnologiyalari, virtual laboratoriyalar va mashina o'rganish algoritmlari o'quvchilarga real hayot sharoitida murakkab jarayonlarni o'rganish va mashq qilish imkonini taqdim etadi.

4. Tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari: Sun'iy intellekt asosida olingan ma'lumotlar yordamida ta'lim oluvchilarning yutuqlari, ehtiyojlari va qiyinchiliklari haqida tahlillar o'tkaziladi. Bu esa o'qituvchilar va ma'muriyatga o'quv jarayonlarini tezkor ravishda yangilash va optimallashtirishga imkon beradi.

5. Masofaviy ta'limni rivojlantirish: SI yordamida professional ta'limda masofaviy o'qitish tizimi yanada samarali va interaktiv bo'ladi. Talabalar onlayn o'qish jarayonida turli algoritmlar orqali to'liq ta'lim olishlari mumkin, bu esa geografik cheklovlarni bartaraf etadi.

6. Tadbirkorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash: SI texnologiyalari professional ta'limda yangiliklar kiritishga, yangi texnologiyalarni o'rganish va zamonaviy

ISSN 2181-3841

biznes modellarini ishlab chiqishga yordam beradi. Bu o'z navbatida talabalarga kelajakdagi kasbiy faoliyatda innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga tayyorgarlik beradi.

Sun'iy intellektning professional ta'limdagi roli nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki talabalarning real hayotda ish topish imkoniyatlarini kengaytirishga ham katta hissa qo'shadi. Bu texnologiya kelajakdagi kadrlar malakasini rivojlantirish va zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirishda muhim o'rin tutadi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini professional ta'limga integratsiya qilish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Quyidagi usullar orqali sun'iy intellektni professional ta'limga muvaffaqiyatli integratsiya qilish mumkin:

1. O'qitish jarayonini avtomatlashtirish

SI yordamida baholash va nazorat: Sun'iy intellekt orqali talabalarning bilim darajasini avtomatik tarzda baholash va nazorat qilish mumkin. Masalan, onlayn testlar va amaliyot topshiriqlarini avtomatik tahlil qilish va xatolarni aniqlash uchun SI tizimlaridan foydalanish.

SI mentorlar va ko'makchilar: Sun'iy intellekt tizimlari virtual mentor va yordamchilar sifatida ishlashi mumkin. Bu tizimlar talabalar savollariga tezkor javob berib, murabbiylar va o'qituvchilarning ishini yengillashtiradi.

2. Ta'lim dasturlarini personalizatsiya qilish.

Individual o'quv rejalarini yaratish: har bir talabaning qobiliyatiga, qiziqishlariga va o'zlashtirish tezligiga asoslangan o'quv rejalarini yaratish uchun sun'iy intellektdan foydalanish mumkin. Bu ta'limni yanada samarali qiladi va o'quvchilarning potensialini to'liq ochishga yordam beradi.

Progressni kuzatish va takomillashtirish: sun'iy intellekt talabalar progressini kuzatib, ularning zaif va kuchli tomonlarini aniqlaydi va bu asosda o'quv rejalarini yangilaydi.

3. Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun simulyatsiya va VR texnologiyalar.

Virtual laboratoriyalar: professional ta'limda amaliyot o'ta muhimdir. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan virtual laboratoriyalar yoki simulyatsiyalar orqali talabalar real hayotdagi vaziyatlarni tajriba qilib ko'rishlari mumkin. Bu texnologiya, masalan, texnika, tibbiyot yoki boshqa amaliy yo'nalishlar uchun juda foydali bo'ladi.

Virtual haqiqat (VR): sun'iy intellekt yordamida VR texnologiyalarini joriy etish orqali talabalar turli sohalarda amaliy tajriba to'plashlari mumkin. Bu, ayniqsa, qiyin va xavfli sharoitlarni modellashtirishda foydalidir.

4. Talabalarni mehnat bozoriga tayyorlash.

Sun'iy intellekt asosidagi mehnat bozorining tahlili: SI texnologiyalari orqali mehnat bozori ehtiyojlari va tendensiyalarini tahlil qilish va o'quv dasturlarini shu asosda yangilash mumkin. Bu jarayon talabalarga real ehtiyojlarga mos keladigan ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

SI asosidagi ishga joylashtirish tizimlari: O'quv jarayonini tugatayotgan talabalarga sun'iy intellekt yordamida avtomatik ish qidirish va joylashtirish tizimlari orqali yordam berilishi mumkin. Bu talabalar va ish beruvchilarni tezkor bog'lashda samarali yechimdir.

5. SI asosida yaratilgan o'quv resurslari.

Interaktiv darsliklar va platformalar: sun'iy intellekt yordamida interaktiv o'quv resurslari yaratish orqali ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Masalan, SI yordamida moslashtirilgan o'quv materiallari yaratish va talabalar savollariga tezkor javoblar olish imkoniyatini taqdim etish.

6. O'qituvchilar uchun treninglar va rivojlanish.

O'qituvchilarni tayyorlash: sun'iy intellekt texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish uchun o'qituvchilarga maxsus treninglar o'tkazish zarur. Bu jarayon ularning SI texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini professional ta'limga kiritish, o'quv jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va innovat-



sion qilish imkonini beradi. Bu o'z navbatida malakali kadrlarni tayyorlash va ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Sun'iy intellektni (SI) professional ta'lim tizimida qo'llash jahon miqyosida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Dunyoning turli mamlakatlarida SI texnologiyalarining ta'limga integratsiya qilinishi samaradorlikni oshirish, o'quv jarayonini moslashuvchan qilish, shuningdek, shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Misol uchun: AQSh da IBM Watson platformasi ta'lim muassasalarida shaxsiy o'quv tajribalarini yaratishga yordam beradi. Watson asosida rivojlangan tizimlar o'qituvchilarga dars rejalarini takomillashtirish va talabalar ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Xitoyda Alibaba Cloud tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim tizimlarida o'quvchilarning ko'rsatkichlarini tahlil qilish va interaktiv o'quv dasturlarini yaratish uchun qo'llanilmoqda. Xitoyning ba'zi maktablarida sun'iy intellekt yordamida real vaqt rejimida o'quvchilarning darslarga qiziqish darajasini o'lchash va samarali dars usullarini ishlab chiqish amaliyoti mavjud. Yevropada bir nechta ta'lim tizimlari, xususan, Germaniya va Niderlandiyada, sun'iy intellekt yordamida moslashuvchan o'qitish platformalarini rivojlantirmoqda. Ushbu platformalar o'qituvchilarga talabalar bilimini avtomatik tahlil qilish va individual o'quv dasturlarini shakllantirishga yordam beradi. Natijada, o'qitish samaradorligi oshadi va talabalar qobiliyatlariga ko'proq mos keladigan ta'lim usullari qo'llaniladi. Janubiy Koreya sun'iy intellektdan foydalanib, o'quv dasturlarini avtomatlashtirishga katta e'tibor bermoqda.

Mamlakatda ko'plab maktablar va universitetlar avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlariga o'tib, o'quvchilarning bilimlarini aniq va samarali baholashni amalga oshirishadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari professional ta'lim tizimida keng qamrovli yangiliklarni amalga oshirmoqda. Bu texnologiyalar ta'limni shaxsiylashtirish, o'qituvchilarga yordam berish, baholash jarayonini avtomatlashtirish va o'quvchilarga real muhitda amaliy tajribalarni berishga imkon yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016);
2. Olaye, D. (2021). AI in Education: Applications and Challenges;
3. Holmes, W., & Porayska-Pomsta, K. (2019);
4. Miao, F., Holmes, W., Huang, R., & Zhang, H. (2021).

ISSN 2181-3841

TALABALARDA TAYANCH KOMPETENTLIKNI INNOVATSION HAMKORLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Yarova Sevara Baxodir qizi,
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ularning tayanch kompetentligini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi, tayanch kompetentlikni shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish, professional ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni mazmunini kompetentlik yondashuvi asosida modernizatsiyalash, tayanch kompetentligini shakllantirishning xususiyatlari va ijodiy faoliyatning o'rni, tayanch kompetentligini shakllantirishda ta'lim texnologiyalarini loyihalash hamda tayanch kompetentlikning shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash kabi masalalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Tayanch kompetentlik, modernizatsiyalash, malaka talablari, innovatsion hamkorlik, bilimlar (Knowledge), malakalar (Skills), axloqiy munosabatlar (Attitudes).

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическая проблема формирования базовой компетентности в подготовке будущих педагогов профессионального образования, анализ проводимой работы по формированию базовой компетентности, создание педагогико-психологических условий для обеспечения профессиональной и личностной зрелости будущих педагогов в высших учебных заведениях, модернизация содержания процесса подготовки педагогов профессионального образования на основе компетентностного подхода, особенности формирования базовой компетентности и творческий роль деятельности, при формировании базовой компетентности отражаются такие вопросы, как проектирование образовательных технологий и обоснование критериев, определяющих уровень формирования базовой компетентности.

Ключевые слова: Базовая компетенция, модернизация, квалификация требования, инновационное сотрудничество, знания (Knowledge), компетенции (Skills), этические отношения (Attitudes).

Annotation: In this article, the formation of their base competence in the training of future teachers of professional education is a pedagogical problem, the analysis of the work carried out on the formation of base competence, the creation of pedagogical-psychological conditions for ensuring professional and personal maturation of future teachers in higher educational institutions, modernization of the content of the process of training teachers of, in the formation of base competence, issues such as the design of educational technologies and the justification of criteria determining the level of formation of base competence are reflected.

Key words: Base competence, modernization, qualification requirements, innovative collaboration, knowledge (Knowledge), skills (Skills), ethical relations (Attitudes.

Bugungi innovatsion ta'lim jarayoning dolzarbligini oshirish maqsadida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi, ularning tayanch kompetentligi kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda ta'limning didaktik tajribasini o'zlashtirishi, shuningdek, innovatsion hamkorlikka tayyor bo'lishi kerak.

Tayanch kompetensiyalar va ularning komponentlari - talabalarning ajralmas umumkasbiy sifati bo'lib, buning tarkibiga professionalizm, kasbiy qadriyat tushunchasi, o'z mas'ulligini o'zi anglashi, o'zini o'zi boshqarish hamda ma'lum bir me'yorni yaratish uchun suybektiv qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishimiz talabalarning tayanch kompetensiyalarini va kasbiy mahoratini shakllantirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratish uchun "Professional ta'lim malaka talablari"-ga asos sifatida xizmat qiladi.

Tayanch kompetentlik:

- professional ta'lim tizimining asosiy me'yoriy hujjatlarini bilishi va ularni amaliyotga tatbiq qila olish;

- professional ta'lim muassasalarida gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy fanlaridan darslarni yuqori pedagogik texnologiyalar asosida tashkil eta olish.

Talabalarda tayanch kompetentlikni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari 3 xil xususiyatlarni namoyon qiladi va aynan bir qator mezonlar ko'rsatkichlari ta'lim jarayonida innovatsion hamkorlik asosida o'zini-o'zi takomillashtirishga undaydi. Talabalar tayanch kompetensiyalarini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari;

Ijtimoiy huquqiy faoliyat; ta'lim sifatini samarali boshqarish va baholash avvalo, ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi, bir so'z bilan aytganda, "Ijtimoiy huquqiy ta'lim olish" paradigmasidan kelib chiqib, zamonaviy talabaga, raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Ta'limiy faoliyat; faoliyat obyektiga nazariy ta'sir qilish munosabati bilan, talabalarning umumiy ta'lim va bilish faolligini oshirish, ta'limning mazmuni uchun didaktik va psixologik shart-sharoitlarni yaratish va o'quvchilarni texnologik faoliyatga jalb qilish hisobiga talabalarning faolligini oshirishga yordam berish.

Tarbiyaviy faoliyat; professionalizm konsepsiyasini ishlab chiqib, bilim, ko'nikma, holat, shaxsiy xususiyatlar kabi xulq-atvorni belgilovchi munosabatlar tizimi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatiga egalik hamda ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishni ifodalovchi umumlashgan harakat usullarini e'tirof etish.

Bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilar ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlarini o'tash maskanlari bir vaqtning o'zida mazkur kadrlarning kelajakdagi ish beruvchilari ekanligini unutmaslik lozim. Shu sababli mazkur "hamkor tashkilotlar" bo'lajak professional ta'lim o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga har tomonlama tayyor bo'lishida muhim rol egallaydi va be'vosita manfaatli ishtirok etadi.

Innovatsion hamkorlikni takomillashtirishda obyektiv qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, bu ilmiy-tadqiqot ishimizning ahamiyatini oshiradi:

- hozirgi zamon rivojlanish tendensiyalari talab etuvchi fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik zarurati va mazkur sohalarning ko'p yillar davomida shakllanib kelgan ish uslublari, mexanizmlarini o'zgartirish istagi yo'qligi o'rtasida;
- maqsadga erishish uchun bir qator ishlarni bajarish zarurati mavjudligi va tomonlarning bu boradagi cheklangan imkoniyatlari o'rtasida;
- hamkorlikning innovatsion usullarini joriy etishning zaruratiga bo'lgan ehtiyoj

ISSN 2181-3841

va mavjud tizimlarning asosliligini keltirib chiqaradigan omillar mavjudligi o'rtasida;

- bir tomondan, hamkorlik jarayonlarini ularning alohida qatnashchilari o'rtasidagi doimiy rivojlanib boruvchi va chuqurlashuvchi aloqalar majmuyi sifatida tushunish, boshqa tomondan, mavjudlarini takomillashtiruvchi va bir-birini to'ldiruvchi ichki jarayon sifatida tushunish.

Talabalarda tayanch kompetentlik innovatsion hamkorlik jarayoni sifatida takomillashib boradi va unga erishishda o'quv jarayoni doirasida amalga oshiriladi.

Sohani to'liqroq tadqiq etish borasida olib borgan izlanishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, muammoni har xil tomondan tadqiq etgan turli olimlar mazkur jarayonlarni bir-biridan farq qiluvchi turlicha nomlar bilan atashgan. Masalan: hamkorlik, sherikchilik, integratsiya va boshqalar. Mazkur tushunchalarning qay biri bir ma'noni anglatuvchi sinonimlar, qaysilari o'z tasnifi, tuzilishi va mazmuniga ko'ra boshqalaridan farq qilishi borasidagi masalaga javob izlash jarayonida quyidagicha belgiladik:

Hamkorlik – ish munosabatlarida qatnashuvchilarning nisbatan oz miqdordagi majburiyatlari bilan shaxsiy erkinliklarini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, hamkorlik - bu o'zaro manfaatli, ammo individual natijalarga erishish uchun ikkita turli manfaatlarining mustaqil subyektlari birgalikda harakat qilishidir.

Talabalarning tayanch kompetentsiyalarini rivojlantirishning muhim komponentlaridan foydalangan holda "Tayanch kompetentsiya" maxsus kursi o'qituvchisi nazariy mashg'ulotlari mavzulariga oid materiallarni o'rganish jarayonida hamkor tashkilot ekspert vakillari tomonidan ularning faoliyatlari davomida sodir bo'lgan real hayotiy muammolar bayon etilgan video-murojaatlarni talabalarga Case-study materiali tarzida taqdim etadi.

Keysni bajarish natijasida bo'lajak o'qituvchilar bo'lgan talabalarning tayanch kompetensiyalari rivojlanib boradi. Jarayon davomida universitet professor-o'qituvchisining asosiy vazifasi tashkilotchi-fasilitatorlik – ya'ni guruhning muvafaqiyatli ishlashini, mashg'ulot qoidalari, uning tartibi va reglamentlariga rioya etilishini ta'minlash orqali ko'maklashuvchi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasi talabalarida tayanch kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion hamkorlik muhim omil hisoblanib quyidagi komponentlar shakllantirilishi kerakligi aniqlandi: yaxlit-mazmunli; ijtimoiy-madaniy; kommunikativ; amaliy faoliyatga oid.

Mutaxassisning asosiy tayanch kompetensiyalarining tarkibiy xususiyatlari tahlili mutaxassisning asosiy shaxsiy-kasbiy kompetentliklarini shakllantirishga imkon beradi. Demak, muammoni - ta'lim tizimining yangi ijtimoiy buyurtma, ish beruvchilar va mehnat bozori talablariga munosib javob berishida bitiruvchilarning raqobatbardosh shaxsni kasbiy shakllantirishning muhim omili sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Tadqiqot doirasida olib borgan izlanishlar bo'lajak professional ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorlashda ta'lim dasturlari mazmuni asosidagi kasbiy rivojlantirish tizimi bilan amaliy faoliyat hamda innovatsion hamkorlik muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Shunga ko'ra, innovatsion hamkorlik asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligin rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirilgan metodika orqali innovatsion hamkorlikda talabalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari ishlab chiqilgan bo'lib, bular:

1. Bilimlar (Knowledge): *Talabalar ma'lumotlar bazasi, faktlar, konsepsiyalar, tarixiy ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bu komponent orqali, talabalar ta'lim muassasasidan bir qator ma'lumotlar olib, ularni tahlil qilish, muammolarni ta'lim markazi bilan hamkorlikda aniqlashi kerak.*

2. Malakalar (Skills): *Talabalarning amaliy hunarlari, texnikalari va kasbiy mahorat-*

larini anglatadi. Masalan, ilmiy izlash, muammolarni tahlil qilish, topshiriqlarni bajarish, kommunikativ tajribaga ega bo'lish, qarorlarni qabul qilish kabi amaliy malakalar talabalarning tayanch kompetentligi modelidagi elementlarga misol bo'ladi.

3. Axloqiy munosabatlar (Attitudes): *Talabalarning ishlashga, o'zini takomillashtirishga, tolerantlik, empatiya, ishtirokchilik va ijtimoiy munosabatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bu komponent orqali talabalar muammolarni tahlil qilish, hal qilish, munozara qilish va boshqalar bilan raqobatchilikni to'g'ri tushunishga ega bo'lishi misol bo'ladi.*

Ushbu elementlar bir-birini to'ldirgan holda dasturlar, amaliy mashqlar va metodikalar, mavjud pedagogik shart-sharoitlar orqali takomillashtirish mumkin.

Innovatsion hamkorlik asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni yangilangan modeli quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqilishi lozim: ta'lim mazmuni va shakllarining shaxsga yo'naltirilishi; mavzu tarkibining kasbiy yo'naltirilishi; o'quv materialini keng qamrovli tematik tashkil etilishi; mavzularni ongli-qiyosiy tahlil etish; ta'lim berish shakllari, usullari va uslublarining tizimli o'zgaruvchanligi; simulyasiya – o'yin metodlarini professional moslashtirish.

Ta'limni tashkil etishning bunday modeli bizga, bir tomondan, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda mehnat bozorining yuzaga kelayotgan ehtiyojlarini e'tiborga olish, ikkinchi tomondan, qo'shma (hamkorlikdagi) o'quv dasturlarini amalga oshirish, kasbiy pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi «Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 278-sonli qarori.
2. Muslimov N.A., Реализация контекстного подхода при подго-товке будущэго педагога к профессионалной деятелности. //Вестник СМО МГУ, 2010, №4. str. 45-48;
3. Muqumova D., Yarova S. "Talabalarning ijtimoiy kompetentligini innovatsion hamkorlik asosida takomillashtirishning nazariy asoslari" // Monografiya. – "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti. 2023.
4. Yarova S. Формирования социалной компетентности студентов вузов // Педагогика и психология: теоретические и практические исследования. Международную научно-практическую конференцию. ДОИ 10.5281/зенодо.10204580. Rossiya. 2023. s.102-108. https://wordlyknowledge.uz/ index.php/PPSM/article/view/2472;
5. Yarova S. Semenar treninglar stenariylari // Uslubiy qo'llanma. – "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti. 2023. – 46 b.

ISSN 2181-3841

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING O'RNI

Irisqulov Farhod Sultonboyevich,
Namangan muhandislik-qurilish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim resurslarining ta'lim jarayonidagi roli va ularning raqamli transformatsiya muhitidagi ahamiyati yoritilgan. Maqola zamonaviy o'qitish jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanish yo'llarini ochib beradi, shuningdek, raqamli platformalar va dasturiy ta'minotlar orqali ta'lim sifatini yaxshilash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim platformalari, elektron ta'lim, raqamli transformatsiya, raqamli ta'lim resurslari, aqlli qurilmalar, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish.

Аннотация: В данной статье описана роль цифровых образовательных ресурсов в образовательном процессе и их значение в условиях цифровой трансформации. В статье раскрываются пути эффективного использования цифровых образовательных инструментов в современном учебном процессе, а также возможности повышения качества образования с помощью цифровых платформ и программного обеспечения.

Ключевые слова: Образовательные платформы, электронное обучение, цифровая трансформация, цифровые образовательные ресурсы, умные устройства, искусственный интеллект, цифровые технологии, цифровизация.

Annotation: This article describes the role of digital educational resources in the educational process and their importance in the digital transformation environment. The article reveals the ways of effective use of digital educational tools in the modern teaching process, as well as the possibilities of improving the quality of education through digital platforms and software.

Key words: Educational platforms, e-learning, digital transformation, digital educational resources, smart devices, artificial intelligence, digital technologies, digitilization.

KIRISH. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish mohiyati an'anaviy ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Respublikamizda doimiy tarzda ta'lim sifati va samaradorligi muammolariga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Ta'lim sifatini qiyosiy o'rganish uchun metodologiya, texnologiyalar va vositalarni ishlab chiqish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirib, sifat nazorati tizimi yaratilmoqda.

Bu sohada hukumatimiz tomonidan juda ko'plab farmon va qarorlar qabul qilingan. Jumaladan, O'zbekiston Respublika Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli qarorida ham ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish masalasi qo'yilgan [1].

Ta'limning raqamli transformatsiyasiga o'tish jarayonini albatta raqamli ta'lim resurslarisiz tassavur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda raqamli ta'lim resurslari professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik jarayonida muhim rol

o'ynaydi. Raqamli ta'lim resurslari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy mehnat bozoriga mos keladigan malakalarni shakllantirishda yordam beradi.

Bundan tashqari, raqamli ta'lim resurslarini bir tizimga muvofiqlashtirishda ta'lim platformalarining o'rni beqiyosdir. Ta'lim platformalari o'qitish jarayonini ancha samarali va moslashuvchan qilib, o'quvchilarga istalgan joyda va vaqtda ta'lim olish imkonini beradi. Ta'lim platformalari shaxsiylashtirilgan o'qitish imkoniyatini taqdim etib, interaktiv vositalar bilan o'qitishni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

O'qituvchilar uchun esa materiallarni almashish, o'quvchilar faoliyatini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlarini beradi. Platformalar sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili yordamida o'qitish usullarini yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, motivatsiya va ijodkorlikni oshirishga ham katta hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA USULLAR.

Biz ushbu maqolada milliy va xorijiy adabiyotlar tahlilini olib borgan holda zamonaviy raqamli ta'lim resurslarini yaratishda raqamli ta'lim vositalari, yani dasturiy ta'minot va platformalarni guruhlarga ajratib, ularning qisqa tavsifi hamda foydalanish sohasi bo'yicha tavsiyalar berib o'tamiz.

Mamlakatimizda malakali kadrlar kasbiy tayyorgarligini turli aspektlarda takomillashtirishga doir fundamental tadqiqotlar, elektron ta'lim muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari hamda bo'lajak professional ta'lim kasbiy faoliyatiga tayyorlash masalalari mamlakatimiz olimlaridan ***R.H.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, U.I.Inoyatov, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, Sh.S.Sharipov, Z.K.Ismailova, G.N.Ibragimova, A.Haitov, F.M.Zakirova, M.Aripov, O.Turakulov, N.I.Taylaqov, R.D.Shodiyev, L.N.Shibarshova, I.A.Otabayev, U.Yuldashev, Z.E.Chorshanbiyev, E.R.Axmedov, Sh.R.Turdiyev*** *va boshqa olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.*

MDH mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish, ta'lim amaliyotiga axborot-kommunikatsion texnologiyalarini tatbiq etish, masofaviy ta'limda modulli texnologiyalar muammolari ***A.A.Andreyev, I.G.Zaxarova, Y.S.Polat, I.V.Robert, A.V.Xutorskoy, A.V.Tarakanov, E.V.Maykov, N.I.Naumkin, M.V.Solodixina L.R.Zagitova, L.V.Medvedeva, L.X.Chomayeva, V.A.Shershneva*** *va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.*

Xorijiy olimlar tomonidan elektron ta'lim resurslari va elektron ta'lim muhitini shakllantirish muammolari bo'yicha ***Odiel Estrada-Molina, Dieter Reynaldo Fuentes-Cancell, Anaibis Alvarez Morales, Hemraj Ramsurrun, M. Degner, S.Moser, D. Lewalter, S.Mishra, C.Ramesh, M.Burns, T.Muras, T.Vaughan, W.N.Chambers, E.L.Cowen, U.Mangal, E.Johnson, J.M.Spector, J.Locard, F.Raymond, M.Rosenberg, D.Kegan, G.Kulanthaivel*** *va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.*

Xorijiy olimlardan ***Odiel Estrada-Molina, Dieter Reynaldo Fuentes-Cancell hamda Anaibis Alvarez Morales****lar tomonidan yozilgan maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limdagi o'rni, o'qituvchilar tomonidan bu texnologiyalarni qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'lim sifati va o'quvchilarning o'rganish natijalariga ta'siri muhokama qilingan [12].*

J. Liu va X. Vang*lar o'z ilmiy tadqiqot doiralarida tarmoq platformasida ba'zi ta'lim funksiyalarini qurishni va talabalarning o'zini o'zi boshqarishi va o'z-o'zini o'qitish samaradorligini oshirish masalalarini ko'rib chiqishgan [13]*

Shuningdek, ***Degner, Moser va Lewal****ter tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda raqamli vositalarning norasmiy ilmiy-ta'lim muassasalarida qo'llanilishi bo'yicha tizimli adabiyot sharhi taqdim etilgan. Bu tadqiqotda, ayniqsa, raqamli texnologiyalarning o'quv jarayonlariga qanday ta'sir qilishi va ta'lim samaradorligini oshirishda qanday foyda keltirishi batafsil yoritilgan [14].*

ISSN 2181-3841

Olimlarning olib borgan ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishda bevosita ta'lim jarayonini raqamlashtirish, unda innovatsion texnologiyalarga asoslanish, ta'limda raqamli transformatsiya jarayonlarini izchil tashkil etish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Hozir professional ta'lim muassasalarida, jumladan texnikumlarda ham raqamli transformatsiya jarayoni bir qator asosiy yo'nalishlar va tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy raqamli ko'nikmalar bilan ta'minlash va ta'lim tizimini global talablarga moslashtirishdir.

Ta'limda raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish masalasi jahonda ham global jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu haqda BMTning bir qancha tahlillari hamda hisobotlarida so'z yuritilgan bo'lib, jumladan, BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlarining yechimiga bag'ishlangan bir nechta tahliliy ma'lumotlari mavjud.

Makroiqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar instituti tahlillariga ko'ra Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish yo'lida O'zbekiston ta'lim sohasida ajoyib yutuqlarni ko'rsatdi. Asosiy e'tibor 2017-2022 yillarga mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlariga qaratildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yilgi Barqaror rivojlanish maqsadlari reytingi natijasiga ko'ra, O'zbekiston 166 davlat orasida 69-o'ringa ko'tarilib, o'tgan yilga nisbatan sakkiz pog'onaga yaxshilanganini ko'rsatdi.

Reytingning oshishi 10 ta barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladigan turli ko'rsatkichlarning sezilarli o'sishi bilan bog'liq. Ayniqsa, "Sifatli ta'limni ta'minlash" ga qaratilgan 4-maqsad borasida to'qqizta maqsad va oltita asosiy ko'rsatkich bo'yicha katta yutuqlarga erishildi [6]

O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda erishilgan asosiy yutuqlar qatoriga quyidagilar kiradi:

3–5 yoshdagi bolalarning erta bolalikni rivojlantirish dasturlarida ishtirokini BMTga a'zo mamlakatlar o'rtasida jahon bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga mos ravishda 82,6 foizga oshishi;

2018–2022 yillar oralig'ida bolalarning boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik dasturlarida ishtirokini ikki baravar oshishi hamda 2022-yilda umumiy ishtirok darajasini 84,2 foizga yetishi;

Elektron jadvalda asosiy arifmetik formulalardan foydalanishda 10,5 foizdan 14,7 foizga va multimedia elementlari bilan elektron taqdimotlar yaratishda 6,7 foizdan 7,8 foizga sezilarli o'sish bilan AKT bo'yicha ko'nikmalar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatildi;

Ta'lim tizimidagi farovonlikni o'lchaydigan paritet indeksining yaxshilanishi, eng past daromadli kvintildagi uy xo'jaliklari orasida 0,92 dan 1,03 gacha ko'tarildi;

Maktab sharoitining sezilarli darajada yaxshilanishi, ta'lim maqsadlarida internetdan foydalanish 86,3 foizdan 94,6 foizga, kompyuterlar bilan jihozlangan maktablar 87,3 foizdan 97,7 foizga, nogiron o'quvchilar uchun moslashtirilgan infratuzilma 26,5 foizdan 49,8 foizga, o'qituvchilarning zarur malakaga ega bo'lishi 95,6% dan 96,1% gacha o'sdi [6].

Bu ijobiy tendensiyalar "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirish, mobil qurilmalar uchun multimedia ilovalarini yaratish, kasb-hunarga o'qitish kurslarini joriy etish, nodavlat ta'lim tashkilotlarini kengaytirish, hududiy kasbiy ta'lim markazlarini tashkil etish kabi tashabbuslar orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan [6].

Bugungi kunda raqamli ta'lim vositalari elektron ta'limning tabiati va ko'lamiga ko'plab o'zgarishlar kiritdi, jumladan, aqlli qurilmalar, internet uskuna vositalari (IoT), sun'iy intellekt (AI), to'ldirilgan reallik (AR) va virtual haqiqat (VR), blokcheyn va dasturiy ilovalar kabi keng tarqalgan texnologik innovatsiyalar o'qitish va o'rganishni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. [3].

Shu sababli, rivojlangan davlatlar so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlari axborot va kommunikatsiya

texnologiyalarini integratsiyalashga sarmoyalarini oshirdilar va ta'lim dasturlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash bo'yicha strategiyalar yoki siyosatlar atrofida moslashtirishni ustuvor vazifa qilib belgiladilar[4].

Raqamli transformatsiya muhitida o'quv kontentini yangilash nafaqat ilmiy bilimlarni egallashni, balki zamonaviy amaliyotga mos keladigan kompetensiyalarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Ushbu kontent yaxshi tuzilgan bo'lishi va zamonaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda multimediali o'quv materiallari shaklida taqdim etilishi kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta'limning raqamli transformatsiyasi, asosan, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida yangilash va takomillashtirishni anglatadi. Bu jarayon ta'lim muhitini raqamli texnologiyalar bilan to'ldirish, bulutli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt usullari yordamida ta'lim mazmuni va metodlarini yangilash, shuningdek, ta'lim tizimini tubdan yaxshilash maqsadida amalga oshirilishi kerak.

Bu maqsadga erishish, ayniqsa, ta'lim resurslarini yaratishda asosiy vositalarga (dasturiy ta'minot va platformalar) asosiy urg'uni berishimiz kerak. Chunki biz qaysi dasturiy vositalar orqali qaysi kontentni yarata olishimizni bilishimiz kelajakda sifatli raqamli ta'lim resurslariga ega bo'lishimizga olib keladi. Bu esa ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jahonda bugungi kunda ta'limda ko'plab raqamli ta'lim vositalari ishlatilib kelinmoqda va bu vositalarning o'z vazifasiga muvofiq eng zamonaviylarini saralab olish kelgusida ushbu vositalardan unumli foydalanishga asos bo'ladi.

Quyida hozirda taqdim etilayotgan raqamli ta'lim resurslari hamda raqamli ta'lim vositalariga nimalar kirishi va ularni turlari bo'yicha ajratib chiqamiz:

Onlayn kurslar va dasturlar: *Onlayn kurslar va dasturlar ta'limni jahon miqyosida taqdim etishga yordam beradi. Bu kurslar, odatda, muayyan mavzular bo'yicha mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi va o'quvchilar bu kurslarni o'z vaqtida tamomlashlari mumkin. Misol uchun, Coursera, edX, Udemy, Georgia Tech Online Master of Science in Computer Science, Khan Academy vhk.*

Elektron kitoblar va elektron ta'lim materiallari: *elektron kitoblar va elektron ta'lim materiallari an'anaviy darsliklarning raqamli shaklidir. Ular odatda PDF, ePub yoki boshqa formatlarda bo'ladi va o'quvchilarga ular kompyuterlar, planshetlar yoki smartfonlar orqali taqdim etilishi mumkin. Misol uchun, Ziyonet, Amazon Kindle, Google Books va h.k.*

Videodarslar va vebinarlar: *videodarslar va vebinarlar ko'p hollarda ta'limni vizual tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi. Bu darslar odatda qiziqarli va interaktiv bo'lib, o'quvchilar mavzuga chuqurroq kirishiga yordam beradi. Misol uchun, Khan Academy, YouTube Education, Zoom va h.k.*

Ta'lim platformalari va LMS (Learning Management Systems): *Hemis, LMSlar ta'lim boshqaruv tizimlari bo'lib, ular ta'lim resurslarini boshqarish va ularga kirishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Bu platformalar o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro aloqani osonlashtiradi va ta'lim jarayonini tashkil etadi. Misol uchun, Hemis, Moodle, Blackboard, Canvas va h.k.*

O'qitish va o'rganish ilovalari: *O'qitish va o'rganish ilovalari individual o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular ma'lum bir ko'nikma yoki bilimni o'rganishni osonlashtiradi. Bu ilovalar odatda qiziqarli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar ko'rinishida bo'ladi. Misol uchun, Duolingo (til o'rganish), Quizlet (flashcards), Memrise, Edmodo, Anki, Photomath, BrainPOP va h.k.*

Simulyatsiyalar va o'yinlar: *Simulyatsiyalar va ta'lim o'yinlari o'quvchilarga real dunyoda yuz beradigan vaziyatlarni yoki jarayonlarni simulyatsiya qilishga yordam beradi. Ular o'quvchilarni murakkab mavzularni chuqurroq tushunishga undaydi. Misol uchun, Geogebra (matematika), Minecraft: Education Edition (ijodkorlik va muhandislik) va h.k.*

Forumlar va onlayn jamiyatlar: *onlayn forumlar va ta'lim jamiyatlari o'quvchilar va*

ISSN 2181-3841

o'qituvchilarga bilim va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Bu platformalar odatda aniq mavzular bo'yicha savol-javob formatida ishlaydi. Misol uchun, Reddit, Stack Exchange, Darakchi.uz Forum, UForum.uz, Yoshlar.com, ITPark.uz, Telegram guruhlar va kanallari vhk.

Raqamli testlar va baholash qo'shimchalari: *raqamli testlar va baholash vositalari o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim darajasini baholash uchun imkoniyat beradi. Ushbu vositalar odatda interaktiv testlar va viktorinalar yaratishga yordam beradi. Misol uchun, EasyQuizzy, MyTest, Kahoot!, Socrative kabi baholash vositalari va ularga tegishli vositalar.*

Virtual haqiqat (VR) va to'ldirilgan reallik (AR) resurslari: *VR va AR resurslari o'quvchilarni raqamli haqiqatga olib kiradi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'quvchilar murakkab mavzularni o'zlari amaliyotda sinab ko'rishlari mumkin. Misol uchun: Google Expeditions, zSpace, Tilt Brush, VirtualSpeech, Labster, Merge Cube, AR Flashcards, Anatomy 4D vhk.*

Onlayn kutubxonalar va ma'lumot bazalari: *Ilmiy tadqiqotlar va boshqa ta'lim materiallariga kirish imkonini beruvchi onlayn kutubxonalar va ma'lumot bazalari o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun juda foydali. Misol uchun, Scopus, Web of Science, Springer JSTOR, Google Scholar, IEEE Xplore, Oxford Academic, DOAJ, EBSCOhost vhk.*

Ta'lim bloglari va podkastlar: *Bloglar va podkastlar o'qituvchilar va mutaxassislar tomonidan yuritiladi va turli mavzular bo'yicha chuqur ma'lumot beradi. Bu resurslar ta'limga zamonaviy yondashuvlarni taqdim etadi. Misol uchun, TED-Ed podkastlari, Edutopia, TeachThought, The Learning Network, Medium bloglari, The EdSurge Podcast, The Cult of Pedagogy Podcast va h.k.*

Ma'lumotlarni tayyorlash va yaratish uchun dasturiy vositalar: *bu vositalar o'quvchilarga matnlar bilan ishlash, jadvallar tayyorlash, taqdimotlar yaratish va boshqa ta'lim faoliyatlarida yordam beradi. Misollar uchun, Microsoft office paketi, Grammarly (grammatika tahlili), Hemingway (yozuv uslubini yaxshilash), Tableau, Python (pandas, NumPy, Matplotlib, Seaborn), SAS (Statistical Analysis System).*

Yuqorida keltirilgan raqamli ta'lim resurslari qo'llanilish sohasi bo'yicha 5 guruhga bo'lib chiqildi va har guruhga raqamli ta'lim resurslarini yaratish, tahrirlash hamda ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshqarish uchun ishlatiladigan zamonaviy dasturiy vositalar bo'yicha tavsiya ishlab chiqildi.

Quyida biz hozirda eng ko'p qo'llanilayotgan raqamli ta'lim vositalarini guruhlarga ajratgan holda ularning qisqa tasnifini keltirganmiz.





Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, raqamli texnologiyalar ta'lim muassasalarini tubdan yaxshilash hamda ta'lim sifatini oshirish uchun ulkan salohiyatni taqdim etadi. Biroq raqamli ta'lim transformatisyasi muhitida ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish uchun qilinayotgan harakatlar yetarlicha natija berdi deb hisoblay olmaymiz. Raqamli transformatsiya murakkab jarayon bo'lib, raqamli imkoniyatlar va tayyorlikni nazarda tutuvchi keng ko'lamli transformatsion o'zgarishlarni talab qiladi.

Bunday o'zgarishlarga erishish uchun ta'lim muassasasi ekotizimidagi barcha ishtirokchilar ta'limga axborot kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi bo'yicha umumiy qarashlarga ega bo'lishlari va ushbu maqsadga erishish yo'lida harakat qilishlari kerak.

Raqamli texnologiyalar kontseptsiyasi dinamik tushunchadir, chunki texnologiyalar nafaqat o'quv amaliyotida turli xil foydalanishni talab qiladigan, balki vaqt o'tishi bilan ham o'zgarib turadi.

Professional ta'lim muassasalarida sohalar bo'yicha raqamli resurslarni ko'paytirish hamda ularni bir yaxlit tizim shaklida o'quvchilarga taklif etish jarayonlari hali tugallanmagan.

Xususiyatidan kelib chiqib, raqamli ta'lim resurslarini yaratishda 2-rasmda keltirilgan dasturiy vositalardan foydalanish nafaqat sifatli resurslarga ega bo'lishimizga olib keladi, balki uni yaratuvchi pedagog xodimlarning ham vaqtini tejab qoladi.

ISSN 2181-3841

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli qarori.
2. Sh.R.Ro'ziyev, & M.D.To'ranazarova (2022). Innovatsion faoliyat turlari, yo'nalishlari va klassifikatsiyasi. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (1), 4-8.
3. Gaol, F. L., & Prasolova-Forland, E. (2022). Special section editorial: The frontiers of augmented and mixed reality in all levels of education. Education and Information Technologies, 27(1), 611–623., OECD. (2021). OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. Retrieved from: https://www.oecd-ilibrary.org/education/oecd-digital-education-outlook-2021_589b283f-en
4. Fernández-Gutiérrez, M., Gimenez, G., & Calero, J. (2020). Is the use of ICT in education leading to higher student outcomes? Analysis from the Spanish Autonomous Communities. Computers & Education, 157, 103969. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2020.103969. Accessed 30 June 2022.
5. Abduboqi Aliqulovich Karimov. «RAQAMLI TRASFORMATSIYA TA'LIM SIFATINING LOKOMOTIVIDIR» Academic research in educational sciences, vol. 4, no. 3, 2023, pp. 235-240.
6. https://dashboards.sdgindex.org/profiles/uzbekistan
7. Sitora Berdinazarovna Janonova. «Zamonaviy ta'lim integratsiyasida raqamli ta'lim tizimini takomillashtirish» Academic research in educational sciences, vol. 4, no. SamTSAU Conference 1, 2023, pp. 203-206.
8. Muhammadjon Otabek Ogli Tursunov (2023). O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish: yutuqlar va muammolar. Scientific progress, 4 (2), 213-217.
9. Habibullaev , A. (2024). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari. Qo'qon universiteti xabarnomasi , 10 (10), 38–40. https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.904
10. Rixsiboyev Shukurulloh, L.K. Bagbekova. "Ta'lim jarayonida raqamli resurslar yaratish". Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendensiyalari jurnali, 2024-yil may, 62-65-betlar, http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/969.
11. Abdullayeva Nigora Baxtiyorovna. "Professional ta'limda raqamli ta'lim resurslari va raqamli ta'lim kontentlarining ahamiyati". Innovative developments and research in education, vol. 3, no. 26, Feb. 2024, pp. 210-3, https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/12055.
12. Estrada-Molina, O., Fuentes-Cancell, D.R. & Morales, A.A. The assessment of the usability of digital educational resources: An interdisciplinary analysis from two systematic reviews. Educ Inf Technol 27, 4037–4063 (2022). https://doi.org/10.1007/s10639-021-10727-5
13. 13. J. Liu and H. Wang, «An Analysis of the Educational Function of Network Platform from the Perspective of Home-School Interaction in Universities in the New Era, 2021 IEEE International Conference on Educational Technology (ICET), Beijing, China, 2021, pp. 112-116, doi: 10.1109/
14. Degner, M., Moser, S., & Lewalter, D. (2022). Digital media in institutional informal learning places: A systematic literature review. Computers and Education Open, 3, 100068.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA DUAL TA'LIM ASOSIDA O'QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Yusupova Adolat Primqulovna,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Globallashuv sharoitida bugungi kun mehnat bozori mutaxassislar tayyorlash jarayoniga o'zgaruvchan va takomillashib boruvchi tavsifga asoslangan talablarni qo'ymoqda. Ilm-fan yutuqlarining iqtisodiy-ijtimoiy hayotga tranformatsiya qilinishi, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasining takomillashuvi o'z navbatida ta'limning didaktik ta'minotini taraqqiy ettirib borish zaruratini belgilamoqda. Ushbu maqolada mutaxassislarni dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik asoslari, ularni joriy etish bosqichlari, o'quv topshiriqlari tipologiyasi va ularning o'quv jarayonini tizimlashtirishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Didaktik ta'minot, variativ o'quv topshiriqlari tipologiyasi, dual ta'limning tashkiliy bosqichlari, didaktik asoslar, tandem, didaktik asos komponentlari.

Аннотация: В условиях глобализации сегодняшний рынок труда предъявляет к процессу подготовки специалистов меняющиеся и совершенствующиеся требования, основанные на описании. Трансформация достижений науки в экономико-социальную жизнь, совершенствование интеграции науки-образования-производства, в свою очередь, диктуют необходимость развития дидактического обеспечения образования. В данной статье рассматриваются дидактические основы подготовки специалистов к профессиональной деятельности на основе двойного обучения, этапы их внедрения, типология учебных заданий и их значение в систематизации образовательного процесса.

Ключевые слова: Дидактическое обеспечение, типология вариативных учебных заданий, организационные этапы двойного обучения, дидактические основы, тандем, компоненты дидактической основы.

Annotation: In the conditions of globalization, today's labor market puts demands on the process of training specialists based on a changing and improving description. The transformation of scientific achievements into economic and social life, the improvement of science-education-production integration, in turn, determines the need to improve the didactic support of education. This article talks about the didactic foundations of professional training of specialists on the basis of dual education, the stages of their implementation, the typology of educational tasks and their importance in the systematization of the educational process.

Key words: Didactic support, typology of variable educational tasks, organizational stages of dual education, didactic foundations, tandem, didactic foundation components.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan professional ta'lim tizimining didaktik ta'minotini takomillashtirishga muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayon ayniqsa dual ta'lim asosida tashkil etilgan o'quv jarayonlarining didaktik asoslarini takomillashtirishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunday ijobiy sifat o'zgarishiga erishish, bir tomondan, professional ta'lim tizimining xalqaro ta'lim darajalariga muvofiqlashtirilgan tarkibiy o'zgarishlari, ikkinchi tomondan, ta'lim va ishlab chiqarish maydonining o'zaro ta'siri jarayonlarini aks ettiruvchi integratsiya

ISSN 2181-3841

jarayonlari bilan bog'lanadi [3].

YUNESKOning xalqaro standart ta'lim kvalifikatsiyasiga muvofiq dual ta'lim tizimi yoshlar uchun tashkil etilgan ta'lim loyihalari majmuyi bo'lib, ularda ish joyidagi to'liq bo'lmagan ish vaqti va an'anaviy maktab va universitet tizimidagi sirtqi ta'lim uyg'unlashadi. Dual ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarga amaliy tajriba olish imkoniyatini beradi, bu esa ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (UNESCO, 2015).

Zamonaviy dual ta'lim shakli tashkiliy-huquqiy munosabatlarda mustaqil faoliyat olib boruvchi ishlab chiqarish va ta'lim tashkilotining birgalikdagi kollaborativ faoliyatiga asoslanishi har ikki tomonning sifat o'zgarishidagi o'zaro ta'sirini belgilaydi [4]. Ya'ni ishlab chiqarish sohasidagi takomillashuv ta'lim sifatiga va o'z navbatida ta'lim tizimidagi samaradorlik dinamikasi ishlab chiqarish jarayoniga doimiy ta'sir etib boradi. Bu esa professional ta'lim va ishlab chiqarish maqsadlarining mushtarakligi zamonaviy kompetensiyalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi. Bunday maqsadni belgilash ta'limning klassik kognitiv yo'nalishini yengib o'tishga va o'quv jarayonini «natijadan» qurishga imkon beradi.

Bunday o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish masalalari L.N.Samoldinaning ilmiy izlanishlarida izohlanadi. Tadqiqotchi maqsadli ta'limning negizida yotgan asoslar majmuyini ma'lum bilim va kasbiy faoliyat sohasini o'zlashtirish uchun o'quvchilarning obyektiv faoliyatini tashkil etishning ma'lum shakllari, usullari, o'quv vositalari, shakllarida dual ta'lim tizimining timsoli sifatida tavsiflaydi [1].

Tadqiqotchining fikriga ko'ra, dual tizim ostida ta'lim va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro ta'siri uchta uslubiy sababning birligiga asoslanadi: ta'lim va ishlab chiqarish qadriyatlari va maqsadlari tengligi, kompetentlik - modul jihati va o'quv va kasbiy faoliyatni tashkil etish.

"Nimaga o'rgatish kerakligini ish beruvchi, ta'lim muassasalari – qanday o'qitishni belgilaydi" g'oyasiga asoslangan professional ta'limni tashkil etishning eng yangi asoslari tizimi ijtimoiy sheriklik masalalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Amaliyotga yo'naltirish «natijalardan o'rganish» tamoyiliga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim dasturlari ishlab chiqarish sohasining talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda «natijadan» (aniq kompetensiyalar hamda kasbiy va shaxsiy fazilatlar to'plami) quriladi. Dual ta'lim amaliyotga yo'naltirilganlik, ayniqsa, mutaxassis faoliyati modeliga asoslangan maqsadli o'qitish mazmunida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday holda, birinchisi ikkinchisining mantiqiy natijasiga aylanganda, kasbiy va ta'lim standartlarini uyg'unlashtirishning eng yuqori darajasi haqida gapirish mumkin.

Amaliyotga yo'naltirilganlik dual ta'lim tizimidagi pedagogik va texnologik innovatsiyalarning uyg'unligi bilan chambarchas bog'liq. Ishlab chiqarishda o'qitish o'quvchilarga zamonaviy texnologik jarayonlar hamda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari bilan tanishish imkonini beradi, bu esa bitiruvchilarning texnik dunyoqarashini sezilarli darajada kengaytiradi va ularni innovatsion bilimga asoslangan iqtisodiyotga tez integratsiyalashish imkonini beradi. Texnologik innovatsiyalarning rivojlanishiga pedagogik innovasiyalar yordam beradi, ular yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, real ishlab chiqarish bilan bog'liq holatlar, loyiha texnologiyalari, o'qitish--amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat o'qitish, balki joriy o'quv natijalarini doimiy amaliyotga tatbiq etib borish imkonini beradi.

A.K.Avliyakulov professioal ta'limning texnika yo'nalishlari uchun dual ta'limni joriy etish masalalarini tahlil etib, "Mashinasozlik texnologiyasi" ixtisosligi bo'yicha dual ta'lim asosida to'rt bosqichli o'quv jarayonlarini tashkil etish mexanizmini taklif etadi:

1-bosqich–ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni tuzish, ijtimoiy sheriklar bilan aloqa o'rnatish rejasini tuzish; 2-bosqich – kollej va korxona o'rtasida dual ta'limni amalga oshirish uchun

javobgarlikni belgilash; 3-bosqich – o'quv jarayoni elementlarini yangilash. 4-bosqich – aprobatsiya va sozlash. [2]

Professional ta'limda o'qitishning dual ta'lim shakli nazariy tayyorgarlik va amaliy ishlarning uyg'unligini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etishning asosiy bosqichlari etib quyidagilarni belgilaymiz:

1. O'quvchilar ehtiyojlari va mehnat bozorini o'rganish.

Birinchi qadam o'quvchilar ehtiyojlari va mehnat bozori talablarini tahlil qilishdir. Bu muayyan kasb uchun zarur bo'lgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zida mujassam etgan o'quv kursini yaratadi.

2. Tashkilot va korxonalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish.

O'quvchilarni amaliyot o'tash joylari bilan ta'minlay oladigan tashkilot va korxonalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish muhim. Bu o'quvchilarga zarur amaliy tajriba orttirish va ish muhitini tushunish imkonini beradi.

3. O'quv-uslubiy asoslarni ishlab chiqish.

Keyingi qadam nazariy o'rganish va amaliy ishlarni uyg'unlashtirgan o'quv dasturini ishlab chiqishdan iborat. Bunga ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya ishlari, tadqiqot loyihalari, amaliyot yoki nazariy o'rganish va amaliy ishlarni birlashtirgan o'quv dasturini ishlab chiqish, dual ta'lim shaklini tashkil etishning asosiy bosqichidir.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot ishi doirasidagi tahlillar dual ta'lim asosida professional ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining didaktik asoslarini shakllantirish ta'lim jarayoni natijadorligini ta'minlay oladi degan xulosani berdi. Albatta, dual ta'limning sifatiga ta'sir etuvchi sabablarning ta'sir doirasi turlicha. Biz bu jarayonda to'g'ri tashkillashtirilgan didaktik va metodik asoslarning ta'sir doirasi muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etib, dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash jarayonini didaktik asoslarining quyidagi komponentlarini belgilaymiz (1-rasm):

1-rasm Dual ta'lim asosida professional ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining didaktik asoslari.



2-rasm. Tashkiliy–didaktik komponent bosqichlari.

ISSN 2181-3841

Tashkiliy –didaktik komponent dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining dastlabki didaktik masalalarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentda asosiy e'tibor dual ta'lim asosida o'qitish jarayonini tashkil etishda ehtiyojlar – maqsadlar – jarayon – natija kontekstining tashkiliy aspektlarining uzviyligi va izchilligini ta'minlashga qaratiladi. Bu komponent to'rt bosqich yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb belgiladik (2-rasm):

Ehtiyoj-maqsad bosqichi. Tashkiliy-didaktik masalalarni ishlab chiqishda birinchi qadam ta'lim maqsadlari va ta'lim natijalarini aniqlashdir. Bu mehnat bozori talablari, ish beruvchilar va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak. Dual ta'limda ishtirokchi tomonlar ehtiyojlarining muvofiqlik nuqtalarida kesishuvi samarali natijalarga erishishni ta'minlay oladi.

Tizim-mazmun bosqichi. Keyingi qadam ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish tashkiloti mavjud shart-sharoitlari va imkoniyatlarini yaxlitlash orqali bajariladi. Bunda har ikki kampusning jo'g'rofiy joylashuvi, moddiy-texnik imkoniyatlari, faoliyat grafigi, kadrlar salohiyati, ta'lim oluvchilarga yaratilishi mumkin bo'lgan sharoitlar, texnika xavfsizligi darajalari va boshqa jihatlari muvofiqlashtirilgan holda tizimlashtiriladi.

Jarayon-element bosqichi. Bu jarayonda dual ta'lim ishtirokchilari imkoniyatlari, talablari va ehtiyojlari asosida ma'lum me'yoriy-huquqiy asoslar doirasida amaldagi meyoriy hujjatlar(o'quv rejasi, o'quv dasturi) elementlari joriy etiladi, ular tuzilish, hajm va mazmun jihatdan optimallashtiriladi.

Jarayon-tahlil bosqichi. Bu bosqich yuqoridagi bosqichlarni sintezlash va takomillashtirib borish vazifasini bajaradi. Bunda shakllantirilgan ta'lim maqsadlari mazmuni, tizimlashtirilgan jarayon grafik holatlari o'rganib boriladi. Jarayonga tatbiq etilgan didaktik-metodik ta'minotning imkoniyat va to'siqlari tahlil etib boriladi.

Dual ta'lim asosida professional ta'lim o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni didaktik asoslarining ikkinchi komponentni sifatida mazmunli-didaktik komponentni belgiladik (3-rasm):

Motivasion-akmeologik bosqichda dual



3-rasm. Mazmunli-didaktik komponent bosqichlari.

ta'limda foliyat olib boruvchi ta'lim beruvchilar tomonidan ma'lum kasb kvalifikasiyasi uchun belgilangan malaka talablarida ko'rsatilgan umumiy kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish va rivojlantirishga ustuvorlik beriladi. Shu bilan birga ushbu kompetensiyalar dual ta'lim ishtirokchisi bo'lgan korxona-tashkilotning korporativ etikasi bilan yaxlitlanadi.

Ontologik-kognitiv bosqich dual ta'limdagi nazariy bilimlarni ishlab chiqarish jarayoni epizodlari bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Texnologik-faoliyatli bosqich dual ta'limning asosiy didaktik mazmunini o'zida mujassam etadi.

Bu bosqichda ta'lim beruvchilarning o'zaro sifatli hamkorligi asosiy element bo'lib, bu jarayonda ta'limning real ishlab chiqarish jarayoniga integrallashuvi yuzaga kelishi lozim.

Refleksiv bosqich ta'lim oluvchilarda belgilangan kasb doirasida umumiy va kasbiy kompetensiyalarning shakllanganlik va rivojlanganlik ko'rsatkichlarini o'zida namoyon qiladi. Bu bosqichda har ikki ta'lim shakli natijalari sintezlanishi, nazariy ta'lim samaradorligi va amaliy ta'lim natijadorligini adekvat aniqlashda ta'lim oluvchilar tomonidan taklif etilgan baholash materiallari belgilab beradi.

Jarayonli-didaktik komponent dual ta'lim asosida professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'quv topshiriqlari ishlab chiqish masalalarini o'z ichiga oladi (4-rasm):

4-rasm. Jarayonli-didaktik komponent tarkibi.

Tadqiqotimiz doirasida dual ta'lim uchun murakkablik darajasi bilan farqlanuvchi o'quv topshiriqlari shakllantirildi. Ushbu topshiriqlarning darajalanishi ikkita asosiy vazifani bajaradi:

a) o'quv jarayonini soddadan-murakkablikka tamoyili bo'yicha algoritmlaydi;

b) ta'lim natijalari va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini belgilashda asos vazifasini bajaradi.

Jarayonli-didaktik komponenti uchun taklif etilgan bosqichlar va ularning o'quv topshiriqlarini umumlashtiramiz(1-jadval).

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki professional ta'lim tizimida dual ta'limning didaktik asoslarining samaradorligi ushbu jarayon ta'lim beruvchilarning (professional ta'lim pedagoglari, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, korxona/tashkilot tomonidan biriktirilgan ustozlar) hamkor-

ISSN 2181-3841

1-jadval

Jarayonli-didaktik komponentning o'quv topshiriqlari

Topshiriq darajasi	O'quv topshirig'i tipi	Topshiriq mazmuni
A	Modellashtirilgan	O'quvchini ma'lum bir jarayonni nazariy izohlash, izchilligini ta'riflash, nusxalash, tayanch iboralar tuzish, jadval, test, savol tuzishga yo'naltirish
B	Yo'nalishli-amaliy	Ma'lum jarayonni nazariy-amaliy izohlash, algoritm asosida harakatlar ketma-ketligini bajarish, o'quvchini jarayonni tahlil qilishga, nazorat ostida mustaqil harakatlanishga yo'naltirish
C	Yo'nalishli-mustaqil	O'quvchini ma'lum jarayondagi amaliy harakatlarni notanish vaziyatlarda qo'llay olishga, variativ faoliyatga rag'batlantirish
D	Mustaqil-innovatsion	Natijadan-maqsadga tamoyili asosida muayyan talablarni belgilash, o'quvchining mustaqil-innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash

likdagi faoliyati takomillashtirib borilishini taqozo etadi. Kadrlar tayyorlashning samarali usullaridan biri ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar sohasida zarur kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan, lekin maxsus pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislarni pedagogik faoliyatga jalb etishdir. Bunday mutaxassislar uchun professional ta'lim muassasalari oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda umumiy va kasbiy pedagogika muammolarini, korporativ pedagogika va tashkiliy psixologiya, dual ta'limning didaktik muammolarining turli jihatlarini ochib beruvchi tematik bloklarni o'z ichiga olgan psixologik-pedagogik fanlar sohasida modulli malaka oshirish dasturini taklif qilishlari maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Самолдина, Л. Н. Научно-методическое обеспечение дуальной целевой профессиональной подготовки студентов в ССУЗ дис. ... кандидата педагогических наук : 13.00.01 / Самолдина, Л. Н.; [Место защиты: Научно - исследовательский институт развития профессионального образования (НИИРПО) Департамента образования г. Москвы] Москва, 2008 - Количество страниц: 272 с
2. A.K.Avliyakulov. Professional ta'lim tizimida dual o'qitish. O'quv qo'llanma. -Toshkent.: 2024-y.
3. Струк Е. Н. Инновационная парадигма образования в изменяющемся мире // Экономика образования. 2012. №1.
4. Андреев В.И. Глобализационные вызовы качеству жизни, качеству образования и саморазвитию человека XXI века // Образование и саморазвитие. 2010. № 1 (17). С. 3–12.

SIMULYATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARDA PROFESSIONAL KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

G'afforov O'ktamjon Ravshanovich,
Buxoro muhandislik texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot yo'nalishidagi o'quvchilarda professional ko'nikmalarni rivojlantirish uchun simulyatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda simulyatsion ta'lim vositalari orqali amaliy ko'nikmalar, stressga chidamlilik, qaror qabul qilish qobiliyati va o'ziga ishonch kabi muhim jihatlar shakllantirilishi o'rganiladi. Maqolada simulyatsion ta'lim samaradorligini oshirish indikatorlari va uning tibbiy ta'limga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, simulyatsion texnologiyalar yordamida talabalar real vaziyatlarda ko'nikmalarini mukammallashtiradi va malakali mutaxassis sifatida shakllanadi.

Kalit so'zlar: Simulyatsion ta'lim texnologiyalari, professional ko'nikmalar, tibbiy ta'lim, indikatorlar, stressga chidamlilik.

Аннотация: В статье рассматривается методика формирования профессиональных навыков у студентов медицинских специальностей с использованием симуляционных образовательных технологий. В исследовании изучаются такие ключевые аспекты, как практические навыки, устойчивость к стрессу, способность принимать решения и уверенность в себе, которые развиваются через симуляционные тренировки. В статье анализируются показатели эффективности симуляционного обучения и его влияние на медицинское образование. Результаты исследования показывают, что благодаря симуляционным технологиям студенты совершенствуют свои навыки в реалистичных условиях, подготавливаясь к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Симуляционные образовательные технологии, профессиональные навыки, медицинское образование, индикаторы, устойчивость к стрессу.

Annotation: This article explores the methodology for enhancing professional skills among medical students through the use of simulation-based educational technologies. The study investigates how essential aspects such as practical skills, resilience under stress, decision-making abilities, and self-confidence can be developed through simulation training. The article analyzes indicators of simulation training effectiveness and its impact on medical education. Findings reveal that simulation technologies allow students to refine their skills in realistic scenarios, preparing them as competent professionals for real-life challenges.

Key words: Simulation-based educational technologies, professional skills, medical education, indicators, stress resilience.

Mavzuning dolzarbligi. Tibbiyot yo'nalishidagi professional ta'limda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarurati bo'lib hisoblanadi. Tibbiyot sohasidagi ta'lim muassasalarida o'quvchilar real amaliyotga tayyor bo'lishlari, kelgusida yuzaga keladigan murakkab va xavfli vaziyatlarni muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega. Kasbiy ta'limda nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb talabi bo'lib, o'quvchilarni

ISSN 2181-3841

real sharoitga imkon qadar yaqinlashtirilgan muhitda tayyorlash orqali ushbu maqsadga erishish mumkin [1]. Ayniqsa, simulyatsiya texnologiyalari orqali yaratilgan o'quv muhiti o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar haqida kengroq tushuncha berishga xizmat qiladi. Simulyatsion ta'lim texnologiyalari tibbiyotda yuqori xavf darajasiga ega bo'lgan vaziyatlarni xavfsiz tarzda mashq qilish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarni amaliy jarayonlarga tayyorlaydi va ularda kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ta'lim texnologiyalari o'quvchilarni qiyin va kutilmagan holatlarga, masalan, hayotiy xavf tug'diradigan favqulodda vaziyatlarga qanday qaror qabul qilish kerakligi va qanday harakatlar qilish lozimligini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Simulyatsiya texnologiyalari yordamida o'quvchilar real sharoitdagi tajribalarni xavfsiz muhitda orttiradi, bu esa ularning kelajakdagi faoliyatida aniqlik va ishonchlilikni oshiradi[2].

Tadqiqot maqsadi va vazifalari:

O'quvchilarda professional ko'nikmalarni rivojlantirish uchun simulyatsion ta'lim metodikasini takomillashtirish, o'qitish samaradorligini oshirish va o'qitish jarayonidagi qiyinchiliklarni tahlil qilishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi zarur:

- *Simulyatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy qilish orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.*
- *O'quvchilarda stressga chidamlilik va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.*
- *Simulyatsiya texnologiyalari orqali o'qitish samaradorligini oshirishning asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish.*
- *Simulyatsion ta'limni takomillashtirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni o'rganish va ularga yechimlar topishdan iborat.*

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

O'zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666-son "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari tug'risida"gi qaroriga asosan mamlakatimizda 47 ta tibbiyot kolleji Aby Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari etib qayta tashkil etildi.

Respublikamizda professional ta'lim sohasida qisqa vaqt ichida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Professional ta'lim mazmunini belgilovchi hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan malaka talablarini ishlab chiqilishi, o'quv reja va dasturlarni kvalifikatsiya darajalarini belgilash orqali takomillashtirilishi, bitiruvchilarga kompetensiya talablarini qo'yilishi, kasbiy imtihonlarni o'tkazish jarayonlarini takomillashtirilishi hamda kompetensiyalarni baholash markazlarini tashkil etilishi bunga yaqqol dalildir[3]. Shu jumladan, professional ta'lim tizimi tarkibida tibbiy ta'limni modernizatsiyalash, ushbu sohaga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, tibbiy ta'limning samarali tizimini yaratish, tibbiy sohasini kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan mazkur yondashuv asosida amalga oshirilgan tadqiqot ishlaridan tahlillar keltirib o'tamiz.

A.K.Jamalov tomonidan "Umumta'lim maktabi - kasb-hunar kolleji" tizimining o'zaro xamkorligida o'quvchilarni tibbiy faoliyatga yo'naltirish usullari, o'rta tibbiy xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim innovatsiyalarini tadbiq etishning bosqishlari, pedagogik shart-sharoitlari o'rganilgan.

S.T.Tursunov o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida "sog'lomlashtirish

maktabi" ni tashkil etish orqali ta'limda valeologik yondashuvni rivojlantirish, sog'lom avlodni kamol toptirish hamda sog'lomlikni ta'minlovchi pedagogik tizimning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, tamoyillari va uning rivojlanish darajasini baholash mezonlarini aniqlagan

Y.N.Taxtarova xamshiralik ishida mehnatni me'yorlash tizimini takomillashtirish maqsadida hamshiralar kasbiy faoliyatining funksional tuzilishini o'rganish bilan birga, tibbiy xodimlar faoliyati mazmunini baholash, hamshiralarning kasbiy vazifalarini zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda muvofiqlashtirish masalalarini o'rgangan.

S.I.Gluxox tomonidan bo'lajak hamshiralarni uzluksiz ta'lim jarayonida kasbiy faoliyatda tayyorlashga integral-faoliyatli yondashuvining o'ziga xosligi aniqlandi, shuningdek xamshiraning kasbiy kompetensiyasi va harakatchanligi tushunchalariga oydinlik kiritgan.

A.K.Jamolovning ta'kidlachicha Resrublikamizda aholi sonining oshib borishi, tibbiyot sohasining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi, zamon talablari asosida xorijiy davlatlar bilan doimiy aloqani ta'minlovchi zamonaviy tibbiyot klinikalarini tashkil etilishi (Akfa Medline, Hayat, Horev, Salus Vita) tibbiyot sohasi uchun raqobatbardosh o'rta tibbiy xodimlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot muammosi yuzasidan Respublikamizda va xorijiy davlatlarda professional ta'lim tizimida o'rta tibbiy xodimlarni tayyorlash myammolari bo'yicha sanoqli ilmiy ishlar olib borilgan[5]. Shuningdek, biz o'tkazgan ilmiy izlanishlar natijasida shuni aytish mumkinki, tibbiyot kollejlari va texnikumlarida ta'lim jarayonida hozirda halqaro tajribalarda keng qo'llanilayotgan simulyatsion ta'lim texnologiyalaridan va telemeditsina imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, bo'lajak o'rta tibbiy xodimlarning kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish masalalari bo'yisha tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

So'nggi yillarda tibbiy ta'limda simulyatsion texnologiyalar klinik ko'nikmalarni o'zlashtirishda asosiy usullardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Hozirgi zamon talabi tibbiy yordam ko'rsatishning yanada samarali shakllarini tatbiq etishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi aholisiga, jumladan, bolalarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish zarurati simulyatsion texnologiyalarga bo'lgan talabning oshishiga sabab bo'ldi. Simulyatsiya amaliy ko'nikmalar, algoritmlar va kommunikatsiyani ishlab chiqishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi[7].

Simulyatsiya usullarining asosiy xususiyati - bu intellektual faoliyat, uning davomiyligi va barqarorligi, bu qisqa muddatli epizodik emas, balki qaror qabul qilishda doimiylik, mustaqillik va ijodiy xarakter (ishtirokchilar doimo bir-biri bilan o'zaro aloqada) va mashg'ulotning intensivligi (mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirish bilan bog'liq emas material hajmini oshirish, lekin uni qayta ishlash chuqurligi va sifati tufayli). O'qitishning Simulyatsiya usullari - bu vaziyatni tahlil qilishda kasbiy faoliyatga taqlid qilish va o'quv materialini hamshiraning amaliy faoliyatiga sezilarli darajada yaqinlashishi tufayli o'qitishning yuqori samaradorligini nazarda tutadi, bu esa yosh mutaxassislarni kasbiy muhitga kirish va moslashish jarayonini yengillashtirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Simulyatsion ta'limga asoslangan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. O'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida virtual simulyatsion texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan o'quvchilarni motivatsiyasini oshirish.

2. Ta'lim jarayoniga barcha o'quvchi-talabalarni jalb eta olish.

3. O'quvchilarning psixologik

ISSN 2181-3841

tayyorgarligiga e'tibor berish.

4. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchi-talabalar soni ko'p bo'lishi mumkin emas. Ularni kichik guruhlarga ajratish lozim.

5. Simulyatsion ta'limni amalga oshirishda xonaning tayyorligiga e'tibor berish, simulyatsion vositalarni tayyorlash kerak.

6. Pedagog va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga erishish.

O'qituvchi o'quvchi bilan (yoki o'quvchilar kichik gupuhi bilan) loyiha vazifasini muhokama qiladi: o'quvchi tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan maqsad, vazifa va myammo qo'yiladi. Loyihani olgach, o'quvchilar loyihalash bosqichini bajarishga kirishadilar: savol maqsadini o'rganish, nazariy mazmun va empirik dalillarni tahlil qilish hamda gipoteza ishlab chiqish. Keyin modellashtirish bosqichi keladi: ta'lim jarayoni, alohida dars yoki darsdan tashqari o'qishning faraziy modeli quriladi, zaryr hollarda o'quvchilarning tadqiq qilish va shakllantirishga ishora qiluvchi (ularning maqsadli alomatlari, tuzilmasi, darajasi va b.) ruhiy va shaxsiy sifatlari sxematik modellashtiriladi, o'quvchilar o'quv faoliyati tuzilmasi, uning xususiyatlari yoshga bog'liq holda aniqlashtiriladi. Keyin konstruksiyalash

bosqichi keladi: maqsadlarning nomlanishini ishlab chiqish, pedagogik vositalar tuzilmasini ishlab chiqish va saralash (o'quv materiali mazmuni, ta'lim shakllari va metodlari va b.), loyihalanayotgan pedagogik tizim yoki texnologiyani asoslash[9]. Loyihani empirik tadqiqotni bajarish bosqichi bilan yakunlanadi: tadqiqotni ishlab chiqish va boshqa tadqiqot shakllari empirik ma'lumotlarni olish va tadqiqot natijalarini baholash, amaliyotga joriy etish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Bundan tashqari qabul qilingan an'anaviy ta'lim tizimi mantiqiy sxemasida atrof-olam tahliliga turli shakllarda amalga oshiriluvchi: oddiy bajarishda reproduktivga, o'qituvchining qisman izlanuvchanlik topshiriqlaridan tadqiq qilinuvchi loyihani mustaqil bajarishgacha bo'lgan sintez sxemasi qo'shiladi[10].

Bunda o'qituvchining roli o'zgaradi: faqat bilim beruvchi emas balki, loyiha va hamkorlarni boshqaruvchilik polini bajaradi. Avtoritar pedagogika o'rniga hamkorlik pedagogikasi keladi:

asosiy urg'u o'quv faoliyatining faol ko'rinishini tashkil etishga qaratiladi;

o'qituvchi faqatgina o'quv axborotini berib qolmay, ta'lim vositalarining yetarli minimal komplektini taqdim etuvchi pedagog-menejer va ta'lim rejissyori vazifasini bajaradi;

o'quv axborotidan ta'lim maqsadida emas, balki o'quv faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida foydalaniladi;

ta'lim oluvchi o'qituvchi bilan bir qatorda faoliyat subyekti sifatida ishlaydi va uning shaxsiy rivojlanishi asosiy ta'lim shakllaridan biri sifatida ajralib chiqadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Simulyatsiya vositalarni amaliy mashg'ulotlarda kompleks amalga oshirish quyidagi pedagogik shartlarni talab etadi:

- o'quv va simulyatsion ta'lim muhitini yaratish;

- o'qituvchilarni Simulyatsiya o'qitish usullari kompleksini amalga oshirishga tayyorlash, virtual simulyatsion resurslarni yaratishga tayyorlash;

- o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab shiqish va qo'llash (o'quv dasturiy ta'minot va o'quv

hujjatlari);

- malaka talablari va ish beruvchi talablariga javob beradigan bo'lajak hamshiraning amaliy kompetensiyasini shakllanganlik darajasini baholash uchun diagnostika vositalarini ishlab chiqish.

Tashxislash jarayonida o'quvchilarda amaliy kompetenlikni shakllanganligi dinamikasini nazariy asoslab berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki ilmiy asoslangan diagnostika metodlarsiz va baholashlarsiz o'quvchilarning amaliy kompetentlik darajasini bilish mumkin emas[11]. Tashxislash amaliy kompetentlik darajasinining shakllanganligi bo'yicha amaliy xulosalar chiqarishga va ta'lim metodlarining samaradorligi borasida fikr yuritishga imkon beradi. Tashxis natijalari o'quvchilarda amaliy kompetentlikni shakllantirishda foydalanilgan metodlarning qaysi biri afzal ekanini bilish hamda ta'limi shakl va vositalari reytingini aniqlash uchun muhim asos bo'ladi.

Amaliy mashqlarni bajarish vaqtida quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

1. O'quv-moddiy sharoitlar yaratilgan bo'lishi (Simulyatsiya vositalari, manikenlar, moslamalar va trenajyorlarning mavjud bo'lishi).

2. Tibbiy muolajalarni bajarish usullarining yorqin va qulay ko'rsatilishini hamda o'quvchilarning bu usullarni to'g'ri va to'liq o'zlashtirishini ta'minlash.

3. Bevosita kuzatish va nazorat qiladigan qurilmalardan foydalanish yo'li bilan mehnat xarakatlarini mustaqil nazorat qilish vazifasini amalga oshirish uchun yo'l-yo'riqlar berish.

4. O'quvchilarning tibbiy amaliyotda yo'l qo'yadigan kamchiliklarga tezda barham berish yo'llari o'ylangan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, amaliy mashg'ulotlarda mashq metodidan foydalanish o'quvchilarda mustaqillik, qarorlar qabul qilish jarayonida tahliliy ko'nikmalar, shuningdek harakatlardagi qat'iylik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[13].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Simulyatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish professional ko'nikmalarni shakllantirishda quyidagi afzalliklarga ega:

1. Realistik muhitda amaliy tajriba: Simulyatsiyalar orqali o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarni boshdan kechirish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z kasbiy ko'nikmalarini xavfsiz va boshqariladigan muhitda rivojlantirish imkonini beradi.

2. Xatolar orqali o'rganish: Simulyatsiyalar yordamida xatolarni tahlil qilish va ulardan o'rganish jarayoni osonlashadi. O'quvchilar o'zlarining ish uslublarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Ijtimoiy va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish: Ko'plab simulyatsiyalar guruh bo'lib ishlashni talab qiladi, bu esa o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini ham shakllantiradi va mustahkamlaydi.

4. Shaxsiylashtirilgan ta'lim: Har bir o'quvchiga mos keladigan darajada murakkablikni belgilash orqali ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish imkonini beradi. Bu esa har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga mos keladigan usulni tanlashda yordam beradi.

5. Masofa ta'lim imkoniyatlari: Simulyatsion texnologiyalar internet orqali ham taqdim etilishi mumkin bo'lganligi sababli masofa ta'limi uchun ham juda qulaydir, ayniqsa chekka hududlardagi o'quvchilar uchun.

6. Nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi: Bu texnologiyalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi va o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliy muammolarni yechishda qo'llashni o'rganadilar.

Shunday qilib, simulyatsion ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilar amaliy tajriba orttirib, kasbiy faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan real muammolarni hal qilishga tayyorlanadilar va bu orqali o'z professional ko'nikmalarini kengaytirish imkoniga ega bo'ladilar.

ISSN 2181-3841

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gulov, N., & To'raev, S. (2019). Pedagogik texnologiyalar va ta'lim sifatini oshirishda simulyatsion usullar. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
2. Ahmadjonov, R. (2021). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning kasbiy o'qitishda qo'llanilishi. Toshkent: O'zbekiston Pedagogika Instituti.
3. Brown, G., & Green, A. (2020). Simulation in Education and Training: Theory and Practice. New York: Routledge.
4. Qodirova, Z. (2022). Simulyatsion texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni. O'zbekiston ta'lim va ilmiy jurnalida chop etilgan maqola, 15(2), 45–51.
5. Schank, R. C. (2018). Education Out of the Box: The Role of Simulation in Learning. London: Routledge.
6. Norbekov, H., & Rahmonov, T. (2020). Pedagogik amaliyotda simulyatsion usullarning qo'llanilishi. Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
7. Gibbons, A. S., & Fairweather, P. G. (2019). Designing Instructional Simulation: Theory and Implementation. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
8. Muminov, F. (2021). «Simulyatsion o'quv texnologiyalari va ularning professional rivojlanishga ta'siri.» O'zbekiston Pedagogika jurnalida chop etilgan maqola, 18(3), 33–40.
9. Salas, E., Wildman, J. L., & Piccolo, R. F. (2009). «Using Simulation-Based Training to Enhance Management and Leadership Development.» Academy of Management Learning & Education, 8(4), 559–573.
10. Khakimov, U. (2023). O'zbekistonda simulyatsion texnologiyalarning qo'llanilishi va rivojlantirish istiqbollari. Toshkent: Akademik Nashriyot.
11. Gaffarov L. X., Qalandarov J. S. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini individuallashtirishning tashkiliy jihatlari //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 1 SPECIAL. – C. 147-151.
12. Gaffarov L. X. Malaka oshirish ta'lim tizimida islohotlar: Innovatsion G'oyalar //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 5. – C. 43-49.
13. Mankiw, N. G. (2021). Principles of Economics. 9th Edition. Cengage Learning.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГРУППОВОЙ РАБОТЫ НА ОБУЧЕНИИ

Кадирова Гулнора Хасановна,
Докторант Института развитие профессионального обучения

Аннотация: Работа в группах становится не только более привлекательной альтернативой четко регламентированному управлению учебным процессом, но независимо от того, работают ли группы над одной или разными темами, групповая работа часто оказывается более инновационной и эффективной по сравнению с работой группе или индивидуально. Групповая работа мотивирует самостоятельной активности учащихся. Большую часть времени учащиеся направляют на решение проблемных ситуаций. В статье рассматриваются особенности организации групповой работы и приводятся педагогические аргументы в пользу использования данной формы работы на уроке

Ключевые слова: групповая работа, коммуникативная компетенция, индивидуализация, мотивация, обучение в сотрудничестве.

Annotatsiya. Guruhlarda ishlash nafaqat ta'limning o'quv jarayonini ma'lum reglamentga asoslanib tartibli boshqarishning mutanosib alternativi sifatida, balki guruhlarning bir yoki ber necha mavzularda ishlashidan qat'iy nazar, individual yoki frontal ta'lim shakli bilan qiyoslanganda guruhda ishlash innovatsion va samarador hisoblanadi. Guruhda ishlash ta'lim oluvchilarning mustaqil faolligini rag'batlantiradi. Ta'limda ta'lim oluvchilar asosiy vaqtini muammoli vaziyatlarni yechimiga yo'naltiradi. Ushbu maqolada guruhlarda ishlashni tashkillashning o'ziga xosligi va ushbu shaklni mashg'ulot davomida qo'llashdagi afzalliklarining pedagogik argumentlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: guruhda ishlash, kommunikativ kompetentlik, individuallashtirish, motivatsiya, hamkorlikda o'qitish.

Annotation: Group work is not only a more attractive alternative to the strictly regulated management of the educational process, but, Regardless of whether groups are working on the same or different topics, group work often proves to be more innovative and effective than working in a plenary session or alone. Students have more time for independent preparation, and a high level of independent activity motivates and reveals them. The article discusses the features of the organization of group work in the classroom and provides pedagogical arguments in favor of using this form of work in the classroom.

Key words: group work, communicative competence, individualization, motivation, learning in collaboration.

Групповая работа относится к коллективным формам социального взаимодействия - ее характеризует непосредственное взаимодействие между учащимися и их совместная согласованная деятельность. Согласно определению Е.Н. Щурковой, «групповая работа – это организованное взаимодействие двух или более индивидов как совокупного субъекта с миром, объединенных единой целью и совместными усилиями по ее достижению» [1, 4].

При использовании методов анализа материала часто теряется фокус на ключевых компетенциях и основах самостоятельного обучения.

Поэтому на этом этапе следует сделать паузу и проверить содержание, чтобы понять, где имеет смысл работать в малых группах. Хотя распространенная критика

ISSN 2181-3841

в адрес неподготовленной групповой работы, возможно, и справедлива, есть и веские причины варьировать социальные формы и работать в малых группах или вдвоем.

Многие ученные перечисляют условия, при которых групповая работа эффективна и результативна (рис. 1):[3]

Рис. 1. Факторы влияющие на групповю эффективность

- Если группа достигает или производит что-то, чего не смог бы достичь отдельный человек.
- Если группа производит что-то быстрее, более точно, более изобретательно и в большем количестве.
- Если человек чему-то учится у других или может перенять, извлечь пользу или улучшить свою собственную работу.
- Если человек может внести свой вклад в общее дело и определить свою (групповую) эффективность в этом процессе; если он может развить в себе дух коллективизма и чувство общности и улучшить свою способность работать в команде.

Во время групповой работы участники курса работают над согласованным заданием в течение определенного времени. Обычно одновременно работают несколько небольших групп (от трех до шести человек).

Оптимальной величиной группы является 4–6 человек. При меньшем количестве участников работа в группе может оказаться неэффективной, а при большем количестве участников не все учащиеся будут принимать участие в обсуждении [2].

Однако важно, чтобы группам были даны четкие задания (желательно в письменном виде), чтобы у них были хорошие условия работы, и чтобы они были заранее проинформированы о том, какой результат им предстоит получить.

Работа в группах важна для отработки ключевых компетенций. Групповые задания можно разделить на четыре типа. В зависимости от типа задания различаются критерии оценки, форма представления и результаты обучения в области ключевых компетенций.

Большим преимуществом групповой работы является то, что этот метод устанавливает контакт - контакт между участниками, а также контакт с темой.

Это способствует активному обучению и переносу знаний. Кроме того, группа может учиться индивидуально, приближенно к практическому опыту отдельных людей.

Также следует использовать группы ропота (ученики сидят рядом и тихо разговаривают друг с другом), добровольную групповую работу (вместо индивидуальной) и индивидуальную работу. Разрешите людям разговаривать во время индивидуальной работы, что автоматически приводит к сотрудничеству и способствует обучению.

Партнерская работа часто бывает очень эффективной, особенно для тех, кто любит учиться через диалог.

Правила групповой работы:

- От маленьких к большим группам
- От кратких к длительным рабочим фазам
- От простых к сложным задачам
- От краткого представления результатов до подробных презентаций
- Четкие задания с инструкциями по теории, подходу, цели, срокам и использованию результатов.

При работе в группе у учителя есть четыре обязанности:

Сформулируйте и представьте задание, по возможности в письменном виде.

- Эффективно и правильно классифицируйте группы.
- Будьте доступны для вопросов во время групповой работы. Ходить по группам не всегда имеет смысл, здесь нужно взвесить риски патернализма и чрезмерной требовательности.
- Представьте результаты или выводы.

Типы групп.

Тип 1: Группы экспертов

Экспертные группы работают над разными темами: каждая группа работает над своей подтемой. Такая форма работы также известна как групповая головоломка и стала очень популярной, поскольку она эффективна (как и любая другая форма взаимного преподавания и обучения) и позволяет достичь удивительно высокого уровня таксономии.

После групповой работы создаются новые рабочие группы, в которых представлены все первоначальные группы экспертов. Результаты взаимно представляются в этой новой группе. Третья фаза может быть отведена для вопросов. Результаты кратко представляются на пленуме. Однако это может преуменьшить достигнутый успех.

Работа группы может быть оценена по критериям полноты, правильности, подхода и качества совместной работы. Преимущества экспертных групп заключаются в том, что студенты глубоко проработали тот или иной аспект и поэтому могут активно и с интересом воспринимать результаты других. Это повышает мотивацию к углубленному изучению отдельных тем. Ответственность, соблюдение правил и сотрудничество отрабатываются, в частности, в рамках само- и социальной компетенций.

Тип 2: Достижение консенсуса

В каждой группе обсуждается одна и та же спорная тема. Цель - найти консенсус.

После этого консенсус кратко представляется пленуму, и каждая группа в основном представляет свои обоснования и аргументы.

Если в обсуждении присутствуют мнения, взгляды или базовые убеждения, они не оцениваются. В случае объективных тем оценивается обоснованность и полнота аргументов. Проводится анализ процесса (кто определил мнение? Как был достигнут консенсус? Были ли люди, которые молчали? и т. д.).

Преимущества таких дискуссионных групп связаны с участием и социальной компетентностью. В таких группах студенты говорят более развернуто, чем на пленуме. Даже замкнутые студенты могут принять участие в обсуждении. Аргументы отражаются автоматически и завершаются в конце. Формирование мнения и способность к рефлексии и критике отрабатываются, в частности, в

ISSN 2181-3841

рамках само- и социальной компетенций.

Тип 3: Тестирование метода

Каждая группа использует один и тот же "рецепт" для работы над кейсами или произвольными упражнениями. Каждая группа представляет свои результаты на последующей пленарной презентации. При этом необходимо подчеркнуть подход к решению трудностей и важный опыт.

В зависимости от задания презентации, результат может быть оценен с точки зрения правильности и полноты. Подход (указанный) можно проверить на наличие отклонений и связанных с ним выводов. Анализ процесса (Кто внес вклад в успех? Как было использовано время? Что мешало? Что способствовало? и т. д.) может быть проведен, чтобы показать, насколько важно сотрудничество для результатов работы группы.

Преимущество такого типа групповой работы заключается в том, что студенты получают возможность проверить подход на практике, а затем проанализировать его. Организационные навыки, умение сотрудничать и соблюдать правила отрабатываются, в частности, в рамках само- и социальной компетенций.

Тип 4: Разработка теории

Каждая малая группа разрабатывает одну и ту же теорию, например, используя тексты, предположения, диаграммы или другие материалы.

Следует избегать монотонного повторения одних и тех же выводов во время последующей презентации на пленуме.

Преимущество такой работы заключается в том, что студенты могут извлечь пользу из взаимных знаний. Обсуждая на пленуме возможные пробелы, суть проблемы или открытые вопросы, все студенты могут достичь одного и того же уровня. Кроме того, такие дискуссии чаще всего бывают увлекательными. Реалистичная самооценка (признание того, что вы чего-то не поняли), критическое мышление, способность к рефлексии, вербальные навыки (умение объяснять) и умение спорить отрабатываются, в частности, в рамках само- и социальной компетенций.

В зависимости от задания презентации результат может быть оценен с точки зрения правильности и полноты, или же в качестве оценки может быть проведена бережливая оценка. Можно также провести анализ процесса, чтобы показать, что вклад отдельных студентов очень различен и что успех обучения зависит от их индивидуального участия в работе.

Вместо презентации в обычном смысле слова результаты могут быть представлены на рынке или в виде протокола (который можно получить в электронном виде из учебной платформы после занятия), или же в виде своеобразной подиумной дискуссии.

Список литератур:

1. Бобро Т. А. Организация процесса обучения иностранному языку в средних специальных учебных заведениях на основе изучения эписистем // Иностранные языки в школе. 2005. №4.
2. Jones D. J. The station approach: how to teach with limited resources // National Science Teachers Association. – 2007 [Электронный ресурс]. URL: 43 http://www.nsta.org/publications/news/story.aspx?id=53323 (дата обращения: 27.07.2021).
3. Internet nashri: https://bstudy.net/htm/img/12/19405/faktory-vliyayuschie-gruppovuyu-effektivnost-sovmestnoy.png
4. Internet nashri: https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnost-ispolzovaniya-gruppovoy-raboty-pri-obuchenii-inostrannomu-yazyku/viewer

PROFESSIONAL TA'LIMDA "SKAFFOLD" METODOLOGIYASI

Xodjamberdiyeva Dilnoza Baxtiyorovna,

Toshkent viloyati, Angren shahridagi 1-son kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

"Darya" – Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoda kasb-hunar ta'limiga doir birinchi mintaqaviy tashabbusidir. Loyiha 2022-2027 yillar mobaynida mintaqa davlatlarining kasb-hunar ta'limi, bandlikka mas'ul idoralari, tahlil markazlari va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikda amaliyotga tatbiq etiladi.

Ma'lumki, pandemiya davrida butun dunyoda bo'lgani kabi Markaziy Osiyoda ham yoshlar kasb mahoratini oshirish borasida qiyinchiliklarga duch keldi. Qiymati 5 mln yevroni tashkil etgan loyiha doirasida yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasi va malaka oshirishiga alohida e'tibor qaratiladi.

2022-2027 yillarga mo'ljallangan loyiha Yevropa Ittifoqi tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha koordinatori Kristin Xemshemayer xonimdir.

Mazkur loyihalar mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lib, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston davlatlarini professional ta'limdagi malaka oshirish, inklyuziv ta'lim, kasb-hunar o'rga tishga yo'naltirilgan bir nechta moduldan iboratdir.

Ushbu modullardan biri "Skaffold" hi soblanadi. "Skaffold" – bu raqamli, tadbirkorlik, shaxsiy, ijtimoiy, ta'lim va barqarorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan o'quv faoliyatini loyihalashtirmoqchi bo'lgan rasmiy va norasmiy ta'lim sektorlaridagi o'qituvchilar uchun kartalar to'plami. Bu o'qituvchilarga bir nechta asosiy kompetensiyalarni o'zida mujassam etib, o'quvchilar uchun ularning rivojlanishiga ko'mak beradigan o'quv faoliyatini loyihalashda yordam beradi.

Skaffold maqsadi – o'quvchilar uchun mazmunli o'quv faoliyatini har bir kompetensiya nimani o'z ichiga olishi haqidagi muhim bilimlar bilan birlashtirib, o'qitish va baholashni loyihalash bo'yicha ko'rsatmalar bilan uzviyligini ta'minlash orqali Yevropa Ittifoqining asosiy kompetensiya tizimlarini oddiy hamda o'qituvchilar va kengroq aytganda, barcha ta'lim beruvchilar tomonidan foydalanish uchun qulay qilishdir.

Skaffold kartalar jamlanmasi – bu o'qituvchilar uchun kompetensiyaga asoslangan o'rganish tajribasini yaratish uchun innovatsion va amaliy vositadir.

Skaffold - darsga kirishdan oldin ishlatiladigan vosita bo'lib, u sizga darslar va o'quv faoliyatini qanday ifodalash va o'tkazish bo'yicha yordam beradi. Bu har qanday fan sohasiga mos keladi va ta'lim tizimining istalgan darajasida yoki norasmiy ta'limning har qanday turida qo'llanilishi mumkin. Bu o'qituvchilarga o'zlari rejalashtirayotgan

Shaxsiy, ijtimoiy va o'quv kompetensiyalari

Tadbirkorlik kompetensiyalari

Raqamli kompetensiyalar

Barqaror rivojlanish sohasidagi kompetensiyalar

ISSN 2181-3841

ta'lim faoliyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

Xususan, 2024-yil 15-17-aprel kunlari "Darya" loyihasi doirasida Qozog'istonning Astana shahrida o'tkazilgan mintaqaviy seminarda bizning yurtimizdan ham 18 nafar professional ta'lim tizimi xodimlari va o'qituvchilari ishtirok etishdi. O'tkazilgan seminar-treningda Yevropa standartlari asosida ishlab chiqilgan, o'quv jarayonlarini tashkil etish hamda ta'lim jarayonida foydalanishni o'z ichiga olgan "Skaffold" kartalaridan foydalanish ko'nikmalari o'rganib chiqildi.

Bugungi kunda ushbu ko'nikmalar asosida Skaffold kartalarini qo'llash, o'quv jarayonida foydalanish bo'yicha hududlarda professional ta'lim muassasalari xodimlariga seminar-treninglar tashkil etilmoqda.

Skaffold besh guruhga bo'lingan 102 ta kartadan iborat. Bu o'qituvchi(lar)ga rejalashtirish jarayonining turli bosqichlari bo'yicha va o'quv faoliyatini loyihalashda yordam beradi.

Skaffold quyidagi kartalar guruhlaridan iborat:

1. Sozlash kartalari sizga o'quv muhitini aniqlash va rejalashtirishni boshlashdan oldin barcha kerakli ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi. Faoliyat qancha vaqt davom etishi mumkin, o'quvchilar kimlar, faoliyatning maqsadlari qanday va hokazo.

2. Rejalashtirish kartalari o'quv faoliyatingizni rejalashtirishga yordam beradi. Ushbu kartalar raqamlangan va belgilangan tartibda joylashtirilishi kerak. Ular faoliyatni qurish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni tanlashdan tortib, har doim vaziyatni hisobga olgan holda dars jadvalini tuzishgacha harakatlarni ko'rsatadi.

3. Kompetensiya kartalari Yevropa Ittifoqining to'rtta tizimidagi (DigComp, LifeComp, EntreComp va GreenComp) kompetensiyalarni ifodalaydi. Har bir karta boshqa kompetensiyalarga o'zaro bog'langan va tegishli o'zaro faoliyat kompetensiyalari bilan vizual tarzda bog'langan. Shunday qilib, siz kerakli kompetensiyalarni tanlashingiz va ular o'rtasida yangi original aloqalarni yaratishingiz mumkin. Transversal kompetensiya kartalari to'rtta Yevropa Ittifoqi doirasini kesib o'tgan kompetensiyalarni ifodalaydi. Ular navigatsiya va ramkalar kompetensiyalarini uyg'unlashtirishda yordam beradi.

4. O'qitish usullari kartalari ta'lim maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar jamlanmasini taqdim etadi. Ular ushbu usulni amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan mos o'qitish usullarini taklif qilib, tanlashga yordam beradi.

5. Baholash usullari kartalari dars boshida, davomida yoki undan keyin diagnostik, formativ yoki summativ baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli baholash usullari jamlanmasini taqdim etadi.

Xulosa. O'tkazilgan treninglar Skaffold kartalari orqali o'qituvchilarda kompetensiyaga asoslangan o'rganish tajribasini yaratish uchun innovatsion va amaliy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, pedagogik mahoratni oshirish, sifatli ta'lim berish va o'quvchi ehtiyojlariga muvofiq o'quv jarayonini shakllantirishga yordam beradi.

Amaliyotchi o'qituvchi uchun qiziqarli va real hayotda o'rganishni targ'ib qiluvchi asosiy tamoyillar va usullarni o'rganish orqali Skaffold jamlanmasini to'ldiradi. Bu talabalarning faolligi, mulohaza yuritishni yaxshilash, markazlashgan ta'lim va an'anaviy o'qitishdan o'rganishni osonlashtirishga o'tish muhimligini ta'kidlaydi.

Skaffold kartalari jamlanmasi o'qituvchilarni ilhomlantirish va asosiy kompetensiyalarni o'qitish amaliyotiga integratsiya qilish uchun boshlang'ich nuqtadir. O'quvchilarning dinamik ehtiyojlarini qondirish uchun Skaffold kartalarini o'rganish, moslashtirish va tajriba o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda ular nafaqat bilim olishga, balki o'quvchilarga doimo o'zgarib turuvchi dunyoga o'z hissasini qo'shishga imkon beruvchi ko'nikma va xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan o'quv muhitini shakllantiradi.

IXTISOSLIK FANLARIDAN O'ZLASHTIRISH NATIJALARINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Ro'ziyev Furqat Ro'ziyevich,
Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholash metodologiyasining elementlari, usullari, bosqichlari hamda turli jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muhandislik ta'limi, bo'lajak muhandislarni baholash, ta'limni standartlashtirish, texnologik kompetensiya, ta'lim dasturlari, baholash modellari, zamonaviy yondashuvlar, barqaror texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены элементы, методы, этапы и различные аспекты методики оценки результатов освоения специализированных дисциплин при подготовке будущих инженеров к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Инженерное образование, оценка будущих инженеров, стандартизация образования, технологическая компетентность, образовательные программы, модели оценки, современные подходы, устойчивые технологии.

Annotation: This article discusses the elements, methods, stages and various aspects of the methodology for evaluating the results of mastering specialized disciplines in preparing future engineers for professional activity.

Key words: Engineering education, assessment of future engineers, standardization of education, technological competence, educational programs, assessment models, modern approaches, sustainable technologies.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida baholash tizimi va mezonlarini uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlariga muvofiqlashtirish, ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etadigan tizimni joriy etish kabi masalalar belgilab berilgan [1].

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ixtisoslik fanlarning rivojlanishini baholash turli pedagogik, texnik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali jarayondir. Chunki "Texnik mexanika" kabi umumkasbiy fanlar mazmunining nomuvofiqligi ixtisoslik fanlarni baholashni standartlashtirish muammosini keltirib chiqaradi [2]. Ushbu o'zgaruvchanlik muhandislik sohasi bitiruvchilarining kasbiy malakasining bir xilligiga ta'sir qiladi va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va baholashda yanada tizimli yondashuv zarurligini belgilaydi.

Respublikamizda kasbiy kompetensiyalarning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash uchun muhandislik ta'limi uchun moslashtirilishi mumkin bo'lgan modellarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Bo'lajak muhandislarda shakllangan kompetentsiyalarni tahlil qilish matematika va tabiiy qonunlar bo'yicha fundamental bilimlarning kasbiy muammolarini hal qilish uchun katta ahamiyat kasb etadi [4]. Ushbu fundamental bilimlar bo'lajak muhandislar uchun ixtisoslik fanlarni samarali o'zlashtirish uchun juda muhimdir. Zamonaviy

ISSN 2181-3841

muhandislarning ijodiy kasbiy o'zini-o'zi tayyorlashga e'tibor, ularning o'zlashtirishini baholash metodologiyasi, kasbiy tayyorgarlikdagi baholash jarayoni, shuningdek, o'quv fanlarining ishchi dasturlarini tayyorlash va amalga oshirish metodologiyasi ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholashda hozirgi holat va muammolarni har tomonlama tushunishga yordam beradi. Ushbu tahlillar birgalikda sanoat talablari va xalqaro standartlarga javob beradigan yaxlit, malakaga asoslangan va standartlashtirilgan baholash yondashuvi zarurligini ta'kidlaydi.

Muhandislik ta'limida ixtisoslik fanlarni o'zlashtirish natijalarini baholash bo'yicha quyidagi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Baholash jarayonining ko'p qirraliligi: *baholash pedagogik, texnik va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni o'z ichiga olganligini ta'kidlab, uni murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini inobatga olish.*

2. Huquqiy savodxonlikka bo'lgan ehtiyoj: *bo'lajak muhandislar uchun nafaqat texnik ko'nikmalarga ega bo'lish, balki milliy va xalqaro huquqiy normalarni tushunish muhimligini anglash.*

3. Standartlashtirish muammosi: *turli oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi texnik fanlar tarkibidagi farqlar bitiruvchilarning malakalarining bir xilligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishini ta'kidlash va baholashni standartlashtirish zarurligini ta'kidlash.*

4. Uzluksiz ta'lim: *malaka oshirish bo'yicha turli mamlakatlardan misollar keltirib, O'zbekistonda bunday modellarni kasbiy kompetensiyalarning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash uchun moslashtirib borish.*

5. Kasbiy kompetentsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari: *sanoatning zamonaviy talablariga javob beradigan o'ziga xos kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligiga e'tibor berish.*

6. Fundamental bilimlarning muhimligi: *matematika va tabiiy fanlardan fundamental bilimlar ixtisoslik fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish.*

7. Ijodkorlik va o'z-o'zini tayyorlash: *zamonaviy ishlab chiqarishda kasbiy tayyorgarlikka ijodiy yondashuvning ahamiyatiga e'tibor qaratish.*

8. Baholash usullari va o'quv dasturlarini tayyorlash: *mustaqil ishlari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda aniq baholash usullariga misollar keltirish, ularning kompetensiyalarni rivojlantirishga qo'shgan hissasini ta'kidlash*

Muhandislik ta'limida, ayniqsa ixtisoslik fanlarni o'zlashtirishda kompleks baholash ko'p qirrali bo'lib, sanoat va ilmiy doiralarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga javob beradigan keng ko'lamli metodologiya va natijalarni aks ettiradi. Keng qamrovli baholash nafaqat akademik yutuqlarni qamrab oladi, balki moliyaviy natijalarni, ta'lim sifatini va kasbiy rivojlanish dasturlarini yaxlit baholashni ta'minlaydi [5].

Muhandislik bilimlari va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini har tomonlama qo'llashni aks ettiradigan yangi imtihon modellarini joriy etish amaliy va ko'p qirrali baholash usullariga o'tishni zarurligini bildiradi. Integratsiyalashgan baholash dasturlarini yaratish bo'yicha institutsional sa'y-harakatlar ta'lim maqsadlari va o'lchash usullariga moslashishda baholash jarayonlarining dinamik xususiyatini ta'kidlab, doimiy takomillashtirishga qaratilgan formativ baholash bo'yicha tadqiqotlar, keng qamrovli baholash usullarini qo'llash muhandislik ta'limini baholashni boyitadi va ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga imkon beradi.

Muayyan ixtisosliklar bo'yicha baholashni avtomatlashtirish ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish orqali baholashning samaradorligi va aniqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, kasbiy tayyorgarlikdagi kompetensiyalarni baholashga e'tibor muhandislik ta'limining maqsadga muvofiqligini ta'kidlab, baholarning kasbiy tayyorgarlik va kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlariga muvofiqligini ta'minlaydi [6].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muhandislik ta'limida baholash metodologiyasining asosiy elementlarini 1-jadvalni ko'rishimiz mumkin:

T/R	Baholashning asosiy elementi	Tavsifi
1	**Ko'p qirrali yondashuvlar**	Baholash akademik yutuqlar, moliyaviy natijalar, dasturlarning sifati va jamiyatga ta'sirini o'z ichiga oladi.
2	**Haqiqiy baholash modellari**	Kasbiy mezonlarga javob beradigan va akademik va sanoat talablari o'rtasidagi tafovutni yo'qotadigan kompleks kompetentsiyani baholash.
3	**Baholashni avtomatlashtirish**	Ixtisoslik sanoat ehtiyojlarini qondirish bilan birga dasturni baholash samaradorligi va aniqligini oshirish.
4	**Ilg'or tajribalar**	Sanoat imkoniyatlari cheklangan mamlakatlarda ta'lim dasturlarini sanoat talablariga moslashtirish.
5	**Kompetensiyaviy baholash**	Baholashning kasbiy tayyorgarlik va kompetentsiyalarni rivojlantirish maqsadlariga muvofiqligini ta'minlaydigan ta'limning maqsadli xususiyatini ta'kidlash.

Mazkur jadval muhandislik ta'limida keng qamrovli baholashning turli jihatlari haqidagi ma'lumotlarni tartibga solishga yordam beradi, uning ko'p qirraliligi va hozirgi ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta'minlash uchun ta'limni standartlashtirish zarurligini ko'rsatib beradi.

Ta'limni standartlashtirish muammosi, ayniqsa texnik fanlar, ko'p qirrali bo'lib, turli universitetlar bitiruvchilarining vakolatlari bir xilligi uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. O'quv rejalari tarkibidagi fanlar farqi ushbu muammoni yanada kuchaytiradi, bitiruvchilarning malakasini samarali baholash va taqqoslashni qiyinlashtiradi. Ta'lim standartlarining evolyutsiyasi kompetentsiyani baholash tomon siljishni aks ettiradi, ammo an'anaviy ma'ruza va seminar formatlarini saqlab qolish ushbu yangi standartlarga javob berish uchun ta'lim amaliyotlarini amalda o'zgartirishdagi kechikishni bildiradi [7].

Quyida muhandislik sohasida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini asoslovchi jihatlar keltirilgan:

- Texnologik kompetentsiya: neft va gazkimyo sanoati mutaxassislari jarayonlarni modellashtirish, jarayonlarni boshqarish va tizimlarni optimallashtirish bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Gidrodinamik va termodinamik modellashtirish dasturlarini o'zlashtirishni nazarda tutadi.
- Yangi texnologiyalar bilan integratsiya: o'quv dasturlar ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun o'zaro aloqadorligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.
- Fanlararo yondashuv: oliy ta'lim nafaqat muhandislik ko'nikmalarini, balki xavflarni boshqarish, ekologik xavfsizlik va barqarorlikni ham qamrab olishi kerak, shunda mutaxassislar loyihalarni samarali boshqarishi va barqaror amaliyotlarni amalga oshirishi mumkin bo'ladi.
- Sanoat standartlariga rioya qilish: ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sifat va xavfsizlikni ta'minlash uchun o'qitish xalqaro neft va gaz kimyosi standartlari va qoidalariga mos kelishi muhim sanaladi.
- Muhandisli ta'limi madaniyati: mutaxassislar o'rtasida texnologiya va mehnat bozori o'zgarishlariga moslashishi uchun uzluksiz ta'lim madaniyatini rag'batlantirish kerak.

Tadqiqot ishimiz maqsadidan kelib chiqib neft-kimyo sanoatida kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va doimiy yangilab borishda ushbu jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozimligi o'rganildi, bu esa bitiruvchilarga kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli yengish va o'z sohasida innovatsiyalar va barqarorlikka hissa qo'shish imkonini beradi.

ISSN 2181-3841

Quyidagi 2-jadvalda neft-kimyo sanoatida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy jihatlari va tavsifi keltirilgan:

T/R	Jihatlar	Tavsifi
1	**Raqamli texnologiyalar integratsiyasi**	*Texnologiya muammolarini samarali hal qilish va operatsion samaradorlikni oshirish uchun muhandislarning zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan avtomatlashtirish, IoT va katta ma'lumotlar tahlili bo'yicha malakali bo'lish zarurati.*
2	**Fanlararo ko'nikmalar**	*Trening loyihalarni boshqarish, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni, bitiruvchilarni murakkab sanoat muammolarini hal qilish uchun zarur vakolatlar bilan jihozlashni qamrab olishi kerak.*
3	**Uzluksiz o'qitish tizimi**	*Mutaxassislarning raqobatbardoshligi va innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi uzluksiz o'qitish tizimi orqali yangi texnologiyalar va metodologiyalarga doimiy moslashish.*
4	**Katta ma'lumotlarni tahlil qilish**	*Katta ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha vakolatlar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va resurslarni samarali boshqarishni qo'llab-quvvatlaydigan asosli qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir.*
5	**Texnika xavfsizligini ta'minlash**	*Ishlab chiqarish xavfini minimallashtirish va baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan mashg'ulotlar va tadbirlar orqali xavfsizlik madaniyatini shakllantirish.*
6	**Xalqaro standartlarga rioya qilish**	*ISO 9001 va ISO 14001 kabi xalqaro standartlarni qabul qilish va ularga rioya qilish sanoatning yuqori sifatli va mas'uliyatli atrof-muhitni boshqarishga sodiqligini ta'kidlaydi.*
7	**Tabiiy resurslarni boshqarish**	*Resurs tejovchi va energiya tejovchi texnologiyalar orqali tabiatga ta'sirni minimallashtiruvchi ishlab chiqarish jarayonlarini innovatsion rivojlantirish, sanoatning barqaror rivojlanishga intilishiga alohida e'tibor qaratish.*

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, neft-kimyo sanoatida malakali mutaxassislarni yetishtirishda ushbu jihatlarni chuqur anglash va ta'lim dasturlariga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ixtisoslik fanlarni o'qitishda bo'lajak muhandislarning o'zlashtirish natijalarini baholashda samaradorlikka erishish uchun baholashning yangi usullarini hamda optimal tizimlarini ishlab chiqish, xalqaro standartlarga amal qilish, ta'limni avtomatlashtirish juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"пш PQ-3775-son Qarori.
2. Svitlana, Onyshchenko. (2022). To the problem of teaching technical disciplines at preparation of specialists to direction «professional education. energy». Naukovì zapiski Berdâns'kogo deržavnogo pedagogìčnogo unìversitetu, doi: 10.31494/2412-9208-2022-1-2-304-310
3. Aleksandr, V., Reprintsev., Anton, V., Zuykov., Aleksandr, A., Shumeyko., Svetlana, L., Lesnikova., Valentina, M., Panfilova. (2018). Assessment of specialists' effectiveness within competency-improvement approach (Based on quality criteria).
4. Larisa, V., Zanfirova., Tatyana, P., Kovalenok., Yana, Chistova., Natalya, V., Sergeeva. (2021). Intellectual readiness of future engineers to master the disciplines of the professional curriculum part while online learning. doi: 6.1051/E3SCONF/202127312079
5. Soma, Chakrabarti., Zachary, Gredlics., Kevin, Curry., Kara, D, Lynch. (2013). Sustaining Successful Continuing Professional Engineering Education Programs by Systematic Assessment of the Key Performance Results.

PROFESSIONAL TA'LIM ISTIQBOLLARI

Professional ta'limning raqamli malaka oshirish muhitida tinglovchilarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish asoslari — 2
Ro'ziyev Dilshod Ubaydullayevich

O'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish holati — 6
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna, Agaliyeva Xabiba Narmaxmad qizi, Omonova Xusnidaxon Topivoldiyevna

O'quv mashg'ulotlarda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish — 10
Hamidov Jalil Abdurasulovich, Komilova Nodira Abdurahmon qizi

KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI

Xalqaro mehnat bozori talablariga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitish — 15
Masharipov Farrux O'tkirovich

Moslashuvchan professional ta'lim tizimi mehnat bozori ehtiyojlari uchun malakali o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashning kaliti — 23
Ergashev Nodir Erniyazovich

Bo'lajak energetika muhandislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy modelini takomillashtirish — 28
Xafizov Erkin Alimboy o'g'li

ILM-FAN VA INNOVATSIYA

Androgogik xarakterdagi interaktiv metodlar orqali professional ta'lim tizimi o'qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirish — 33
Ashurova Sanobar Yuldashevna

Kasb-hunar maktablari o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash stpategiyasini loyihalashtirish — 38
Xasanov Mansur Abrarovich

Bo'lajak muhandislarning standartlashtirish va metrologik ta'minot sohasidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari — 42
Nosirov Jahongir Normurod o'g'li

BANDLIKNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Professional ta'lim tizimida kasbga o'rgatish mazmunini modernizatsiya qilish va bitiruvchilar bandligini ta'minlashda ish beruvchilar ishtirokining dolzarbligi — 49
Otayarov Javohir Odiljon o'g'li

Professional ta'lim xizmatlari – iqtisodiy rivojlanish asosi sifatida — 54
Shadiyev Shavkat Zakirovich

Maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish — 58
Shomirzayev Baxtiyor Nazarovich

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETILISHI

Sun'iy intellektning professional ta'limdagi roli — 63
Jo'raqulova Gulxayo Rizo qizi

Talabalarda tayanch kompetentlikni innovatsion hamkorlik asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish — 67
Yarova Sevara Baxodir qizi

Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni — 71
Irisqulov Farhod Sultonboyevich

PROFESSIONAL TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim asosida o'quv jarayonlarini tashkil etishning didaktik asoslari — 78
Yusupova Adolat Primqulovna

Simulyatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda professional ko'nikmalarni shakllantirish — 84
G'afforov O'ktamjon Ravshanovich

Эффективность групповой работы на обучении — 89
Kadirova Gulnora Xasanovna

Professional ta'limda "Skaffold" metodologiyasi — 94
Xodjamberdiyeva Dilnoza Baxtiyorovna

Ixtisoslik fanlaridan o'zlashtirish natijalarini baholash metodologiyasi — 96
Ro'ziyev Furqat Ro'ziyevich

ISSN 2181-3841

O‘ZBEKISTONDA
– PROFESSIONAL TA’LIM –
2024 yil, 3-son

Tahrir hay’ati raisi
Kongratbay Sharipov
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari
Shaxrux Daliyev
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari

Bosh muharrir
Zayniddin Xudayberdiyev
Professional ta’limni rivojlantirish instituti direktori

Tahrir kengashi a’zolari:
Risbay Djurayev
Qalandar Abdurahmonov
Valeriy Golubovskiy
Qahramon Olimov
Narzulla Muslimov
Ekaterina Artamonova
Sanobar Ashurova
Karimova Nozima

Muassis:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta’limni rivojlantirish instituti

Manzil:
Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-chimboyko‘chasi, 96-uy.
Telefon: 71-246-90-37
E-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Jurnal O‘zbekistondagi professional ta’lim muassasalariga tarqatiladi.

Mas’ul muharrir:
Nodir Yusupov
Ijodiy jamoa:
Husan Nishonov
Doniyor Teshayev
Shavkat Shadiyev
Dizayner va sahifalovchi
Tohir Xudayberganov

Mazkur jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2022 yil 24 aprel kuni №1591 raqamli guvohnoma bilan ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan hamda O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan 2181-38-41 raqamli ISSN olingan bo‘lib, obuna indeksi: 1396. Shuningdek, “O‘zbekistonda professional ta’lim” jurnali Oliy attestasiya komissiyasi rayosatining 2023 yil 29 avgustdagi 342/2-son qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma №001

HURMATLI JURNALXONLAR!

“O‘zbekistonda professional ta’lim” jurnali tahririyatisizni o‘zaro hamkorlikka taklif etadi.

Jurnalimiz sahifalarida professional ta’lim tizimini rivojlantirishga, o‘quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy, tahliliy maqolalar nashr etiladi.

Professional ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, kasb-hunar o‘rganishga oid metodik tavsiyalar haqida, shuningdek, joriy etilgan ilg‘or tajribalar hamda tizimda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar va yangiliklar haqida o‘z fikrlaringizni biz bilan o‘rtoqlashishingiz mumkin. Hurmatli professional ta’lim fidoyilari, ustozlar!

Tahririyatimiz siz bilan hamkorlik qilishdan juda mamnun. Maqolalaringizni quyidagi manzillar orqali bizga yuboring, tajribalaringizni hamkasblaringiz bilan bo‘lishing!

Telefon: +99871-227-19-24
Mobil: +99898-210-88-58
E-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

“Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matbaa uyi

Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy

Obuna indeksi 1396

edu.profedu.uz
Metodik ta'minlash platformasi

Platformaning asosiy sahifalari:

- O'quv-me'yoriy hujjatlar;
- Darsliklar;
- O'quv qo'llanmalar;
- Qo'shimcha adabiyotlar;
- O'qitish materiallar to'plami;
- Qisqa muddatli kurslar;
- Metodik tavsiyalar;
- Metodik yo'riqnomalar;
- Video resurslar;
- Infografikalar.

Ushbu axborot tizimi professional ta'lim muassasalarigaonlayn metodik ta'minotni amalga oshiradi

edu.profedu.uz
Professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining faoliyatini metodik ta'minlash platformasi

my.moqt.uz
Professional ta'limning masofaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash platformasi

vacancy.edu.uz
Oliy va professional ta'lim muassasalarida mavjud bo'sh ish o'rinlariga hujjatlarni onlayn yuborish platformasi

e-texnikum.uz
Professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayonni raqamlashtirish platformasi

prof-talim.edu.uz
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining akademik litsey va professional ta'lim muassasalari platformasi

cgtvet.uz
Kattalarga ta'lim berish va o'qitish xalqaro dasturi bo'yicha onlayn malaka oshirish platformasi

help.edu.uz
Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimiga oid eng ko'p beriladigan savollarga javoblar portali

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI